



66. 3. (59)

K-25



ISLOM KARIMOV

DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI
YANADA CHUQURLASHTIRISH
VA FUQAROLIK JAMIYATINI
SHAKLLANTIRISH –
MAMLAKATIMIZ
TARAQQIYOTINING
ASOSIY MEZONIDIR

19

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON» NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
2011



УДК: 321.7(575.1)+342.34(575.1)

ББК 66.3(5Ў)+66.3(5Ў)12

K25

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarining 19-jildidan davlatimiz rahbarining 2010—2011-yillarda Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislarida, BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB), turli xalqaro anjumanlar, marosimlarda so'zlagan nutqlari va ma'ruzalarini hamda tabriklari o'rin olgan.

ISBN 978-9943-01-746-7

© "O'ZBEKISTON" NMIU, 2011

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 19 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

**Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!
Hurmatli mehmonlar!**

Bugun go'zal va betakror yurtimizda buyuk ayyom, katta tantana. Xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan o'z milliy mustaqilligining o'n to'qqiz yillik bayramini baland ruh va xursandchilik bilan kutib olmoqda.

Haqiqatan ham, barchamiz uchun eng ulug', eng aziz bo'lgan ana shu bayram bilan siz, azizlarni, sizning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklash men uchun katta baxtdir.

Aziz do'stlar!

Bugun, shu qutlug' ayyom arafasida Vatanimiz ozodligiga erishish, hech kimga tobe va qaram bo'lmasdan, o'z taqdirimizni o'z qo'llimizga olib, yurtimiz boyliklariga, uning tabiiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatiga ega bo'lish, bir so'z bilan aytganda, ham siyosiy, ham iqtisodiy mustaqillikni

mustahkamlash yo'lida xalqimiz qanday og'ir va ma-shaqqatli yo'lni bosib o'tgani beixtiyor ko'z o'ngi-mizdan o'tadi.

Biz bu yo'lida har qanday murakkab va tahlikali sinovlar, to'siq va g'ovlardan o'tib, yovuz va zo'ravon harakatlar oldida bosh egmasdan, qanchalik qiyin bo'lmasin, o'z tanlagan yo'limizdan qaytmadik, ezgu maqsadlarimizga yetish uchun qat'iyat va matonat bilan qadam qo'ydik.

Bugun mustaqil taraqqiyot yillarida bosib o'tgan, oson kechmagan yo'limizni, amalga oshirgan ishlarimizni, erishgan yutuq va marralarimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech shubhasiz, xolisona bir xulosaga kelishimiz tabiiyidir.

Ya'ni, bundan o'n to'qqiz yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azm-u qarorimiz yakka-yu yagona, to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiq-lab bermoqda.

Buning isbotini, avvalo, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zi va oilasi, yaqinlari misolida, shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimizning har tomonlama rivojlanib, obod bo'lib borayotgani misolida yaqqol ko'rishi mumkin.

Buning tasdig'i sifatida hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramasdan, O'zbekiston dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini namoyon etmoqda.

Oxirgi ikki yil davomida mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sish darajasi mos ravishda 9 va 8,1 foizni tashkil etgani, bu yil esa 8,5 foizni tashkil etishi kutilayotganining o'zi ko'pchilikning hayrat va havasini uyg'otmoqda.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz erishgan marralarni o'zimizga tasavvur qilish uchun quyidagi raqamlarni keltirish o'rni deb bilaman.

1990-yilga nisbatan yalpi ichki mahsulotimizning o'sishi taxminan 3,5 karra, aholi jon boshiga hisoblaganda 2,5 barobar oshgan, o'rtacha oylik ish haqi esa shu yilning oxirigacha qariyb 500 AQSH dollarini tashkil qilib, taxminan 14 karraga ko'payadi.

Yana bir raqam — Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi va yurtimizda inson salomatligini asrash, unga munosib sharoit yaratish va g'amxo'rlik ko'rsatish uzlucksiz o'sib borayotganining tasdig'i sifatida aholimizning o'rtacha umr ko'rish darajasi so'nggi yigirma yil davomida 67 yoshdan 73 yoshga yetganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi.

Hammamiz yaxshi tushunamiz: bunday natijalarga albatta bir-ikki yil mobaynida erishib bo'lmaydi.

Bu marralarni biz mustaqillik yillari davomida xalqimizning kundalik mashaqqatli va o'ta og'ir mehnati evaziga qo'lga kiritganimiz.

Shuning uchun bu mo'tabar zaminda istiqomat qilayotgan har bir yurtdoshimiz bu yutuqlardan g'ururlanib-faxrlanib yashashga to'la haqlidir.

Qadrli yurtdoshlarim!

Bizning eng ezgu maqsad-muddaomiz — dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirishdan iboratdir. Buning uchun o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bir-biriga teng, bir-birini to'ldiradigan ikki hal qiluvchi vazifani amalga oshirish bizning doimiy e'tibor markazimizda turishi zarur.

Birinchidan, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni va olib borilayotgan islohotlarni yanada churqlashtirish, iqtisodiy-jitimoiy o'sishimiz va texnologik rivojlanishimiz sur'atlarini yuksaltirish hisobidan Vatanimiz taraqqiyoti va aholimiz farovonligini munosib darajaga ko'tarishdir.

Ikkinchidan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishni, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilashni, yurtimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishni davom ettirishdir.

Biz bugun mana shunday buyuk maqsadlarni oldimizga qo'yar ekanmiz, chuqur anglab olishimiz zarurki, bunday orzu-intilish mustaqillikning

birinchi kunlaridan boshlab olib borayotgan siyosatimizning mantiqiy va qonuniy davomi bo‘lib, butun xalqimizdan tinimsiz mehnat va kuch-g‘ayratni safarbar etishni talab qiladi.

Shu bilan birga, bu vazifa zamon o‘zgarishi bilan har birimizdan dunyoqarashimiz, ong-u tafakkurimizni, siyosiy va huquqiy saviyamizni yuksaltirish, yon-atrofimizda bo‘layotgan voqealarga daxldorlik tuyg‘usini yanada kuchaytirishni, sodda qilib aytganda, bu go‘zal va betakror yurt — men uchun yagona Vatan, uning boshidan kechirayotgan quvonch va tashvishlari — mening quvonch va tashvishlarim, deb, shunday hissiyot bilan yashashni talab qiladi.

Shu borada mening eng katta umidim va ishonchim — mana shu muhtasham maydonga chiroy berib o‘tirgan siz aziz farzandlarimda, sizning timsolingizda bugun quvvatga to‘lib, hech kimdan kam bo‘lmayman, deb, zamonaviy bilim va tajribalarni egallahsga bel bog‘lagan, tobora hal qiluvchi kuch bo‘lib hayotga kirib kelayotgan yosh avlodda, desam, hech qanday xato bo‘lmaydi. Bunday avlodni hech qachon yengib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda 2010-yilga «Barkamol avlod yili» deb nom berganimizning o‘zi aynan shunday ezgu orzu-niyatlarimizni amalga oshirish yo‘lida, hech shubhasiz, yana bir qat’iy qadam bo‘lib qolajak.

Ishonchim komil, ko'pni ko'rgan, boshidan ko'p sinovlarni o'tkazgan xalqimiz chuqur anglaydiki, bunday yuksak vazifalar va olижаноб orzu-niyatlarimizni amalga oshirish uchun yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, osuda hayotimizni ko'z qorachig'idek asrash, jamiyatimizdagi millatlar va dinlararo totuvlik va bag'rikenglikni yanada mustahkamlashimiz darkor.

Eng muhimi, mintaqamizda, yaqin yon-atrofimizda yangi qarama-qarshilik va tajovuz o'choqlarini alanga oldirishga harakat qiladigan har qanday kuchlardan doimo sezgir, ogoh va hushyor bo'lib, bunday urinishlarning oldini olish va bartaraf etishga tayyor turishni bugungi notinch va tahlikali zamonitoring o'zi taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, jahon ham-jamiyati bilan hamkor bo'lib yashashni, barcha uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlashni biz hamisha eng dolzarb vazifa deb bilganmiz va bunday siyosatni albatta izchil davom ettiramiz.

Fursatdan foydalaniib, bugungi tantanamizda bayram quvonchini biz bilan baham ko'rayotgan xorijiy davlatlarning elchilari, xalqaro tashkilotlarning vakillariga, muhtaram mehmonlarimizga xalqimiz nomidan hurmat-ehtirom bildirib, dunyodagi barcha do'st-u hamkorlarimizga sami-

miy salom va tilaklarimizni yo'llashga ruxsat bergaysiz.

Aziz va qadrli vatandoshlarim!

Shu munavvar oqshomda hammangizni Mustaqillik bayrami bilan yana bir bor qutlar ekanman, avvalambor, yurtimizni tinch-omon saqlab, asrab kelayotgan, ezgu ishlarimizga o'zi madadkor bo'lgan Yaratganimizga shukronalar aytib, erishgan barcha yutuq va marralaramizning ijodkori va bunyodkori bo'lmish xalqimizga bosh egib ta'zim qilaman.

Barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

2010-yil 31-avgust

BMT BOSH ASSAMBLEYASINING MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARIGA BAG'ISHLANGAN OLIY DARAJADAGI YALPI MAJLISIDAGI NUTQ

Muhtaram rais janoblari!

Hurmatli do'stlar!

Jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda.

Ushbu haqiqatning tasdig'ini 30 yildan buyon harbiy harakatlar davom etayotgan jafokash Afg'oniston misolida ko'rishimiz mumkin. Bugun afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmasligi yanada ayon bo'lmoqda, koalitsiya kuchlarining Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha tanlagan strategiyasi esa kutilgan natijalarni bermayapti. Muttasil davom etayotgan urush Afg'oniston xalqining ahvolini tobora og'irlashtirmoqda va muammoni hal etishni yanada qiyinlashtirmoqda.

Hozirgi vaziyatda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishning muqobil yo'llarini topish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'llardan biri, bizning fikrimizcha, O'zbekiston tomonidan 2008-yilda taklif etilgan BMT shafeligida «6+3» muloqot guruhini tashkil qilish muhim rol o'ynagan bo'lur edi. Tashabbusimizning mazmun-mohiyati shundan iboratki, afg'onistonliklar o'z mamlakati muammolarini o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, Afg'onistonda urushning tugashi va uning barqaror kelajagidan manfaatdor mamlakatlar ko'magida o'zları hal etishlari darkor.

Ular sirasiga, avvalambor, tinchlik o'rnatish missiyasiga daxldor AQSH, NATO, Rossiya, shuningdek, Afg'oniston bilan bevosita qo'shni mamlakatlarni kiritish zarur. «6+3» muloqot guruhining eng muhim maqsadi — bir-biriga qarshi kurashayotgan tomonlarga Afg'onistonda harbiy harakatlarni to'xtatish dasturini taklif etish, mamlakatni parokanda qilayotgan asosiy muammo va ziddiyatlar bo'yicha o'zaro murosa asosidagi yechimlarni topish, xavfsizlikni ta'minlash hamda barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda zarur kafolatlarni berishdan iborat.

Bu borada ushbu Dasturda iqtisodiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy, infratuzilma va gumanitar loyihalarni amalga oshirish, aholi bandligi mu-

ammolarini, qashshoqlik, huquqsizlikka qarshi kurash bo'yicha eng dolzarb vazifalarni hal etishga alohida e'tibor berilishi lozim. Afg'oniston xalqi amal qiladigan ko'p asrlik an'analar, urf-odatlar, islom dinining qadriyatlari to'liq hurmat qilinishi zarur.

Shuni ta'kidlamoqchimanki, bunday maqsadlariga erishish uchun hozircha Afg'onistonda turgan tinchlikparvar koalitsiya kuchlari yordam berishi mumkin.

2010-yilning iyunida Qирг'изистонда ro'y bergan fojiali voqealar Markaziy Oсиyo mintaqasidagi vaziyatni izdan chiqarish borasida jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu yilning aprelida obro'-e'tiborini yo'qotgan prezident hokimiyatining ag'darilishi, yuzaga kelgan keskinlik va qarama-qarshiliklar, shuningdek, mamlakatda qonuniy hokimiyatning zaifligi Qирг'изистон janubida millatlararo qonli va shafqatsiz voqealar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida yuzlab begunoh odamlar qurban bo'ldi, minglab tinch aholi jabr ko'rди.

Qирг'излarning o'zi ham, respublika janubida yashayotgan ko'p sonli o'zbeklar ham uchinchi kuchlar tomonidan puxta o'ylangan va uyushtirilgan aksiyaning qurbaniga aylandi, deyish uchun bugun barcha asoslarimiz bor.

Uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan bu aksiyadan maqsad mamlakatda nafaqat tartibsizlik va paro-

kandalikni yuzaga keltirish, balki O'zbekistonni ushbu vahshiyona xunrezlikka tortish, pirovard natijada, millatlararo qarama-qarshilikni ikki qo'shni mamlakat — Qиргизистон hamda O'zbekiston o'rtaсидаги давлатлараро qarama-qarshilikka aylan-tirishdan iborat edi.

O'ta murakkab va o't olib ketish xavfi bo'lgan mazkur vaziyatda qabih niyat bilan tashkil etil-gan voqealarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik biz uchun nihoyatda og'ir muammoga aylandi. O'z hududimizda yuz mingdan ortiq qochqinlar, bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni qabul qilish, ularni joylashtirish va barcha zarur narsalar bilan ta'minlash juda katta kuch, mehnat va resurslarni talab qildi. Ayni paytda o'ta shafqatsiz zo'ravonlikning avj olishiga yo'l qo'ymaslik, chegara huddida osoyishtalikni saqlash, favqulodda oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan qahr-u g'azabni jilovlash, ekstremizmning shiddatli tus olishining oldini olish zarur edi.

Faqat aql-idrok, oddiy haqiqatni, ya'ni ushbu zaminda ko'p asrlar davomida o'zbeklar va qиргизлар yonma-yon yashab kelgani va bundan buyon ham ularning farzandlari hamda avlodlari ko'p asrlar mobaynida birga yashashini teran anglash bizga va xalqimizga mazkur fofianing Markaziy Osiyoda qarama-qarshiliklarning yangi, keng ko'lamli

o'chog'iga aylanib ketishining oldini olishda muhim omil bo'ldi.

Albatta, bugun Qirg'iziston insonparvarlik yordamiga, qo'shnilar hamda jahon hamjamiyatining ko'magiga muhtoj.

Biroq, 11—14-iyun kunlari Qirg'iziston janubida sodir etilgan talon-torojlar, xunrezlik va zo'rvonliklar bo'yicha mustaqil xalqaro tekshiruv o'tkazish, ushbu qonli vahshiyliklarning barcha buyurtmachilari, tashkilotchilari va ijrochilarini jinoiy javobgarlikka tortish yanada muhim vazifa hisoblanadi.

Ishonchim komilki, taxminlarga asoslangan har qanday fikrlar va biryoqlama yondashuvlarni istisno qiluvchi xolis va mustaqil xalqaro tekshiruvlarni o'z vaqtida o'tkazish, xalqaro hamjamiyatning bu boradagi qat'iy prinsipial pozitsiyasi Qirg'iziston janubida qirg'izlar hamda kam sonli o'zbeklarning murosaga kelishi va totuvligini ta'minlash uchun yo'l ochib berishi mumkin. Bunday pozitsiyadan har qanday chekinish Qirg'iziston janubida fojiali voqealarning yana takrorlanishi, o'ta xavfli keskinlik manbayining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligini alohida ta'kidlashni istardim.

Shu munosabat bilan biz BMTdan fojiali voqealar yuzasidan mustaqil xalqaro tekshiruvlar o'tkazish borasida har tomonlama yordam ko'rsati-

shini kutishga haqlimiz. Bu, o‘z navbatida, qo‘sni Qirg‘izistonda voqealarning yana avj olishining oldini olish imkonini beradi.

Ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash, ayniqsa, hozirgi anomal tabiiy o‘zgarishlar sharoitida Mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Orol fojiasi ekologiya muammolariga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishning yaqqol misolidir. Bir paytlar noyob va go‘zal dengizlardan biri bo‘lgan Orol bir avlod hayoti davomida deyarli qurib va yo‘qolib borayotgan suv havzasiga aylandi.

Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriysi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o‘nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo‘qoldi.

Bugun Orolbo‘yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo‘ldi. BMT Bosh kotibi janob Pan Gi Mun shu yil Orolbo‘yiga tashrifi chog‘ida bunga ishonch hosil qildi. Va biz bu tashrif uchun unga katta minnatdorlik bildiramiz.

Orol dengizining qurishi davom etayotgani va uning atrofida gumanitar falokat sodir bo‘layotgani

sababli Orolbo'yining tabiiy biologik fondini asrabavaylash, Orol inqirozining atrof-muhitga, eng muhimi, bu yerda istiqomat qilayotgan yuz minglab va millionlab odamlar hayotiga halokatli ta'sirini kamaytirish bugungi kundagi eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shuni hisobga olish zarurki, Orolbo'yi hududi ikkita asosiy manba — Amudaryo va Sirdaryo hisobidan suv bilan ta'minlanadi, ushbu daryolar oqimining kamayishi mazkur keng mintaqaning shundoq ham zaif ekologik muvozanatini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Bunday sharoitda 30—40 yil avval, sobiq sovet davrida ishlab chiqilgan, mazkur daryolar yuqori qismida ulkan gidroinshootlarni qurish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga har qanday urinishlar, boz ustiga, ushbu inshootlar barpo etiladigan zonalarning seysmik xavfi 8—9 ballni tashkil etishini hisobga olsak, bularning barchasi ekologiyaga o'nglab bo'lmaydigan zarar yetkazishi va xavfli texnogen halokatlarga olib kelishi mumkinligi ayon bo'ladi.

Ko'plab xalqaro ekologiya tashkilotlari va nufuzli ekspertlar tavsiya qilayotganidek, ushbu daryolardan shu miqdordagi energetika quvvatlarini olish uchun nisbatan xavfsiz, ammo ancha tejamkor kichik GEslar qurilishiga o'tish oqilona yo'l bo'lur edi.


Qurib borayotgan Orol muammosi — bu ushbu mintaqada yashayotgan, BMTdek nufuzli tashkilotga umid bilan yordam so‘rab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir.

Janob Rais!

Fursatdan foydalanib, Sammit ishtirokchilariga O‘zbekistonda Mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar haqida qisqacha ma’lumot bermoqchiman.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida BMT a‘zolari safidan joy olganiga atigi 19 yil bo‘ldi. Ilgari o‘zining bir tomonlama rivojlangan xomashyo yetishtirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyoti, halokatli paxta yakkahokimligi avjga chiqqan, qoloq ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasi, jon boshiga iste’mol darajasi past bo‘lgan mamlakatimiz mustaqil rivojlanish yillarida yangi va ulkan marralarni qo‘lga kiritdi va buning natijasida uning qiyofasi tamomila o‘zgardi, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi.

O‘tgan yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot 3,5, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 baravar o‘sdi, o‘rtacha ish haqi 14 baravar oshdi. Davlatning ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza uchun sarfxarajatlari 5 baravardan ziyodroq ko‘paydi. Har yili davlat budgetining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilmoqda.



Bugungi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 82,5, tabiiy gaz bilan ta'minlash 83,5 foizga yetdi, sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlanadirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. Onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi. Ushbu davrda, ya'ni qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining 48 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining jiddiy ta'sirlariga qaramay, O'zbekiston dunyodagi kam sonli davlatlar qatorida iqtisodiyotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda, ishonchli faoliyat ko'rsatayotgan moliya-bank tizimini saqlab turibdi.

Masalan, 2008—2009-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 9 va 8,1 foizni tashkil qildi, joriy yilda bu ko'rsatkich 8,5 foiz darajada bo'lishi kutilmoqda. Davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida qabul qilingan **mamlakatni demokratlashtirish bo'yicha o'z modelimiz**, iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va

siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish tamoyillariga asoslangan **ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish** ushbu yutuqlarni qo'lga kiritishda muhim omil bo'lmoqda. Biz, avval-boshdan «shok terapiysi» deb atalgan usullarni chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik, «Yangi uyni qurmasdan turib, eskisini buzmang» degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, ma'muriy-buyruqbozlik, mustabid tizimdan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni tanladik.

Ta'lim jarayoni va odamlar tafakkurining yuksalishi ushbu barcha o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidlashni istardim.

O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10—12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3—5 foizdan oshmaydi. Mamlakatimizda noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi, 2009-yildan boshlab 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. O'zbekiston dunyoning rivojlangan

davlatlari qatoriga qo'shilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni, mamlakatni modernizatsiya qilishni davom ettirish hamda chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va shu asosda o'z fuqarolari uchun munosib turmush sharoitini yaratishni o'zining istiqboldagi muhim vazifalari deb biladi.

So'zimning yakunida shuni ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun taklif etgan Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga erishish borasidagi Taraqqiyotni jadallashtirishga oid global harakatlar rejasini qo'llab-quvvatlaydi va uni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Nyu-York shahri,

2010-yil 20-sentabr

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram muallim va murabbiylar!

Qadrli ustozlar!

Avvalambor, sizlarni umumxalq bayrami —
O'qituvchilar va murabbiylar kuni bilan chin
qalbimdan tabriklab, barchangizga yuksak hurmat-
ehtiromimni bildiraman.

Bugun dunyodagi eng ulug' va sharafli kasb egasi
bo'lgan aziz ustozlarga samimiyl tilaklarimizni izhor
etar ekanmiz, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher
Navoiyning: «Muallim zoti ezgulik va ma'rifat
yo'lining beminnat charog'bonidir», degan hikmatli
so'zлari beixtiyor yodimizga tushadi.

Bunday yuksak va haqqoniy baholar farzandlari-
mizni jismoniy va ma'naviy yetuk, barkamol insonlar
etib o'stirish, voyaga yetkazishdek ezgu va mas'uliyatli
ishni o'z zimmasiga olgan yurtimizdag ming-minglab
jonkuyar ustoz va murabbiylar, hurmatli domla-
larimiz sha'niga munosib ekanini barchamiz bugun
chuqur anglaymiz.

Haqiqatan ham, ko'z nuri va qalb qo'rini, butun ongli hayotini yosh avlodga bilim va tarbiya berishga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga bag'ishlagan, bir so'z bilan aytganda, Vatanimizning ertangi kunining poy-devorini yaratayotgan siz azizlarning kundalik oliyjanob mehnatingiz oldida ta'zim etsak arziydi, albatta.

Hech shubhasiz, bu yilgi bayramning Barkamol avlod yilda, uning yuksak maqsad va vazifalariga uyg'un va hamohang tarzda keng nishonlana-yotgani bu ayyomga alohida ko'tarinki ruh bag'ish-lamoqda.

Aziz yurtdoshlar!

Biz mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, ilg'or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratib, bor kuch va imkoniyatlarimizni shu yo'lida safarbar etmoqdamiz.

Mohiyati va ahamiyatiga ko'ra chindan ham noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning uzviy davomi bo'lgan Maktab ta'limini rivojlantirish dasturi bugungi kunda hayot sinovidan o'tib, o'z

hosilini berayotgani, xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgani barchamizga haqli ravishda g'ururiftixor bag'ishlaydi.

Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan turib, O'zbekistonning mustaqillik yillarida — tarixan qisqa bir davrda erishgan, shu jumladan, ta'lim va ma'rifat sohasida qo'lga kiritgan yutuq va marralari haqida keltirilgan ma'lumotlar yig'ilganlarda katta qiziqish va havas uyg'otdi.

Eng muhimi, ana shu davr mobaynida chuqur o'ylangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirgan ulkan ishlarimiz natijasida mamlakatimiz dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar qatorida 12 yillik majburiy umumiyligi va o'rta maxsus ta'lim tizimiga o'tgani O'zbekistonimiz erishgan yutuqlarning yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilindi.

Haqiqatan ham, mamlakatimizda keyingi o'n-o'n ikki yil mobaynida 1 ming 394 ta kasb-hunar kolleji, 142 ta akademik litsey, 9 ming 772 ta maktab, o'nlab oliy o'quv yurtlari yangitdan bunyod etilgani, rekonstruksiya qilingani va kapital ta'mirlanganining o'zi tariximizda ilgari hech ko'rilmagan ulkan hodisadir.

Ana shunday ezgu ishlarimizning davomi sifatida maxsus dasturlar bo'yicha 1 ming 200 ta bolalar

sporti obyekti barpo etilgani, 278 ta musiqa va san'at maktabini yangitdan qurish va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilayotganini ta'kidlash lozim.

Ayni vaqtida ushbu maskanlarni zamonaviy talablar asosida jihozlash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimini keng joriy qilish, o'quvmashg'ulot va laboratoriya xonalarini tashkil etish, darslik va qo'llanmalarning yangi avlodini yaratish, malakali pedagog va murabbiy kadrlar tayyorlash uchun qancha-qancha mehnat, kuch va mablag' sarflangani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q.

Yana bir muhim tomoni — uzoqni ko'zlab amalga oshirayotgan bunday ishlarimiz nafaqat shahar va qishloqlarimiz qiyofasini, balki butun jamiyatimiz, avvalo, yoshlarimizning dunyoqarashini, ularning siyosiy, huquqiy va madaniy saviyasini o'zgartirib, mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro'e'tiborini yuksaltirishda mustahkam poydevor bo'layotgani bilan, ayniqsa, e'tiborlidir.

Albatta, oldimizda turgan ezgu maqsadlarimizga erishish yo'lida yaratilgan barcha keng imkoniyatlar e'tirof etilayotgan bir paytda, biz, eng avvalo, bunyod etilayotgan sharoitlarga bamisol jon va kuch berayotgan, ularni ishga solayotgan muallim va murabbiylarning og'ir va mas'uliyatli mehnatining

o‘rni va ahamiyatini chuqur anglab, ularni munosib qadrlash va baholash barchamizning doimiy e’tiborimiz markazida turishini yaxshi tushunamiz.

Ayni shu maqsadda pedagog xodimlarni mod-diy va ma’naviy qo’llab-quvvatlash, ularning mehnatini rag‘batlantirish, ish haqini oshirish bo‘yicha yangi tizim joriy etish, o‘qituvchilik, murabbiylik, ma’rifat sohasida jonkuyarlik va fidoyilik ko‘rsatayotgan insonlarni Vatanimizning yuksak unvonlari, orden-medallari va mukofotlari bilan taqdirlash masalalarini o‘zimizning burchimiz deb hisoblaymiz va bundan keyin ham shunday bo‘lajak, inshoollo.

Bu haqda fikr yuritar ekanmiz, diqqatingizni yana bir masalaga jalb etishni istardim. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga hujjat topshirayotgan abituriyentlar soni eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 22,6 foizni tashkil etmoqda.

Agarki, bu nimaning dalolati, deb so‘rasa, men, bu birinchi navbatda, mamlakatimizda o‘qituvchilik chindan ham sharafli kasbga aylanayotgani, yoshlarimiz o‘z o‘rnim, o‘z baxtimni aynan shu kasb orqali topaman, deb astoydil intilayotgанин dalolatidir, deb aytgan bo‘lardim.

Biz mamlakatimizni modernizatsiya qilish, hayotimizni yanada erkinlashtirish hisobidan dunyo-

dagi taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirishni o‘z oldimizga buyuk maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlarni aslo bo‘sashtirmsandan, yangi va yuksak bosqichga ko‘tarishni zamonning o‘zi talab etmoqda.

Barchamizga ayonki, bugun hayot shiddat bilan o‘zgarib, yoshlarning ongi va qalbini egallah uchun turli intilish va harakatlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday murakkab bir vaziyatda milliy o‘zligini, kimning, qanday buyuk zotlarning vorisi ekanini, Vatan tuyg‘usini chuqur anglaydigan, irodasi mustahkam, yuksak ma’naviyatli yosh avlodgina bizga yet va begona bo‘lgan zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura oladi.

Farzandlarimizni ana shunday ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashda mening eng yaqin maslakdoshim, ko‘makchim va suyanchim bo‘lgan siz, muhtaram muallim va murabbiylar o‘zingizning bilim va tajribangizni, kuch-g‘ayrat va mahoratingizni ayamaysiz, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, siz azizlarimga — yurtimizdagi barcha o‘qituvchi va murabbiylarga Vatanimizning bugungi ravnaqi, ertangi istiqboli yo‘lidagi mas’uliyatli mehnatingiz uchun xalqimiz nomidan, o‘z nomimdan yana bir bor chuqur minnatdorlik izhor etishni ham qarz, ham farz deb bilaman.

Qadrli do'stlar!

Barchangizni qutlug' bayramingiz bilan samimiy tabriklab, sizlarga yangi-yangi yutuqlar, sihat-salomatlik va baxt-u saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik tilayman.

Umrингиздан baraka toping, hech qachon kam bo'lmang, aziz ustozlar!

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA MEHNATKASHLARIGA

Qadrli do'stlar!

Bugun el-yurtimiz hayotida quvonchli bir kun. Mamlakatimiz paxtakorlari 3 million 400 ming tonnadan ziyod yuksak xirmon bunyod etib, katta mehnat g'alabasini qo'lga kiritdilar.

Haqiqatan ham, ulkan va sharafli mehnat samarasi bo'lmish mana shunday marraga erishganingiz bilan o'z kasbining ustasi va fidoyisi bo'lgan siz, azmi qat'iy dehqon va fermerlarimizni, barcha qishloq mehnatkashlarini chin qalbimdan samimiyl muborakbod etaman.

Albatta, bu yilgi mavsumning o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'p gapirish mumkin, lekin men uchta muhim jihatga alohida e'tibor qaratishni o'rini deb bilaman.

Avvalo, qishloq mehnatkashlarining yuksak uyushqoqlik namunasini ko'rsatib, ishni to'g'ri va oqilonqa tashkil etish hisobidan bu yilgi hosilni paxtachilik tariximizda kam uchraydigan g'oyat qisqa

muddatda yig'ib-terib olishga erishganini mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim.

Qo'lga kiritilgan bu yutuqning e'tiborli ikkinchi tomoni shuki, yetishtirilgan paxtaning asosiy qismi yuksak sifat bilan tayyorlandi. Mamlakatimiz bo'yicha birinchi navga topshirilgan paxta xomashyosining ulushi taxminan 90 foizni tashkil etgani ham buning yaqqol tasdig'idir.

Yana bir diqqatga sazovor tomoni — bu yil paxtachilikda hosildorlik darajasi sezilarli ravishda oshgani barchamizni quvontiradi. Joriy yilda mamlakatimiz bo'yicha o'rtacha hosildorlik o'tgan yilga nisbatan 4 foizga oshib, gektaridan 26,3 sentnerni tashkil etgani buning yorqin dalilidir.

Bunday muhim yutuq, avvalambor, barchamizni boqadigan yerimizning unumдорligi, shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligida mehnat samaradorligining tobora ortib borayotganidan darak beradi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bugun mana shunday qutlug' ayyomda mamlakatimizning yuksak xirmoniga munosib hissa qo'shgan viloyatlar, tuman va fermer xo'jaliklarining nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Bu yilgi mavsumda Navoiy viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarining paxtakorlari shartnomaviy majburiyatlarni qisqa muddatlarda

ortig'i bilan ado etgani uchun har qancha tasannolar aysak, arziydi, albatta.

Shu borada Amudaryo, Paxtaobod, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Vobkent, Gurlan tumanlari sentabr oyida, Kegeyli, Oltinko'l, Izboskan, Romitan, Shahrisabz, Muborak, Qiziltepa, Navbahor, Narpay, Denov, Xonqa tumanlari esa oktabr oyining boshida, 20—25 ish kunida birinchilar qatorida rejalarini bajarib, boshqalarga o'rnak bo'ldilar.

Yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishgan Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarida paxtaning 90—94 foizi, Shahrisabz, Koson, Vobkent, Qorovulbozor, Qiziltepa, Amudaryo, Narpay, Qumqo'rg'on, Sariosiyo kabi tumanlarda esa 94—97 foizi birinchi navga topshirilgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Hosildorlik bo'yicha yuksak natijalarni qo'lga kiritgan Qanliko'l tumanidagi «Ganjebek», Bulqboshi tumanidagi «Baraka hosil samarasi», Romitan tumanidagi «To'xtamurod», Kasbi tumanidagi «Kenja bobo Egamberdiyev», Kattaqo'rg'on tumanidagi «Hosil», Denov tumanidagi «Mamatmurod Hotamov», Arnasoy tumanidagi «Sangzor», Navbahor tumanidagi «Muslim Madaminov», Chinoz tumanidagi «Hikmatilla Yo'ldoshev», Oltiariq tumanidagi «Nurobod», Namangan tumanidagi «Navbahor namunasi», Sirdaryo tumanidagi «Tinibek

bobo», Xonqa tumanidagi «Bekajon Sobirova» kabi fermer xo‘jaliklarida — bunday ajoyib yutuqlarga erishgan xo‘jaliklar sonini yana ko‘plab keltirish mumkin — gektaridan 45–50 sentner va undan ham yuqori hosil olinganining o‘zi dehqonchiligimiz tarixiga yangi sahifa bo‘lib kirishi, shubhasiz.

Ko‘pchilikning e’tiborini, hayrat va havasini uyg‘otadigan, joriy yilda erishgan yutuqlarimiz negizida yotgan mezon va omillar haqida alohida gapirishni zarur deb bilaman.

Avvalo, buning zamirida keyingi yillarda g‘o‘za seleksiyasi masalasiga katta e’tibor qaratib, O‘zbekistonning har qaysi hudud va mintaqasiga mos bo‘lgan, kasalliklarga chidamli, ertapishar va serhosil, yuqori daromad beradigan navlarni yaratish va tanlash, ularni rayonlashtirish bo‘yicha olib borayotgan keng ko‘lamli ishlarimiz mujassam ekani barchamizga ayon.

Ayni vaqtida zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilgani, hosilni zararkunandalardan himoya qilishda biologik usullardan keng foydalanilgani, barcha agrotexnik tadbirlar, jumladan, defoliatsiya o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilgani yutuqlarimizda hal qiluvchi omil bo‘lganini ta’kidlash lozim.

Shu borada bundan uch yil oldin qabul qilin-gan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan dasturimizning ahamiyati, mohiyati va

samarasini, o'ylaymanki, baholashning o'zi qiyin. Bu fikrning tasdig'ini quyidagi raqamlar yaqqol ifoda etadi. 2008—2010-yillar davomida mamlakatimiz bo'yicha 37 ming kilometrdan ortiq, shu jumladan, 35 ming kilometrlik tumanlar va xo'jaliklararo kollektor va drenaj tarmoqlarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish hisobidan 740 ming hektar su-g'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi. Buning uchun mamlakatimiz bo'yicha taxminan 300 milliard so'm mablag' yo'naltirilganining o'zi bu masalaga qanday katta e'tibor berayotganimizning isbotidir.

Albatta, qo'lga kiritgan yutuqlarimizning poy-devori bo'lgan, ulkan mablag', kuch va imkoniyatlarni talab qiladigan bunday dastur va tadbirlar haqida gapishimiz tabiiy. Lekin qishloq xo'jaligi sohasini samarali boshqarishni zamonaviy darajaga ko'tarish yo'lida chuqur islohotlarni amalga oshirish, fermerlik harakatiga keng yo'l ochib berish, uni dehqonchilikning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish, shuning hisobidan dalada ishlayotganlarning mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish bu borada eng muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biz bugungi kunda dehqon va fermerlarimizning dunyoqarashi tobora yuksalib, yerga, mehnatga munosabati tubdan o'zgarib, ularda o'z yeriga haqiqiy egalik hissiyotining kuchayib borayotganini qishloq

hayotini obod va farovon etishning, el-yurtimiz qo'lga kiritayotgan barcha marralarning asosiy sharti va garovi deb bilamiz.

Hech kimga sir emas — har qanday yutuqning pirovard natijasi daromad bilan — bu qishloq xo'jalik xodimi yoki oddiy dehqonning daromadi bo'ladimi, tuman yoki viloyat, qolaversa, davlat budgetiga tushadigan mablag' bo'ladimi — hamma qilayotgan ishlarimizning samarasi daromad va yana bir bor daromad bilan o'lchanadi. Shu ma'noda, bu yil paxtachilikdan olinadigan umumiy daromad taxminan 2 trillion so'mdan ziyod bo'lishi va o'tgan yilga nisbatan 35 foizga ko'payishi kutilayotgani barchamizga mammuniyat bag'ishlaydi.

Xalqimizda daromadga yarasha buromad, degan oqilona hikmat bor. Shu nuqtayi nazardan qaragan-da, qo'lga kiritgan daromad hisobidan yangi-yangi maktablar, litsey va kollejlar, shifoxonalar, qishloq vrachlik punktlari, madaniyat va sport maskanlarini qurish, qishloqlarda qulaylik nuqtayi nazaridan shahardagidan aslo kam bo'limgan zamонавиу uyjoylar barpo etish, yo'llarni ta'mirlash, aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirish borasida oldimizda katta imkoniyat va ufqlar paydo bo'lishini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Aziz do'stlarim, birodarlarim!

Mana shu xursandchilik damlarida barchamizni yorug' kunlarga yetkazib, el-yurtimizni o'z panohida asrab, bizdan marhamatini darig' tutmasdan, hamisha yo'limizni ochib berayotgani uchun Yaratganimizga shukronalar aytishimiz ham qarz, ham farz deb bilaman.

Sizlarni, butun xalqimizni bugungi katta g'alaba bilan yana bir bor tabriklar ekanman, hammangizga chin qalbimdan minnatdorlik bildirib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga tinchlik-osoyishtalik va qut-baraka tilayman.

Mehnatingizning rohatini ko'ring, hech qachon kam bo'l mang, qadrdonlarim!

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MAMLAKATIMIZDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Hurmatli deputatlar!

Aziz do'stlar!

Shu kunlarda barchamiz nihoyasiga yetib bora-yotgan 2010 yilni yakunlab, Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011-yil ostonasida turibmiz.

Tariximizga kirib kelayotgan bu buyuk marra munosabati bilan o'tgan davr mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday sur'atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilmoqda.

Qisqacha aytganda, biz o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamona-viy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash,

hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash borasidagi sa’y-harakatlаримизга bugungi kun nuqtayi nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir.

Ma’lumki, O‘zbekiston 1991-yili o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng umrini o‘tab bo‘lgan mustabid, ma’muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, «o‘zbek modeli» deb nom olgan o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi.

Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga ttabiq etayotgan ushbu modelning ma’no-mazmuni — davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o‘zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta’minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya’ni islohotlar tashabbuskori bo‘lishi va ularni muvo-fiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta’minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bos-qichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya’ni «shoterapiyasi» yo‘li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo‘lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy to‘fonlardan asrab qolishga muvaffaq

bo‘lganimizni bugun hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda.

Izchil yuqori o‘sish sur’atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e’tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e’tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar — aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko‘paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o‘limi 2 barobardan ko‘proq, bolalar o‘limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta’kidlasak arziydi, deb o‘ylayman.

2008—2010-yillarda, ya’ni dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o’sish sur’atlari sezilarli ravishda tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O’zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o’sish sur’atlari 2008-yilda 9 foizni, 2009-yilda 8,1 foizni tashkil etgani, 2010-yilda bu ko’rsatkich 8,5 foizga yetishi kutilayotgani, kelgusi 2011-yilda esa 8,3 foiz darajasida bo’lishi belgilab berilayotgani ko‘pgina xalqaro tuzilmalar, ekspert va mutaxassislarda katta qiziqish uyg’otmoqda.

Dunyoda, ayniqlsa, rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarzlari ko’payib borayotgani jiddiy xavotir tug’dirayotgan bir paytda O’zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmaydi, davlat budgeti esa so’nggi besh yilda profitsit bilan bajarilmoqda.

Albatta, mamlakatimiz qo’lga kiritayotgan bunday ulkan yutuqlar ro’yxatini yana davom ettirish mumkin.

Ma’lumki, sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan, faqat xomashyo yetishtirishga yo’naltirilgan bo‘lib, mash’um salbiy oqibatlarga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan edi. O’zbekiston o’zining qoloq ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi bilan sobiq Ittifoqda jon boshiga iste’mol darjasasi bo'yicha eng past o'rinda turardi.

Mustaqil rivojlanish yillarida — tarixan qisqa bir davrda yurtimiz yangi va ulkan marralarni qo'liga kiritdi, buning natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda.

Ayni paytda barchamiz bir haqiqatni o'zimizga aniq tasavvur etishimizni istardim. Ya'ni, erishilgan bunday marralar — barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliv qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismi, xolos.

Bu yo'lida biz duch kelishimiz mumkin bo'lgan shunday bir xavf borki, u ham bo'lsa, avvalam-bor, erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotir-jamlik kayfiyatiga berilish, real voqelikdan uzilib qolish xavfidir. Bu esa mamlakatimiz taraqqiyotining samaradorligi va istiqboliga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'mimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob

berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.

Ma'lumki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Shu bois avvalambor ro'y berishi mumkin bo'lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko'rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiya-siga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi.

Shu munosabat bilan alohida ta'kidlab aytmoq-chimanki, mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, bиринчи navbatda, ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor.

Shu ma'noda, 1992-yil dekabr oyida qabul qilin-gan, mamlakatimizning demokratik taraqqiyotini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy prinsiplarini belgilab bergan Konstitutsiya-mizning qoida va normalariga tayanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlarimiz 2001-yildan

2010-yilgacha bo‘lgan keyingi 10 yil davomida yanada faollashib, ko‘lami va miqyosi tobora kengayib bormoqda.

Natijada bugungi kunga kelib biz o‘z oldimizga qo‘ygan asosiy maqsadimizga erishdik, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

Buning tasdig‘ini mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat’iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o‘zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faoliigi oshayotgani, ong-u tafakkuri yuksalib, yon-atrofda bo‘layotgan barcha voqeа-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko‘rish, anglash qiyin emas.

Yurtdoshlarimizning, butun jamiyatimizning hayotidagi ana shunday o‘zgarish va yangilanishlar, o‘z mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo‘lidan dadil rivojlanib borishini ta’minlayotgan hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Mustaqillik yillarida bosib o‘tgan yo‘limiz va to‘plagan tajribamizni xolisona baholash, qo‘lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha biz tanlagan modelning naqadar to‘g‘ri ekanini va shu yo‘ldan bundan buyon ham og‘ishmay qat’iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, quyidagi yo‘nalishlarni demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilash zarur, deb o‘layman.

I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish

Ma’lumki, o‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘ta muhim bir maqsadga, ya’ni hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotgaizchil tatbiq etish, hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha g‘oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko‘rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlarining vazifalarini o‘zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo‘jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e’tibor berildi. Boshqacha

aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko‘zda tutilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika derajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazish, O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo‘yicha 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiysi tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o‘z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umum davlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata — Senatning hududlar manfaatlarini

ifoda etishi, quyi — Qonunchilik palatasi esa o‘z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olinganini aytib o‘tish lozim.

Ta’kidlash kerakki, milliy parlamentimizning rivojlanishida yangi parlament va uning har bir palatasining maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari aniq belgilab berilgan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning 2003-yilda qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi.

2007-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o‘zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo‘ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida «O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta-minlaydi» degan qoida belgilab qo‘yilgan.

Ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti egal-lab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir

nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko‘ppartiyaviylik tizimining tobora mustah-kamlanishi davlat hokimiyatining uchta subyekti, ya’ni davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’-minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Va-

zirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlari-ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Vazirlar Mahkamasi ning majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga binoan xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rinalarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiylar tomonidan taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlichcha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiyligi sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergen taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo‘yicha qaror qabul qildi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko‘rib

chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi».

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilayotgan ushbu o‘zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ularga ko‘ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod ko‘rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik prinsiplarini ifodalaydigan yangi tartibi o‘rnatalmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu o‘zgartishlarga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berilmoqda. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarilmoqda.

Taklif etilayotgan yana bir muhim o‘zgartish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasiga taalluqlidir.

Mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko‘ra o‘z vazifasini bajara olmaydigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlikka, ushbu moddani turlicha talqin

etishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning yangi tahririni quyidagi mazmunda bayon etish taklif qilinadi:

«Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga zikr etilgan tuzatishlarni kiritish taklif etilayotgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78- va 93-moddalariga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zarurati tug'iladi.

Jumladan, Konstitutsiyaning 78-moddasi 15-bandini «...shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish» degan so'zlar bilan to'ldirish kerak.

93-moddaning 15-bandiga «viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi» degan so'zlardan oldin «O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan...» degan so'zlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

93-moddaning 8-bandidan «ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi» degan so‘zlarni chiqarish tavsiya etiladi.

93-moddaning 16-bandini «...O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli» degan so‘zlar bilan to‘ldirish lozim.

Shuningdek, 93-moddaning 12-bandidan «O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori» degan so‘zlardan keyin «uning o‘rinbosarlari» degan so‘zlarni chiqarish va ularning o‘rniga «Hisob palatasi raisini» degan so‘zlarni kiritish va undan so‘ng matn bo‘yicha «tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi» degan tarzda bayon etish kerak.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Biz hammamiz shuni aniq anglab olishimiz zarurki, saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o‘z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

Ayni vaqtida shuni unutmasligimiz kerakki, mazkur islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz sur’atiga, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga va o‘z-o‘zidan ayonki, birinchi navbatda siyosiy partiyalarning yetuklik darajasiga, ularning O‘zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas’uliyatli vakolatlarni o‘z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog‘liqdir.

II. Sud-huquq tizimini isloh etish

Qadrli do’stlar!

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri, bu —qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda.

Aynan shuning uchun ham biz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur

yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratganimiz bejiz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning ko‘lami, miqyosi va samaradorligi keyingi o‘n yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘p-ko‘p misollarda ko‘rish mumkin.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta’minalash, uni sobiq tuzumda bo‘lgani kabi qatag‘on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma’nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy principni izchil amalga oshirish maqsadida «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. **Bu esa, o‘z navbatida, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta’siridan chiqarish imkonini bergenini alohida ta’kidlash lozim.**

Ayni paytda sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to‘xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo‘zg‘atish vazifalari Adliya vazirligi vako-

latidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo‘ldi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug‘ullanish vazifasi maxsus organ — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilgанини qayd etish lozim.

Shular qatorida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma — Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash departamenti tashkil etildi. Bu esa sudlarning ularga xos bo‘lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo‘lishi va butun diqqat-e’tiborini o‘zlarining asosiy burchi bo‘lmish odil sud-lovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi.

Umumiyligida yurisdiksiya sndlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tashkil etildi. Bu, o‘z navbatida, ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko‘rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to‘la va har tomonlama himoya qilish bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlarini jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foy-

dalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta'-minlash bo'yicha katta ko'lamdag'i chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Aynan ushbu davrda cassatsiya instansiysi isloq qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning appellatsiya tartibi joriy etilgani ham muhim yangilik bo'ldi. Mazkur o'zgarishlarga muvofiq **endilikda appellatsiya instansiysi ishni yangitdan ko'rib chiqishga yubormasdan, uni o'zi to'la hajmda ko'rib chiqishi mumkin.**

Bugungi kunda fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini cassatsiya instansiyasida, o'z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo'lishdi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko'rib chiqish tartibi batamom tugatilganini ta'kidlash lozim. Amalga oshirilgan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida san-salorlikka yo'l qo'ymaslikning muhim kafolatiga aylandi.

Shu borada quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo'lsa,

2009-yil yakunlariga ko‘ra bunday holatlarning 85 foizdan ortig‘i appellatsiya va cassatsiya tartibida bartaraf etilgan.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda prokuror va avokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zaro tortishuv bo‘lishini ta’minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2008-yilda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi bu borada g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda amaldagi qonunchiligidimizga sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta’minlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan advokatura mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.

Ushbu Qonunga muvofiq, himoyachiga jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslardan mutlaqo mustaqil ravishda jinoyat ishi protsessining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam ko‘rsatish huquqi berilgani e’tiborga sazovordir.

Shu bilan birga, himoyachining ko‘rilayotgan ishda ishtirok etish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o‘ziga ijozat berilgani to‘g‘risida yozma ravishdagi tasdiqllovchi hujjat va shuningdek, o‘z himoyasidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsat olish majburiyatini belgilaydigan normalar jinoyat-protsessual qonunchiligidan chiqarildi. Endilikda bularning barchasi uchun — shunga e’tibor beringlar — advokatlik guvohnomasi va advokatlik muassasasi tomonidan beriladigan orderning o‘zi kifoyadir.

Qonunda advokatning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilish, uning o‘z himoyasi ostidagi shaxsga nisbatan pozitsiyasini o‘zgartirish maqsadida har qanday shaklda ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilanganini e’tirof etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallah-tirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlash-tirish eng muhim yo‘nalishga aylandi.

Ushbu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, xususan, 2001-yilda «Jinoiy jazolarning liberallah-tirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi Qo-

nunning qabul qilinishi ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini ishonch bilan ta'kidlash lozim.

Mazkur Qonunga ko'ra, jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'limgan va uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'miga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. Jinoiy jazo tizimidan insonparvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi.

Aytish kerakki, jazo tizimini liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan bunday chora-tadbirlarning naqadar to'g'ri bo'lganini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Ishonchim komil, xo'jalik ishlari bilan bog'liq jinoiy ishlar bo'yicha odamlarni qamash shart emas — bu davlatga juda qimmatga tushadi, qolaversa, bunday jazo turi mahkumlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash vazifasini hal qilmaydi.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. **Mamlakatimizda so'nggi o'n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar** soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir.

Ma'lumki, O'zbekistonda 2008-yilning yanvardan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniغا umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.

Mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiatning katta e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgani, albatta, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o'ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiya-

da 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, faqat ikki turdag'i jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Aytinglar, aziz do'stlar, mana shu olib kelingan dalillar O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin biz qo'lga kiritgan eng katta, eng muhim yutuqlarimiz emasmi? Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yurtimizda haqiqatan ham adolat o'rnatishda jinoyat yo'liga kirganlarga eng odil hukm chiqarishda bu misollar yaqqol dalil emasmi? Bu masala bo'yicha o'zgalar, bizga aql o'rgatadiganlar, balki bizdan o'mak oladigan vaqt kelmadimi?

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilganini ta'kidlash lozim.

Bu borada «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyyot chorasi sifatida

qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi. Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 marta dan ortiq holatda mazkur ehtiyyot chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda jinoiy-huquqiy sohani liberal-lashtirish borasidagi islohotlar haqida gapirganda, jinoyat-protsessual qonunchiligidan kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq tergov va shaxsni qamoqda saqlash muddatlari qisqartirilganini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001-yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Yarashuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplab bergen taqdirda, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan ken-

gayib borishiga asos bo'ldi. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan.

Shu borada yana bir misolga e'tibor beraylik. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o'tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

So'nggi yillarda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, prokuratura faoliyatini isloh qilish, uni sobiq tuzum davrida bo'lganidek partiyaviy elita qo'lidagi jazolash quroli emas, balki qonunlarning qat'iy ijro etilishini, mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan organga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Masalan, 2001-yilda yangi tahrirda qabul qilin-gan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarildi. Ayni paytda prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga riosa etilishini ta'minlash uchun mas'uliyati oshirildi.

Shuningdek, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa

tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi.

Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo'yicha oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo'yayotganini biz o'zimizga albatta yaxshi tasavvur etamiz.

Bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy choralarни amalga oshirish taklif etiladi.

Birinchi. Bundan o'n yil oldin qabul qilingan amaldagi «**Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning** yangi tahririni qabul qilishni bugun hayotning o'zi talab qilmoqda. Ya'ni, o'tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylikni ta'minlashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariiga mos bo'lishini taqozo etmoqda.

Ikkinci. O'zbekiston Respublikasi Jinoyatprotsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgar-

tish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi. Bu o'rinda sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini **faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi nazarda tutilmoxda.**

Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Uchinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan norma o'rnatish taklif etiladi. Chunki amaldagi qonunchilikda davlat ayblovchisi, ya'ni prokuorning sud majlisida ayblov xulosasini o'qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmagan. Shuning uchun ayblov xulosasi ko'pincha sudyalar tomonidan o'qib eshittiriladi. Bu esa sudning vazifa va maqsadlariga mos kelmaydi. Jinoyat-protsessual

qonunchiligiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan normaning kiritilishi sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashga, jinoyat protsessida tortishuv prinsi pini kuchaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ma'lumki, jinoyat ishini qo'zg'atish, avvalo, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, jinoiy ta'qibni amalga oshiradigan boshqa huquq-tartibot organlarining vazifasi hisoblanadi. Suddan esa shaxsga qo'yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholash talab etiladi.

Vaholanki, hozirgi paytda sud tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish tarzidagi protsessual harakatning amalga oshirilishi mohiyatan jinoiy ta'qibning va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarning boshlanishi hisoblanadi. Bu esa sudni jinoiy ta'qib ishtiroychilar toifasiga kiritib qo'yadi. Aytish kerakki, bunday amaliyot sudning oliy maqsadi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydi.

Beshinchi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi. Ushbu qonunning maqsadi

tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o'tkazish-da fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniylikka rioya qilishning real huquqiy kafolatlarini yaratishga yo'naltirilgan. Bu qonunning qabul qilinishi demokratik davlatlarning umume'tirof etilgan amaliyotiga mos keladi. Ta'kidlash kerakki, bu qonun jinoyatlar sodir etilishining dastlabki bosqichlaridayoq ularning oldini olish va o'z vaqtida to'xtatish bo'yicha choralarning samaradorligini, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, avvalambor, ichki ishlar idoralarining bu sohadagi faoliyatining yanada liberallahuvini ta'minlashga olib keladi.

Oltinchi. Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini** har tomonlama qayta ishslash va yangi tahrirda qabul qilish zarur.

1994-yilda qabul qilingan amaldagi mazkur kodeksga o'tgan davr mobaynida 60 martadan ko'proq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Uning yangi tahriri sud-huquq tizimini liberallasshtirish munosabati bilan ma'muriy qonunchilik va jinoiy-huquqiy siyosatda yuz bergen katta miqyosdagi prinsipial o'zgarishlarni o'zida tizimli va keng ko'lamli tarzda aks ettirishi lozim.

Bunda, avvalambor, jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya’ni ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma’muriy yurisdiksiyaga o’tkazishni ko’zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o’nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o’z aksini topgan ma’muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya’ni birxillashuvini ta’minlaydi.

Shuningdek, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo‘yicha choralarни ham mazkur kodeksda ko’zda tutish lozim.

Yettinchi. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyyati idoralarli, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o‘matadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etilmoqda.

Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo’llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o’tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga

zarur bo‘lgan tegishli vakolatlarning berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sakkizinchi. Jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir.

Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli, keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini ta’minlaydi, deb o‘ylayman.

III. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlash-tirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so‘z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo‘lmasligini o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Ma’lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo‘lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida, ayniqsa, oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so‘z erkinligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda, avvalo, ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlarini to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda yangi tahrirdagi **«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunga**, shuningdek, **«Telekommunikatsiyalar to'g'risida»**, **«Reklama to'g'risida»**, **«Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi** va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shinchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta'minladi. Shu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O'z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo'llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergen yangi tahrirdagi «**Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunning** qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda keyingi yillarda sun'iy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekomunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagи teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoque da.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyor-

lash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mayjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko‘rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo‘lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minalash borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e’tibor qara-

tishimiz zarur, deb o‘ylayman. Ya’ni, bu o‘rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to‘g‘ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek, tahririylatlarga hokimiyat organlari va ma’muriy tuzilmalar tomonidan bo‘layotgan ma’lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog‘liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.

Shu boisdan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

Birinchi. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida» Qonun qabul qilish zarur. Bu, o‘z navbatida, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish bora-sidagi mas’uliyatini ham ko‘p jihatdan kuchaytirgan bo‘lur edi.

Ushbu qonun davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berishi, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy man-

faatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini ta'minlashi lozim.

Mazkur qonunning joriy etilishi ijro hokimiyyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqeа-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda ta'minlashi zarur.

Ikkinchи. Demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan «**Teleradioeshittirishlar to'g'risida**» **Qonun** qabul qilish haqida taklif kiritilmoqda.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikatsiyalar, axborotlashtirish to'g'risidagi qonunlarning muayyan moddalari bilan tartibga solib kelinmoqda.

Shu bilan birga, teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turлarining paydo bo'lishi teleradiodasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko'lamli ravishda tartibga

soladigan yaxlit qonunni kuchga kiritish zaruratini tug‘dirmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televide niye kabi ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, teleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bu qonun milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining erkinligi va mustaqilligi kabi prinsiplarini belgilab berishga, radiochastotalarni olish uchun o‘tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta’minlash, teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining monopollashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator muammolarni yechishni nazarda tutadi.

Uchinchi. Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun «**Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari**

to‘g‘risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlarni qabul qilish taklif etiladi. Bu qonunlar axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, qo‘srimcha iqtisodiy preferensiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

To‘rtinchি. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruв organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta’minlash, hokimiyat va jamoatchilik o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida **«Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»**, **«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»**gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish taklif etiladi.

Bunda, xususan, davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarni ko‘zda tutish lozim. Ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va

mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligini ku-chaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ustida ish olib borish zarur.

Shu bilan birga, siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozim.

«Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o‘tish bo‘yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilishi ham ushbu vazifani hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish, bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratishga qaratilishi darkor.

Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o‘rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so‘z erkinligi va tanlash erkinligini ta’minalashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

IV. O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish

Erkin saylov va o‘z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligidan modelining asosini tashkil etadi. **Saylovlar** — bu mamlakatimizda amalda bo‘lgan huquqiy normalarning nechog‘liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uziyi belgisi, xalqning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo‘lib, o‘ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

Shu munosabat bilan o‘tgan davr mobaynida yurtimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g‘oyat chuqur o‘zgarishlar amalga oshirilganini ta’kidlash o‘rinlidir.

Ma’lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi hamda yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

saylovi to‘g‘risida»gi qonunlarga 2003- va 2008-yillarda tegishli o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.

Shu bilan birga, ushbu davrda mazkur sohaga oid ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqich-ma-bosqich liberallashuvini, ikki palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umume’tirof etilgan xalqaro prinsip va normalarga to‘la mos holda o‘tkazilishini ta’minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarining **faqat ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilishi qat’iy belgilab qo‘yildi**. Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar tomonidan, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa — siyosiy partiyalarining joylardagi tegishli organlari tomonidan ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi prinsipial qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko‘rsatilish amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarni chuqurlash-tirish yo‘lidagi prinsipial qadam bo‘ldi.

Shu borada saylov qonunchiligidan saylovga tay-yorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan, eng rivojlangan demokratik davlatlar tajribasida ham kamdan kam uchraydigan mutlaq vakolatlarning

Markaziy saylov komissiyasiga berilishini ko‘zda tutadigan o‘zgartishlarning kiritilishi o‘ta muhim ahamiyatga molik ulkan voqeа bo‘ldi. Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, saylov kampaniyasi jarayoniga davlat va hokimiyat tuzilmalari, jamoat birlashmalari tomonidan aralashishga qaratilgan har qanday urinish qonun bilan taqiqlanishi ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

2009-yilgi saylov arafasida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha Konsepsiya ishlab chiqildi. Mazkur Konsepsiya xorijiy ekspertlar tomonidan fuqarolarning saylov va o‘z xohish-irodasini erkin bildirish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlariga riosa etilishi bo‘yicha noyob hujjat sifatida baholangan edi. Haqiqatan ham, ushbu Konsepsiyaning amalga oshirilishi saylovning qonun talablariga to‘la muvofiq holda, siyosiy partiyalarning o‘ta faol ishtirokida, saylov jarayoniga markaziy va mahalliy davlat hokimiyyati organlarining aralashuviga yo‘l qo‘ymasdan o‘tkazilishini ta’minlashda g‘oyat muhim rol o‘ynadi.

Bizning qonunchiligidan saylov kampaniyasining biron-bir ishtirokchisi uchun qandaydir alohida imtiyoz va preferensiyalar berilmasligi belgilab qo‘ylgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoida-

lariga muvofiq, Prezident saylovi, parlament va davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov hozirgi vaqtida qonun bilan belgilangan yagona kunda — ularning konstitutsiyaviy vakolatlari muddati tugaydigan yilning dekabr oyi uchinchi o'n kunligidagi birinchi yakshanba kuni o'tkaziladi.

Aytish kerakki, bizning saylov tizimimiz rivojida 2008-yili saylov qonunchiligidimizga kiritilgan o'zgartishlar muhim bosqich bo'ldi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinalarining soni 120 tadan 150 taga ko'paytirildi, shundan 135 nafar deputat siyosiy partiyalardan sayylanadi. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan kelib chiqqan holda, quyi palatamizdagi 15 ta deputatlik o'rni O'zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlarga berildi.

Bundan tashqari, qonun hujjatlariga saylov jarayonining yanada liberallahuvini ta'minlaydigan bir qator normalar kiritildi. Jumladan, saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro'yxatdan o'tishi uchun o'matilgan muddat 6 oydan 4 oyga tushirildi.

Ayni vaqtida siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish masalasini hal etish borasida zarur bo'ladigan saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o'rniga 40 ming qilib belgilandi.

Shuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 nafardan 10 nafargacha ko‘paytirildi. Shular qatorida saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partianing «vakolatli vakili» degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarining to‘g‘ri to‘ldi-rilishini tekshirishda, saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi.

Yana bir muhim yangilik qonun hujjatlariga saylov komissiyalarining saylovga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq faoliyatida oshkorali kni ko‘proq ta‘minlashga qaratilgan normalarning kiritilishida o‘z aksini topdi.

Shu asosda saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishning barcha bosqichlarida, shuningdek, saylov kunida ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalari vakillari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan ham kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega bo‘ldi.

Shunisi e’tiborga sazovorki, bizning saylov tizi-mimiz xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ularning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi mav-qeyini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyalardan ko‘rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi shart ekani to‘g‘ri-

sidagi normanining kiritilgani buning yaqqol tasdig‘i-dir.

2009-yilgi saylovlar jarayonida ayni ana shu normanining tatbiq etilishi parlamentning quyi palatasiga umumiy deputatlar sonining 22 foizini tashkil etadigan 33 nafar xotin-qiz deputatni saylash imkonini berdi.

Senat a’zolari etib saylanganlarning 15 foizi ayollardir, mahalliy vakillik organlarida faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar esa bugungi kunda jami deputatlar sonining 20 foizidan ortig‘ini tashkil etadi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik o‘zgarishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan saylov tizimimiz mun-tazam takomillashib bormoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda hayotning o‘zi, ayniqsa, oxirgi saylovdan biz to‘plagan tajriba yurtimizda saylov jarayonlarini yanada demokratlashtirish masalalarini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi qonunchilik ta-shabbuslarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Birinchi. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 27-moddasi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 25-

moddasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish taklif etiladi.

Bu, avvalambor partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo‘lib borayotgani bilan izohlanadi. Shuning uchun **saylov qonunchiligidagi saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutish lozim.**

Bundan tashqari, «Saylovoldi tashviqoti» tushunchasining o‘ziga aniq ta’rif berish, bunday tashviqotni olib borish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullarini qonunchilik yo‘li bilan belgilab qo‘yish zarur.

Yaxshi bilamizki, bunday tajriba turli demokratik mamlakatlarning saylov qonunchiligidagi keng qo‘llanib kelmoqda.

Ikkinci. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 27-moddasiga saylovoldi tashviqotini nafaqat saylov kuni, balki ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emasligi to‘g‘risidagi normani kiritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur norma bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligidagi keng qo‘llanadi. Uning qonunchiligimizga kiritilishi

saylovchilarga o‘z qarashlarini, siyosiy xayrixohligini aniqlab olish, boshqacha aytganda, ularning kim uchun va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida ongli ravishda aniq bir qarorga kelishi uchun qo‘srimcha vaqt berilishiga imkon yaratgan bo‘lur edi. Qonunchilikning ushbu qismini takomillashtirish ovoz berish arafasida turli suiiste’mollik holatlari va qonun buzilishlarining oldini olish imkonini ham beradi, albatta.

Uchinchi. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 41-moddasiga hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 38-moddasiga qo‘srimchalar kiritish taklif etiladi. Ma’lumki, joylardagi uchastka komissiyalari aksariyat hollarda qonunchilikda yanada aniq belgilab qo‘yishni talab etadigan turli vaziyat va muammoli holatlarga duch keladi. Ulardan biri **muddatidan oldin ovoz berish tartib-qoidasi bilan bog‘liq muammodir**. Shuning uchun ham zikr etilgan qo‘srimchalarning kiritilishi fuqarolarning saylov huquqlari amalga oshirilishini, ularning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishini, uchastka komissiyalari faoliyati oshkorligini ta’minlash va saylov qonunchiligi buzilishi mumkin bo‘lgan holatlarga yo‘l qo‘ymaslik borasida navbatdagi qadam bo‘lur edi.

To‘rtinchi. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunlarga «ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e’lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekomunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog‘iga) joylashtirish taqiqlanadi» degan normani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu normaning yuqorida ko‘rsatilgan qonunlarga kiritilishi saylovchilar huquqlarining yanada ta’sirchan himoya qilinishi, muayyan nomzodga g‘arazli munosabatda bo‘lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishining oldini olish imkonini beradi.

Beshinchi. O‘zbekiston Ekologik harakatidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqligi va oshkorligini ta’minalash maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasiga O‘zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo‘yicha konferensiyalarda kuzatuvchilarning ishtirot etish huquqini belgilab beradigan qo‘srimcha kiritish maqsadga muvofiq, deb o‘layman.

Yuqorida bayon etilgan qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish mamlakatimizda saylov erkinligi huquqi prinsipining to‘liq joriy etilishi va saylov tizimining yanada demokratlashuviga xizmat qilishi muqarrar.

V. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish

Aziz do‘stlar!

O‘zbekistonimiz bosib o‘tgan keyingi o‘n yillik davr aholimizning keng qatlamlari qo‘llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo‘ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo‘yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko‘rsatkich 2000-yilga qaraganda 2,5 barobar ko‘pdir. Fuqarolar yig‘inlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari — mahallalar soni 10 mingdan ortiqni

tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg'armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlар muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustah-kamlanib borgani sari fuqarolik jamiyatni institutlarning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik

markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi.

Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan **«Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda **«Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Homiylik to'g'risida»gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori** va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati

institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Ken-gashlarining «**Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'z navbatida, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy tuzilmalarning mas'ul xodimlari kirgan Parlament komissiyasining tashkil qilinishi ham e'tiborga sazovordir.**

Mazkur komissiyaning faoliyati «uchinchchi sektor» deb nom olgan fuqarolik jamiyatni institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat budgetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik jamiyatni institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyiha-

larni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi.

Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo‘yicha o‘z oldimizga qo‘yan maqsadimizni ro‘yobga chiqarishda hech bir mubolag‘asiz hal qiluvchi omil ekanini, o‘ylaymanki, kimgadir uqtirib o‘tirishga zarurat bo‘lmasa kerak.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlari-mizning ochiq-oshkoraliqi va samaradorligini ta’minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «**Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida**»gi **Qonunning** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilishi darkor.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruв organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifani hal qilishda «**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruв organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.**

Shu bilan birga, «**Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadi-gan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish taklif qilinadi.**

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «**O'zbekiston Respublikasida ja-moatchilik nazorati to'g'risida**»gi Qonunni qabul qilish fursati yetdi. Qonunda jamoatchilik nazorating turlari, shakllari va subyektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga** jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashki-

lotlari huquqlarini belgilab bergen qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdar shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim.

Shular qatorida sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o'rmini belgilashga qaratilgan «**Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonun** loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati yetdi, deb o'ylayman.

VI. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberalallashtirishni yanada chuqurlashtirish

Muhtaram yurtdoshlar!

Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya'ni 1991-

yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tiborimiz markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

Shu borada qabul qilingan o'ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafoflatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxona to'g'risida», «Valutani tartibga solish to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'-risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha **umumiylisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi**. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, **davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir**. Shuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan «**Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.**

Shuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish

maqsadida «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to‘g‘risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qat’iy cheklangan ro‘yxati va turlarini aniq belgilab qo‘yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnomalar va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur.

O‘ylaymanki, bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun **biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo‘yish vaqtি keldi**. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an‘analarimizga, xo‘jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to‘la mos keladi. Ishonchim komilki, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o‘rinlarining ochilishiga sharoit tug‘iladi.

Sizlarga yaxshi ma’lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o‘zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. Shu bilan birga, bu tizimning yanada mustahkamlanishi **xususiy banklar va xususiy mulkka asos-**

langan lizing, sug‘urta kompaniyalari, kredit uyush-malari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan ham bog‘liq. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Yurtimizda o‘tgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi o‘zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar hech kimga sir emas, albatta. Bularning barchasini e’tirof etgan holda, mavjud qonunlarmizning ko‘pchiliginи ularni qo’llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko‘rib chiqish zarur.

Misol uchun, mamlakatimizdagi deyarli barcha ishlab chiqarish obyektlari aksiyadorlik kompaniyalari prinsipi bo‘yicha tashkil etilgan, ammo ular o‘z maqomiga qay darajada mos holda faoliyat yuritmoqda va o‘z huquqlaridan qanday foydalanmoqda, degan savolni o‘zimizga berib ko‘raylik. Aksiyadorlik kompaniyalari o‘zlarining bozor munosabatlariga mos

maqomiga muvofiq faoliyat yuritishi uchun yana qanday mexanizmlarni harakatga keltirish zarur?

Shu munosabat bilan «**Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida**»gi Qonunni tanqidiy qayta ko‘rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozim. Ushbu qonundagi aksiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuvchilar kengashlari, umumiy yig‘ilishlari, taf-tish komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish, minoritar, ya’ni qo‘lida aksiyasi kam bo‘lgan aksiyadorlarning kafolatlarini ko‘proq ta’minalash, barcha aksiyadorlarni va bo‘lajak investorlarning aksiyadorlik kompaniyalari faoliyati to‘g‘risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni ko‘zda tutish ayni muddao bo‘lur edi.

Hozirgi vaqtida yana bir muhim masala — **mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta’minalay oladigan qonunlarni qabul qilish** masalasi biz uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonning bu yilgi yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoatda yetakchi o‘rinni egallay

olmayapti. Ushbu vazifani hal etish uchun «**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunning** yangi tahririni tayyorlash zarur. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish yo‘llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko‘proq erkinliklar berishni ko‘zda tutish lozim. Ushbu sektorni kreditlash, resurslardan foydalanish, **davlat buyurtmalarini olish**, tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish, xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o‘tish, moliya va statistika hisobtlari tizimini yanada soddalashtirish, jumladan, bunday hisobtlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklda taqdim etish kabi mexanizmlar hisobidan qo‘llab-quvvatlash masalalari ham qonunda o‘z aksini topishi darkor.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, bozor munosabatlarining asosi bo‘lgan raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o‘ynaydi. Ammo amaldagi «**Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi** Qonun bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni e’tiborga olgan holda, «**Raqobat to‘g‘risida»gi** yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishi-

miz zarur. Ushbu qonunda monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlari-da ham tartibga solishni nazarda tutish lozim. Shuningdek, birja savdolarida ham monopoliyaga qarshi mexanizmlarni, aksiyalarni sotib olish, qo'shish va birlashtirish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo'yicha normalarni ushbu qonunga kiritish maqsadga mu-voifiqdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mah-sulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektor ta'-minlamoqda. Tan olishimiz kerakki, 1991-yilda qabul qilingan «**Davlat tasarrufidan chiqarish va xusu-siylashtirish to'g'risida»gi Qonun, o'tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyg'unlashtirilganiga qaramasdan, **bugun qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etmoqda.****

Mamlakatimizning strategik muhim tarmoqlari va korxonalarida aksiyalarning nazorat paketi, ta'bir joiz bo'lsa, «oltin» aksiyalarni davlat ixtiyorida saqlab qol-gan holda, iqtisodiyotning eng muhim yetakchi tar-moqlariga xususiy investorlarni jalb qilish va ularda nodavlat sektor ulushini yanada kengaytirish zarur. Bunda bo'lajak investorlarning barcha toifalariga xusu-siylashtirish jarayonlarida teng sharoit yaratishni ta'minlash, ularda xususiy sektor ishtirokini ken-

gaytirish, xususiy lashtirish bitimlarining ochiqligi va oshkoraligini ko'zda tutish lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan g'oyat muhim ahamiyatga molik qonunlarni takomillashtirish bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiq-qan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reyestri to'g'risida», «Riyeltorlik faoliyati to'g'risida», «Innovatsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi va boshqa yangi qonunlar shular jumlasidandir.

Yana bir muhim masala.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olar ekanmiz, biz ichki ehtiyojning o'sishiga alohida e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturida ana shunday yondashuv asosida ish tutganimiz o'tgan yillarda o'zini to'la oqladi. Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Osiyodagi ko'plab mamlakatlar aynan shunday pozitsiyaga amal qilib kelmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish — **iste'mol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.**

Muhtaram majlis qatnashchilar!

Hurmatli deputatlar!

So'zimni yakunlar ekanman, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning taklif etilgan Konsepsiysi O'zbekistonni isloh etish va modernizatsiya qilish borasida biz qariyb 20 yil oldin boshlagan jarayonni davom ettirish bo'yicha Oliy Majlis tomonidan uzoq muddatli aniq harakat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'ladi, deb ishonaman.

Mening sizlarga murojaatim, da'vatim shuki, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar jarayoni butun jamiyatimiz, saxovatli zaminizda yashayotgan har qaysi insonni amaliy ishlarga safarbar etadigan umumiy maqsadga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solaylik, el-yurtimiz manfaati, ona Vatanimizning ravnaqi va

kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilaylik.

Ish Shu yo'lda barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, g'ayrat-shijoat tilayman.

O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va

Senating qo'shma majlisidagi ma'ruba,

2010-yil 12-noyabr

g'aniyotga qarab qo'shma majlisidagi ma'ruba

shaxsiy qo'shma majlisidagi ma'ruba

«O'RTA OSIYONING TRANSCHEGARAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI: ULARNI HAL ETISHDA XALQARO HUQUQ MEXANIZMLARINI QO'LLASH» MAVZUYIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Muhtaram konferensiya qatnashchilari!

Siz, hurmatli mehmonlarimizni — xalqaro ekologiya tashkilotlarining obro'li vakillarini, olimlar, tahlilchilar va ekspertlarni samimiyl qutlashga va «O'rtta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash» mavzuyidagi xalqaro konferensiyada ishtirokingiz uchun chin dildan minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Dunyo yangi ming yillik bo'sag'asida Yer yuzining turli hududlarida inson hayoti va faoliyatiga, hayvonot va nabotot olamiga xavf solayotgan favqulodda tabiiy o'zgarishlar bilan bog'liq misli ko'rilmagan muammo hamda tahdidlarga duch keldi.

Afsuski, bunday tahdidlar O'rtta Osiyoda ham keskin tus olmoqda. Bu yerda o'tgan asrning ikkinchi yarmida yirik transchegaraviy daryolardan oqibatini o'ylamay foydalanish, ekologik jihatdan zararli sanoat obyektlarini qurish ishlari mintaqamizni ekologik falokat yoqasiga olib keldi.

Qurib borayotgan Orol dengizi fojiasi buning yaqqol dalili bo'la oladi. Bir paytlar noyob va go'zal dengizlardan biri bo'lgan Orol bir avlod ko'z o'ngida qurib borayotgan suv havzasiga aylandi. Uning sahroga aylangan tubi aholi salomatligi va genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda, qishloq xo'jalik yerlari, o'simlik va hayvonot olamining tanazzuliga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda barchamizning oldimizda g'oyat muhim vazifa turibdi. Bu — tabiatni hozirgi va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish, uni bizning mintaqamiz va boshqa mintaqalar aholisining turmush sharoiti va tabiatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada murakkablashtiradigan yangi xavfli loyihalardan asrashdan iboratdir.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda ommaviy Ekologik harakatni tashkil etishni hayotning o'zi taqozo qildi. Mazkur harakat xalqimizning orzu-umidlarini hisobga olib, tabiatni asrab-avaylash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida xalqaro ekologik tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda.

Ekologiya, atrof-muhit musaffoligi uchun kurashtish — Yer yuzidagi barcha mamlakatlar va xalqlar uchun birdek daxldor ekanini e'tiborga olgan holda, biz bu borada tobora keng ko'lam va rang-barang shakl kasb etib borayotgan mazkur ham-

korlik o‘ta muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Ushbu anjumanda nufuzli va tajribali ekologiya tashkilotlari, ekspertlar, tahlilchilar bilan hamkorlikda, BMTning tegishli Konvensiyalariga amal qilgan holda, bizning mintaqamizni O‘rta Osiyo mintaqasi doirasidan kengroq doiralarga chiqib ketadigan va halokatli oqibatlarga olib keladigan yangi xavfli loyihalar amalga oshirilishining oldini olishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi, deb ishonaman.

Sizlarning takliflaringiz va ovozingiz bugungi va kelajak avlodlarni ekologik halokatli hududda yashashdek og‘ir qismatdan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydigan xalqaro moliya institutlari, tashkilotlar va boshqa manfaatdor tuzilmalar tomonidan e’tiborga olinishiga ishonchim komil.

Konferensiya samarali o‘tishini, uning barcha qatnashchilariga muhim va xayrli faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSİYA QILISH YO'LINI IZCHIL DAVOM ETТИRISH – TARAQQIYOTIMIZNING MUHIM OMILIDIR

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

Xonimlar va janoblar!

Shu kunlarda Asosiy Qonunimiz — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligi mamlakatimizda tantanali ravishda bayram qilinmoqda.

Davlatimiz va xalqimiz hayotida tom ma'noda tarixiy sana bo'lgan ushbu ayyom haqida gapirar ekanmiz, biz Konstitutsiyamizning bugungi O'zbekiston davlatchiligining tiklanishi va rivojlanishidagi beqiyos o'mi va ahamiyatini yuksak baholaymiz. Va shu asnoda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadga erishish, ya'ni yurtimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Konstitutsiyamizning

mustahkam poydevor bo'lib kelayotganini mam-nuniyat bilan e'tirof etamiz.

Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotgani — bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chur-qur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Qisqacha aytganda, biz tanlagan va «o'zbek modeli» deb nom olgan mamlakatimizning taraqqiyot yo'li naqadar to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi yaqqol tasdiqlab bermoqda.

Biz o'z umrini o'tab bo'lgan mustabid, buyruq-bozlik va rejali-taqsimot tizimidan qanchalik uzoqlashganimiz sari, milliy taraqqiyot modelimizning asosini tashkil etadigan tamoyil va normalarning nechog'liq to'g'ri ekaniga bo'lgan ishonchimiz shu qadar ortib bormoqda.

Bu tamoyillar, birinchi navbatda, hayotimizni masfuradan to'la xoli qilish, kommunistik qolip va qarashlardan voz kechish, qonunning hamma uchun

ustuvor bo'lishi, davlatning bosh islohotchi rolini o'ziga olishi, inqilobiy emas, aksincha, tadrijiy taraqqiyot yo'lidan rivojlanish, ya'ni islohotlarni «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang» degan prinsip asosida izchil vabosqichma-bosqich amalga oshirish, shuningdek, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Ana shu tamoyillarga amal qilgan holda, biz o'tgan davr mobaynida, haqiqatan ham, juda katta tarixiy yutuqlarga erishdik va bu bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi — eski tizimdan butunlay voz kechib, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish yo'lidan dadil berayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat'iy va izchil tus olganidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda odamlarimiz, ularning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati tobora o'zgarmoqda, vatandoshlarimizning siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas'uliyati, daxldorlik hissi oshib bormoqda. Va aynan shularning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo'lidan izchil rivojlanib borishini, yangi marralarni qo'lga kiritishimizni ta-minlayotgan qudratli harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirgan ishlarimizni e'tirof etgan holda, biz bir haqiqatni esdan chiqarishga haqqimiz yo'q, deb o'ylayman: **ya'ni, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi.**

Bosib o'tgan yo'limizni va mamlakatimizning dunyoda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar jarayonida tutgan o'mini xolis va tanqidiy baholar ekanmiz, biz erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo'lib qolmasligimiz, ortiqcha havolanish va xotirjamlik tuyg'usiga berilmasligimiz zarur. Bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqr islohotlar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qat'iyat bilan rivojlanib borish natijasida o'z oldimizga qo'ygan istiqbolli maqsadlarga — **taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darrajasini ta'minlashga erisha olamiz.**

Parlamentimiz palatalarining shu yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisida bayon etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da aynan ana shu vazifalar o'rtaga qo'yilganini ta'kidlash joiz.

Quyidagi masalalar bizning eng muhim ustuvor yo'naliishlarimizga aylanishi darkor:

— davlat hokimiyyati va boshqaruvini demokratishtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarni

yanada chuqurlashtirish, ya’ni hokimiyatni tashkil qiladigan Prezident — davlat boshlig‘i, qonunchilik va ijro hokimiyati o‘rtasida muvozanat va barqarorlikni yanada mustahkamlash, sud tizimining mustaqilligi va liberallashuvini kuchaytirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish;

— axborot sohasida fuqarolar va inson huquqlarining kafolatlarini, saylov erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini takomillashtirish;

— demokratik qadriyatlar va insonlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amalda muhim omiliga aylanishi zarur bo‘lgan fuqarolik institutlarini, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xususan, mahallaning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash;

— faqat keng miqyosli iqtisodiy islohot va o‘zgarishlarni biz tanlagan, o‘zini amalda to‘la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda davom ettirish iqtisodiyotimizning barqarorligi va zarur rivojlanish sur’atlarini, hayotimiz sifatini oshirish, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallah imkonini beradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, biz oldimizga qo‘yayotgan bunday murakkab va ulkan vazifalarni amalga

oshirish uchun ancha vaqt, balki yillar talab qilinadi va buni biz o‘zimizga yaxshi tasavvur etishimiz lozim.

Men bugungi yig‘ilishda mazkur Konsepsiya da ko‘zda tutilgan aniq yo‘nalishlarga bat afsil to‘xtal-moqchi emasman.

Nega deganda, bu masalalarning barchasi hozirgi vaqtida ommaviy axborot vositalarida yetarlich a keng yoritilmoqda va nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham katta qiziqish va e’tibor bilan muhokama qilinmoqda.

Shu bilan birga, alohida ta’kidlashni istardimki, eng murakkab va mas’uliyatli vazifa — bu Konsepsiyaning o‘zini ishlab chiqishdan iborat emas, al-batta. Eng asosiy vazifamiz — mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratlashtirish bo‘yicha boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, biz o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak taraqqiyot marralariga erishish bo‘yicha Konsepsiya da belgilab berilgan, aniq maqsadga qaratilgan yo‘l yo‘riq va ko‘rsatmalarni amalga oshirishning Kompleks dasturini, boshqacha aytganda, shu yo‘nalishdagi Strategiyani ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etishdan iboratdir.

Bu haqda gapirar ekanmiz, faoliyatimiz negiziga qo‘yiladigan ushbu asosiy prinsiplarga e’tibor qaratish zarur, deb hisoblayman.

Birinchi. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish bo'yicha biz tanlab olgan yo'lning mantiqiy va qonuniy davomi bo'lishini nazarda tutgan holda, ularning uzviyiligi, bosqichma-bosqichligi va izchilligini, boshqacha aytganda, tadrijiyligini saqlash shart.

Ikkinci. Konsepsiyada taklif etilayotgan islohot yo'naliishlari o'zaro uzviy bog'liq ekani va bir-birini taqozo etishini o'zimiz uchun aniq va ravshan anglab olishimiz darkor.

Shu ma'noda, lo'nda qilib aytganda, davlat va jamiyat qurilishini izchil asosda demokratlashtirmsandan, mustaqil sud tizimini ta'minlamasdan turib, bozor islohotlarini amalga oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga erishib bo'lmaydi. Bunday talab so'z va axborot erkinligi, saylov erkinligini ta'minlash va saylov tizimini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish, eng muhimi, fuqarolarimizning siyosiy ongi, ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish masalalariga ham birdek daxldordir.

Uchinchi. Islohotlarimizning ma'no-mazmuni har bir ongli fikrlaydigan inson uchun ochiq va tushunarli bo'lgan, ular shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir fuqaro, har bir insonning amaliy ishiga aylangan taqdirdagina mamlakatimiz-

ni yanada isloh etish va modernizatsiya qilishning muvaffaqiyatini ta'minlashimiz mumkin.

Shu borada bugun mana shu zalda o'tirgan siz azizlarni, avvalambor, yoshlarimizni, ularning tim-solida unib-o'sib, hal qiluvchi bunyodkor kuch sifatida maydonga chiqayotgan, ona yurtimiz kelajagining egasi bo'lgan millionlab azm-u shijoatli farzandlarimizni men o'zimning eng katta umidim va ishonchim, deb bilaman.

Men qat'iy ishonaman — bizning bolalarimiz, mamlakatimizni isloh qilishning g'oya va maqsadlari ongi va qalbiga yaqin bo'lgan yoshlarimiz ana shunday orzu-umidlarimizga albatta munosib bo'ladilar, shu maqsadlarni amalga oshirish uchun astoydil kurashadilar va albatta, bu marrani ham qo'lga kiritadilar.

Qadrli do'stlar!

Bundan bir yil muqaddam mana shu muhtasham zalda, Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan majlisda, sizlar bilan atroflicha fikr almashib, 2010-yilni mamlakatimizda «**Barkamol avlod yili**» deb e'lon qilgan edik.

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni, ayniqsa, kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, avvalambor, biz yashayotgan XXI asr — intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, aynan shu qadriyatlar

ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr, degan hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan edik.

Albatta, hozirgi kunda taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanib borishimizda, ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan muhim bir mezon borki, u ham bo'lsa, inson kapitali, ya'ni inson omili, zamonaviy bilim va kasbhunarlarni egallagan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan yoshlarimizdir.

Biz qabul qilgan, o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash dasturida belgilangan ulkan va keng ko'lamli vazifalarni qisqa vaqt mobaynida, ya'ni bir yil davomida amalga oshirib bo'lmasligi barchamizga yaxshi ayon. Shu ma'noda, bu oliyanob maqsad davlatimiz va butun jamiyatimizning doimiy va uzoq istiqbolga mo'l-jallangan ustuvor vazifasiga aylanishi va hamisha e'tiborimiz markazida turishi lozim.

Ko'lami g'oyat keng bo'lgan ushbu dastur doirasida bajarilgan barcha ishlarni bitta ma'ruzada qamrab olish qiyin, albatta, uning ijrosi haqida yil yakuniga bag'ishlab joylarda va markazda bo'lib o'tadigan yig'ilishlarda atroflicha fikr yuritiladi. Men bu o'rinda faqat 2010-yilda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari bo'yicha amalga

oshirilgan eng muhim ishlar xususida qisqacha to'xta-lib o'tmoqchiman.

Avvalambor, bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Bu borada, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, 600 tadan ortiq normativ-huquqiy hujjat to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi, ularning yakuni bo'yicha amaldagi qonunlar va normativ hujjatlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga voyaga yetmagan bolalarning jinoiy muhitga tortilishining oldini olish maqsadida yoshlarga mo'ljallangan turli xil hordiq chiqarish muassasalari rahbarlari va boshqa mas'ul shaxslarning o'rnatilgan normalarga rioya qilish bo'yicha javobgarligini ku-chaytirish va huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratilgan qo'shimchalar kiritildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan aholi, birinchi navbatda, o'quvchi va talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalari asosida axborot-kutubxona, avvalambor, internet xizmati ko'r-satishni yanada yaxshilash maqsadida «Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida»gi Qonun birinchi o'qishda qabul qilindi.

Shular qatorida «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, albatta, katta ahamiyat kasb etadi. «Alkogol va tamaki mahsulotlarini tarqatish va iste'mol qilishni cheklash to'g'risida»gi qonunning yaqin kunlarda qabul qilinishi sog'lom avlodni shakllantirishda, ularni bolalik davridan boshlab salomatlikka putur yetkazadigan zararli odatlardan himoya qilishda muhim omil bo'lishini alohida ta'kidlash joiz.

Aytish kerakki, dastur doirasida ishlab chiqilgan «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri loyihasi ushbu sohani yanada isloh qilish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir.

Ma'lumki, sog'lom avlod deganda, barchamiz, birinchi navbatda, sog'lom naslni tushunamiz. Bu borada o'tgan yillar davomida «Sog'lom ona — sog'lom bola» g'oyasini o'zida mujassam etgan dastur asosida keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etildi.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, jumladan, poytaxtimiz va viloyatlarimizda zamona-viy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika, skrining va perinatal markazlari, yangi tug'uruq majmualari barpo etishga qancha kuch va mablag'

sarflanganidan, o'ylaymanki, hammangiz yaxshi xabardorsiz.

Birgina «Ona va bola skriningi» Davlat dasturi doirasida boshqa viloyatlar markazlari qatorida Guliston va Jizzax shaharlarida yangi skrining markazlari tashkil etildi. Barcha mintaqaviy markazlar budget mablag'lari hisobidan zamonaviy diagnostika va laboratoriya uskunalarini, zarur materiallar bilan ta'minlandi.

Bu, o'z navbatida, ko'plab irsiy kasalliklarning oldini olish va davolashni yuqori darajaga ko'tarish, bolalarning irsiy xastaliklar bilan va nuqsonli tug'ilishining xavfini kamaytirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz hududlaridagi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari va ixtisoslashtirilgan markazlarda deyarli barcha aholi tibbiy ko'rik va ultratovush teksiruvidan o'tkazildi. Bundan tashqari, har oyda muntazam ravishda «Tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar va o'smir qizlarni sog'lomlashtirish haftaligi» o'tkazilmoqda. Joriy yilning o'zida tug'uruq yoshidagi 7 million 800 ming ayol va 14 yoshgacha bo'lgan 8 million 500 ming bola tibbiy ko'rikdan o'tkazilganini qayd etish lozim.

Bu yil shu borada yana bir ibratli tajriba yo'lga qo'yildi. Ya'ni, 12 mingdan ortiq patronaj hamshiralari, 8 mingdan ziyod pediatr, neonatolog, aku-

sher va tibbiyot hamshirasi xotin-qizlar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi texnologiyalar asosida ta'lif olib, o'z malakasini oshirdi.

Ma'lumki, keyingi yillarda homilador ayollarni tarkibida hayotiy zarur elementlar bo'lgan maxsus polivitaminlar bilan ta'minlash va shu orqali aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash borasida misli ko'rilmagan profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Aytish kerakki, bunday chora-tadbirlar har yili 400 ming nafar homilador ayolni sog'lomlashtirish, onalar salomatligini mustahkamlash, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tug'ilishining oldini olish imkonini bermoqda.

Shuningdek, yurtimizda inson hayoti uchun xavfli bo'lgan bir qator kasalliklar profilaktikasi bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning 98 foizdan ortig'i oldini olish mumkin bo'lgan infeksiyalarga qarshi emlanmoqda.

Buning natijasida difteriya, qizamiq kasalliklariiga chalinish holatlari keskin kamayganini aytish darkor. 2010-yilda yuqumli kasalliklar bilan og'rish holatlari, jumladan, meningokokk infeksiyasi 28 foizga, epidemik parotit 27 foiz, virusli hepatit 13 foizga kamaygani ana shunday tadbirlar samarasidir.

Mamlakatimizda o'tkazilgan yana bir keng ko'lamli tadbir — poliomiyelitga qarshi emlash milliy kunlari davomida 15 yoshgacha bo'lgan 4 million bola emlandi. Bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda aynan shu masalada noxush vaziyatlar yuzaga kelgan bir sharoitda bunday tadbirlar poliomiyelit bilan kasallanishning oldini olish imkonini bergenini, buning ahamiyatini, albatta, barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bir qator nufuzli xalqaro institutlarning baholashicha, O'zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida yetakchi o'rinnlardan birini egallab turibdi. Buni UNISEFning Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'yи va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha ofisi tomonidan onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi dasturlarni joriy qilishda O'zbekistonning mintaqadagi namunaviy model sifatida e'tirof etilgani ham isbotlaydi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish, turli kasalliklarning oldini olish, umuman, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida joriy yilda davlat budjetidan jami 1 trillion 700 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilgan bo'lib, bu 2009-yildagiga nisbatan 30 foiz va 2008-yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p demakdir.

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturini amalga oshirishda **ta’lim sohasini rivojlantirish, avvalambor, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi o‘quv muassasalarini qurish va ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash** masalasiga e’tibor yanada kuchaytirildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliyl dasturining amalga oshirilishi natijasida 1 ming 536 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta’lim makkablarining qariyb 9 mingtasi, ya’ni deyarli hammasi, 1 ming 800 dan ortiq sport zali namunaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital rekonstruksiya qilindi.

Ushbu o‘quv muassasalarining moddiy-texnik bazasini muntazam yangilab borish, tizimli asosda zamonaviy kompyuter texnikasi, o‘quv-laboratoriya uskunalarini, mebel va o‘quv anjomlari bilan qayta jihozlash, ularni talab darajasida saqlash hamda yaratilgan bu ulkan salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida mutlaqo yangi bir tuzilma — Moliya vazirligi huzurida maxsus jamg‘arma tashkil etildi.

Bu jamg‘armaning hisob raqamiga 2010-yili 315 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2011-yilda 370 milliard so‘m ajratish ko‘zda tutilmoqda. Shuning o‘ziyoq bizning ushbu masalaga qanday katta e’tibor

berayotganimizni yaqqol ko'rsatib turibdi, desam, hech qanday xato bo'lmaydi.

Joriy yilda Toshkent shahrida Turin politexnika universiteti yangi, zamonaviy o'quv kompleksining barpo etilgani biz uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlashni istardim. Ushbu oliy o'quv yurti mamlakatimizda jadal rivojlanib bo-rayotgan avtomobil sanoati va boshqa tarmoqlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan maskan bo'lib xizmat qiladi.

Shu davr mobaynida kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi, oliy ta'lim bakalavriat bosqichining 50 ta yo'nalishi va magistratura bosqichining 74 ta mutaxassisligi unifikatsiya qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarining yangi klassifikatorlari joriy etildi.

Dastur doirasida 2010-yilda 560 ta yetakchi klaster maktablari qiymati qariyb 6 million AQSH dollari bo'lgan 13 ming 500 ta kompyuter texnikasi bilan ta'minlandi, 750 dan ortiq qishloq maktabi zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va multimedia vositalari bilan jihozlandi, 1,5 mingta qishloq maktabi o'qituvchilari umumiy qiymati qariyb 13 million AQSH dollari bo'lgan 3 ming 400 ta shaxsiy kompyuter bilan ta'minlandi.

Ayni paytda mamlakatimizdagи barcha, ya'ni 12 mingdan ortiq ta'lim muassasalari, ilmiy va ma-

daniy-ma'rifiy tashkilotlar 25 mingdan ziyod o'quv materiallari va resurslarni o'z ichiga olgan Ta'lim portaliga ulandi. Bu masofadan turib o'qitish usullarini ta'lim tizimiga keng joriy etish, o'quvchi va yoshlarga boshqa xil axborot-kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish imkonini berishi bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar, internetni nafaqat maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlariga, balki har bir oilaga joriy qilish harakatlari bugungi kunda tobora kuchayib bormoqda. Aynan zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng ko'lamba rivojlantirish mamlakatimiz va jamiyatimizning tarraqqiyot darajasini ko'rsatadigan mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Joriy yilda bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasida bugungi kunda yurtimizda 6 million kishi internetdan foydalanmoqda, ularning yarmini mobil aloqa orqali internetdan foydalanuvchilar tashkil etadi.

2010-yilda Toshkent va Samarqand shaharlariida ko'p dasturli televizion kanallarni tarqatish xizmatlarining sifatini oshirish, xalqaro axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratadigan zamonaviy raqamli tele-

videniye ishga tushirilganini alohida ta'kidlash zarur.

Aziz yurdoshlar!

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Shuni mammuniyat bilan aytish kerakki, istiqlol yillarida yurtimizda 1 ming 200 dan ziyod yangi sport inshooti barpo etilib, ularning mingdan ortig'i qishloq joylarda qurildi. Bu esa 260 ming nafardan ziyod bolaning sportning ko'plab turlari bilan muntazam shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratdi.

Qiz bolalarni, eng avvalo, qishloq qizlarini sport bilan shug'ullanishga jalb etishda joriy yilda sezilarli natijalarga erishildi. «Sport hayotidan hech kim chetda qolmasligi kerak» degan shiordan kelib chiqqan holda, kam ta'minlangan oilalarning 120 ming nafar qizlari uchun 3 milliard 500 million so'mlik sport kiyimi va jihozlari xarid qilindi.

Yana bir muhim holatga e'tiboringizni qaratmoq-chiman. Mamlakatimizda badiiy gimnastikani rivojlantirish dasturi qabul qilingach, sportning ushbu nafis turi bilan shug'ullanadigan qizlar soni shu

yilning o‘zida 6 — 7 barobar, ayrim viloyatlarda esa 10 — 12 barobar ortdi.

Bu borada yorqin bir misolni keltirishni o‘rinli, deb bilaman. Kuni kecha Xitoyda yakuniga yetgan o‘n oltinchi yozgi Osiyo o‘yinlarida badiiy gimnastika bo‘yicha qizlarimiz o‘z iste’dod va mahoratini namoyon etib, Osiyo qit’asi vakillari orasida sharaflı ikkinchi o‘rinni egallashgani mamlakatimizning sport hayotida misli ko‘rilmagan quvonchli voqeа bo‘ldi.

Shu ma’noda, bu yil o‘tkazilgan 42 ta xalqaro musobaqada yurtimizdan ishtirok etgan 500 nafardan ziyod yosh sportchining uchdan bir qismini qizlar tashkil etgani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Ma’lumki, shu yil yozda Singapurda bo‘lib o‘tgan birinchi o‘smirlar Olimpiya o‘yinlarida sportchi yoshlariımız munosib qatnashib, 9 ta medalni qo‘lga kiritdi. Yuqorida zikr etilgan Osiyo o‘yinlarida esa O‘zbekiston sportchilari nafaqat qit’amiz, balki dunyo miqyosida ham tan olingan qudratli davlatlarning vakillari bilan keskin bellashuvlarda 11 ta oltin, 22 ta kumush, 23 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi, umumjamoa hisobida sakkizinchı o‘rinni egal-lab, kuchli o‘nlikdan joy olishga erishdi.

Bugungi fursatdan foydalanib, xalqaro maydonlarda Vatanimiz shon-shuhratini butun dunyoga tarannum etayotgan iste’dodli yosh sportchilarimiz-

dan ayrimlarining nomlarini hurmat bilan tilga olish-dan mammunman.

Ko'zga ko'ringan sportchilarimizdan Rishod Sobirov, Rustam Qosimjonov, Vladimir To'ychiyev, Vadim Menkov, Dilshod Mansurov, Yuliya Tarasova, Artur Taymazov, Elshod Rasulov, Svetlana Radzivil, Serik Mirbekov, Gerasim Kochnev, Sergey Borzov, Aleksey Bobojonov, Vyacheslav Gorn, Aleksey Mochalov kabi yoshlarimiz Osiyo o'yinlarida oltin medal sohibi bo'ldilar.

Ayniqsa, Toshkent davlat jismoniy tarbiya institutining talabasi, kanoeda eshkak eshish bo'yicha ikki karra jahon championi Vadim Menkov xalqimizning haqiqiy iftixoriga aylandi. Bu iste'dodli sportchimiz 2010-yilda o'z yo'nalishi bo'yicha dunyoning eng yaxshi sportchisi, deb tan olindi.

Bularning barchasi, o'z navbatida, O'zbekiston terma jamoasining 2012-yili Londonda o'tadigan Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Futbol bo'yicha Osiyo championatida ajoyib o'yin namoyish etgan O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi kelgusi yili Meksikada bo'lib o'tadigan jahon championatida ham o'z mahoratini ko'rsatishiga ishonamiz.

Argentinada bo'lib o'tgan nogiron-amputantlar o'rtaida futbol bo'yicha jahon championatida ikkinchi

marotaba champion unvoniga sazovor bo‘lgan O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari haqiqiy jasorat va fidoyilik ko‘rsatib, o‘zlarining metin irodasini namoyish etdi.

Shular haqida gapirar ekanman, o‘z hayotini sportga bag‘ishlab, jahon va qit’a musobaqalarida O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarib kelayotgan barcha mard va jasur sportchilarimizga chuqur minnatdorchilik bildirib, katta g‘urur va iftixor bilan ularga yangi-yangi zafarlar tilashga ruxsat bergaysiz.

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturining yana bir ustuvor yo‘nalishiga bat afsil to‘xtalib o‘tishni zarur, deb hisoblayman. Bu o‘rinda gap yoshlarimiz o‘zlar egallayotgan eng zamонавиј bilim va ko‘nikmalarni amalda joriy etishi uchun **kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalariga keng jalb qilish haqida bormoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni muhim qadam bo‘ldi. Shular qatorida bitiruvchilarga o‘z biznesini tashkil etishi uchun imtiyozli kreditlar berish bo‘yicha banklarimiz tomonidan amalgaloshirilgan ishlar ham e’tiborga sazovordir.

Yana bir muhim masalani qayd etib o'tmoqchiman. Hozirgi keskin raqobat sharoitida **innovation texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalg etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.**

Bu masalaga ustuvor ahamiyat bermasdan turib, taraqqiyot haqida so'z yuritib bo'lmasligini bar-chamiz yaxshi tushunamiz, albatta. Bugun zamonning o'zi ushbu masalani siyosatimizning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

Yaqinda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatning mohiyati shundan iboratki, ilmiy kadrlar tayyorlashning aspirantura va doktorantura kabi eskirgan shakllari o'mniga mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti joriy etildi.

Eng muhimi, ularni rag'batlantirish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilarning lavozim maoishi stajyor-tadqiqotchilar lavozim maoshining

bazaviy miqdoriga, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar lavozim maoshining hajmi esa fan nomzodi unvoniga ega bo‘lgan katta ilmiy xodimlarning maoshiga tenglashtirildi. Bu amalda ushbu tadqiqotchilar ish haqining 1,6 barobar ko‘payishini anglatadi.

Dasturning prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir yo‘nalishi xususida, ya’ni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oilani mustahkamlash, yosh oilalar haqida g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, sog‘lom va mustahkam oila barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi keng qamrovli ishlarni davom ettirish haqida qisqacha to‘xtalmoq-chiman.

Aynan oila bag‘rida, ota-onaning o‘zaro mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi muhitida farzandning dunyoga kelishi, uning shaxs va fuqaro sifatida kamol topishi haqida uzoq gapirib o‘tirishga hojat yo‘q, deb o‘ylayman. Halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg‘usi, avvalo, oilada paydo bo‘ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi.

Shu sababli joriy yilda oila institutini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha avvalgi yillarda boshlagan ishlarimiz davom ettirilib, 2,5 ming yosh oilaga uy-joy qurish va uni jihozlash kabi masalalarni hal etish

uchun tijorat banklari tomonidan 107 milliard 600 million so‘mlik ipoteka va iste’mol kreditlari berildi.

Bundan tashqari, viloyat, shahar va tuman hokimliklari tomonidan noturarjoy binolarini rekonstruksiya qilish va uy-joy xarid qilish uchun homiylarning 5 milliard 800 million so‘mlik mablag‘lari jalb etildi. Shuningdek, 7 ming 200 dan ziyod yosh oilaga bepul qoramol berilib, shu maqsadlar uchun 5 milliard 300 million so‘m mablag‘ ajratildi.

Dastur doirasida yoshlarda «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi xurujlar, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, xalqimizga yot bo‘lgan g‘oya va qadriyat-larning chetdan «eksport» qilinishiga qarshi qat’iy pozitsiyani shakllantirish bo‘yicha axborot va pedagogik texnologiyalarning zamonaviy, yangi shakllari joriy qilindi.

Tabiiyki, bu borada «ommaviy madaniyat»ning saviyasi past, yengil-yelpi namunalariga qarshi haqiqiy san’at asarlarining yuksak durdonalarini keng targ‘ib va tashviq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hurmatli do’stlar!

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturida belgilangan ko‘plab tadbirlarning tashabbuskori nohukumat tashkilotlar bo‘lgani, ayniqsa, e’tiborga sazovordir.

Bunday ijobjiy holat yurtimizda fuqarolik jamiyatini bunyod etish borasida erishayotgan yutuqlari-

mizning amaliy namoyoni bo'lib, bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi. Bu davlatimiz va jamiyatimizning barkamol avlodni tarbiyalash va mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining mustahkam zaminini yaratish borasidagi manfaatlari mushtarak ekanini yaqqol ko'rsatadi.

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturini bajarish uchun barcha manbalar hisobidan joriy yilda qariyb 8 trillion so'm mablag' sarflanganining o'zi bu borada amalga oshirgan ishlarimizning ko'lami va miqyosi nechog'liq ulkan ekanidan dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, ana shunday olижаноб ishga munosib hissa qo'shgan mamlakatimizdagи davlat va nodavlat tashkilotlarga, ishlab chiqarish korxonalar, fermer xo'jaliklari va tadbirdorlik tuzilmalariga, xorijiy jamg'armalar va xalqaro tashkilotlarga, shu zalda o'tirgan chet el mamlakatlarining elchi va vakillariga, shu ulug' maqsad yo'lida o'zini ayamasdan xizmat qilgan barcha-barcha insonlarga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Aziz vatandoshlar!

Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi — 2011-yilga qanday nom berish haqida fikrlashib olishimiz kerak.

Bu masalada amaliy bir qarorga kelish, ya'ni yangi yilga o'z oldimizga qo'ygan yagona maqsad yo'lida

barchamizni birlashtiradigan aniq nom berishning ahamiyati va mohiyati haqida ortiqcha gapirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Muxtasar aytganda, davlatimiz va jamiyatimizning, mulk shaklidan qat‘i nazar, yurtimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini, tashkilot yoki muassasalar bo‘ladimi, yuridik yoki jismoniy shaxslar, homiyalar va xayriya jamg‘armalari bo‘ladimi — bularni barchasining kuch-imkoniyat va mablag‘larini aniq bir maqsad va ezgu niyatlarni amalga oshirish uchun safarbar etish, bir yoqadan bosh chiqarib mavjud muammolarni yechish, bu yo‘ldagi to‘sqliarni bartaraf qilishda ushbu masala qanday katta ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Buning tasdig‘ini biz o‘z hayotiy tajribamizda, ya’ni 1997-yildan boshlab kirib kelayotgan **har qaysi yangi yilga jamiyatimiz, butun el-yurtimizning fikr-u zikri va intilishlarini birlashtiradigan, yangi kuch-quvvat bag‘ishlaydigan nom berib**, shu asosda qo‘lga kiritgan yutuq va marralarimiz misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida bildirilgan fikr va xulosalarni inobatga olgan holda, mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida men kirib kelayotgan 2011-yilni mamlakatimizda «**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili**» deb e’lon qilishni taklif etaman.

Tadbirkorlik haqida gapirganda, biz, avvalam-bor, xususiy tadbirkorlikni o'zimizga tasavvur qilamiz. Aytish kerakki, yurtimiz tarixida tadbirkorlik qadim zamonlardan buyon alohida o'rinnutib keladi. Ota-bobolarimizning o'z yeri, o'z mulki, o'z kasb-u hunariga ega bo'lish, omilkorlik bilan ish yuritish, tadbirkor va ishbilarmon insonlarni qadrlash borasidagi an'analari haqida ko'pgapirish mumkin.

Men bu o'rinda Sohibqiron Amir Temur bobomizning barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan «**Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir**», deb aytgan chuqur ma'noli so'zlarini yana bir bor eslatmoqchiman.

Albatta, ilgarigi zamonlarda tadbirkorlik balki boshqacha nomlar bilan atalgan bo'lishi mumkin. Ammo, qanday nom bilan atalmasin — uning otini savdogar yoki do'kondor deydimi, hunarmand usta yoki kasanachi deydimi, katta-kichik korxona egasi deydimi, bundan qat'i nazar, ajdodlarimiz aynan shu soha hisobidan ro'zg'or tebratib, o'z oilasini, el-yurt manfaatini ta'minlab kelgan.

Bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlik, ishbilarmonlik xalqimizning, millatimizning qon-qoniga, suyak-suyagiga singib ketgan noyob va ezgu fazilat, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Biz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab mamlakatimizning kelajagini, davlatimiz va jamiyatimizning siyosiy-ijtimoiy qurilishini belgilashda, birinchi navbatda, Konstitutsiyamizni ishlab chiqish va tasdiqlashda mulk va mulkiy munosabatlar haqidagi prinsipial masala doimo e'tiborimiz markazida bo'lganini ta'kidlash lozim.

Aynan shuning uchun ham mamlakatimizning ko'p ukladli iqtisodiyoti tarkibida davlat mulki, korporativ va xususiy mulkning tengligini e'tirof etgan holda, Konstitutsiyamiz va qonunchiligidizda xususiy mulk ustuvorligi mustahkamlab qo'yildi va uning ishonchli konstitutsiyaviy kafolatlari ta'minlandi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotimizdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rinni egallaydi.

Mustaqillik yillaridagi taraqqiyotimiz misolida shuni hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, bu sohani rivojlantirmasdan, unga tegishli ko'mak va rag'bat bermasdan, zarur imkoniyat, imtiyoz va preferensiylar yaratmasdan turib, biz iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz.

Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, bugungi kunda biz uchun

eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmish aholimizni, avvalambor, yoshlarimizni ish bilan ta’minalash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohani tez va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanini hech unutmasligimiz darkor.

Shu borada yana bir muhim masalaga e’tiborin-gizni jalb etishni zarur, deb bilaman.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta’minalash orqali **biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poy-devori bo‘lgan o‘rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo‘lib borishiga erishmoqdamiz**.

Barchamizga ayonki, aynan ana shu ijtimoiy qatlam — ya’ni o‘rta sinf yurtimizda amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirishdan, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan eng ko‘p manfaatdordir. **Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimiz-dagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol hara-ktatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.**

Sizlarga yaxshi ma’lumki, keyingi yillarda yurtimizda ushbu soha rivoji uchun qulay tadbirkorlik muhiti yaratish va uni rivojlantirishni rag‘batlanti-rish bo‘yicha katta ishlar qilindi.

Bu haqda ko‘p gapirmasdan, bиргина misol kel-tirish kifoya, deb o‘ylayman.

Agar 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mah-sulotining 30 foizi kichik biznes subyektlari tomo-nidan ishlab chiqarilgan bo‘lsa, qisqa bir davrda, ya’ni 2010-yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich qariyb 53 foizga yetishi kutilayotgani, hech shubhasiz, ana shunday ishlarimizning mantiqiy samarasidir.

Bu haqda so‘z yuritganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik odamlarimiz uchun yangi ish o‘rinlari ochish, barqaror daromad manbalarini yaratishning eng muhim omiliga aylanayotganiga alohida e’tibor qaratmoqchiman. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ish bilan band aholining 74 foizdan ortig‘i aynan shu sohada mehnat qilayotgani ham shundan dalolat beradi.

O‘zingiz o‘ylang, aziz do‘srlar, agarki yurtimizda shu sohaga o‘z vaqtida katta e’tibor qaratib, uning rivoji uchun har tomonlama yo‘l ochib bermaganimizda, bugun bizning kuch-quvvatga to‘lgan yoshlarimiz boshqalarga o‘xshab qayoqqa ish izlab borardi, kimlarga muhtoj va qaram bo‘lib kun ko‘rар edi?

Shu haqida o‘ylash, buning oldini olish davlat hokimiyyati idoralarining asosiy burchidir.

Joriy 2010-yilning o‘zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 480 mingta

yangi ish o‘rni ochilgani ham yuqorida zikr etilgan fikrning yaqqol tasdig‘i, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Eng muhimi, bu ish o‘rinlarining 60 foizdan ortig‘i qishloqlarimizda tashkil etilmoqda. Mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini qishloq joylarida yashashini hisobga oladigan bo‘lsak, bu raqamlarning ijtimoiy ahamiyatini, o‘ylaymanki, tushunish qiyin emas.

Albatta, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ko‘zga yaqqol tashlanib turgan afzalliklari va katta imkoniyatlari haqida yana ko‘p gapirish mumkin. Lekin bugungi kunda O‘zbekistonda bu sohada hali ishga solinmagan juda katta salohiyat va imkoniyatlar mavjud ekanini, dunyodagi taraqqiy topgan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o‘rinni egallayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, bu yo‘nalishda qiladigan ishlarimiz naqadar ko‘pligi ayon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» bo‘yicha qabul qilinadigan davlat dasturida **quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur.**

Birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu soha rivoji uchun yanada keng

yo'l ochib berish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani tanqidiy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqish, yangi qonun hujjatlarini qabul qilish masalasi diqqat markazida bo'lishi darkor.

Bu haqda gapiргanda, shuni aytish kerakki, joylarda kichik bo'lsa ham o'z ishini, o'z biznesini ochishga intilayotgan xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash o'rнига, mahalliy amaldorlar tomonidan ularni ko'rolmaslik, qo'lidan ish keladigan odamlarning yo'liga turli-tuman g'ov-to'siqlar qo'yilayotganiga aslo toqat qilib bo'lmaydi.

Albatta, keyingi yillarda bunday salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida tegishli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalari ning aralashuvini keskin kamaytirish, shuningdek, xo'jalik va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy huquq va erkinliklarini sezilarli darajada ken-gaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Lekin nazorat organlariga mansub ayrim mansabdorlar malakasining pastligi hanuz o'tkir muammo bo'lib qolmoqda va ishimizga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Shular qatorida ko'pgina viloyat va tumanlarda korrupsiya degan balo, ya'ni poraxo'rlik, tamagirlilik, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish kabi illatlar uchrab turayotganini inkor etib bo'lmaydi. **Qonun-**

ga zid bo'lgan bunday xunuk holatlar bilan murosa qilishga chek qo'yishning vaqtি keldi.

Navbatdagi ustuvor yo'nalish — kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratishdan iborat.

Hammamizga ma'lumki, oxirgi yillarda tadbirkorlik sohasida o'z ishini ochish uchun ruxsat olish, soliq, moliya va statistika organlariga hisobot topshirish masalalarini tartibga solish bo'yicha ancha ishlar qilindi va qilinyapti. Buni rad etib bo'lmaydi, lekin bu sohada bajaradigan ishlarimiz hali kam emas.

Ayni paytda kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ularishi yoki ularni qurishda ishtirok etishi uchun ruxsat olish tartib-qoidalarini soddalashtirish masalasi bo'yicha ham dasturda aniq chora-tadbirlar belgilanishi va ularning ijrosini qat'iy nazoratga olish darkor.

Yana bir muhim masala kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlар borasida qulaylik va yengilliklar yaratish bilan bog'liqdir.

Albatta, so'nggi yillarda xo'jalik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 2005-yildagi 13 foizdan 7 foizga tushirish yoki qariyb 2 barobar ka-

maytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun katta imkoniyatlar tug'dirmoqda.

Shu borada kirib kelayotgan 2011-yildan boshlab bu ko'rsatkichning 7 foizdan 6 foizga tushirilishi, hech shubhasiz, davlatimiz tomonidan ishbilarmon va tadbirkorlarga ko'rsatilgan yangi bir imtiyoz bo'lib qolajak, deb o'yayman.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarimiz bilan cheklanmasdan, kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan kreditlar berish tizimini yanada takomillashtirish, mavjud muammolarning yechimi bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rshimiz zarur.

Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ishtirok etishi, ularning mintqa va jahon bozorlariга chiqishini kengaytirish muammosini hal etishga jiddiy ahamiyat qaratishimiz lozim.

Alovida katta e'tiborni talab etadigan yana bir masala shuki, hozirgi vaqtida yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, asosan, savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

Lekin, shu bilan birga, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamонавиј ishlab

chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovatsion va nanotexnologiyalar, farmakologiya va farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, bioteknologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar aytganda, **ilg‘or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo‘l ochib berishimiz zarur.**

Aytish joizki, men dasturdan o‘rin olishi kerak bo‘lgan eng muhim yo‘nalishlarning faqat ayrim jihatlari haqida qisqacha fikr bildirdim, xolos.

O‘z-o‘zidan ayonki, dasturni konkret mazmun bilan to‘ldirish, yechimini kutib turgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun hukumat qarori bilan bu masala bo‘yicha maxsus ishchi komissiyasi tuzish hamda yetakchi mutaxassislarimiz, avvalambor, tadbirkorlarning o‘zini bu ishga jalb qilib, har bir yo‘nalishni atroflicha, chuqur va puxta ishlab chiqishimiz darkor.

Bu borada mamlakatimizdagи davlat va nodavlat tashkilotlar, kichik biznes egalari, fermer va tadbirkorlar, homiyalar, bir so‘z bilan aytganda, keng jamoatchiligimiz o‘z fikrlari va amaliy takliflari bilan faol ishtirok etadi, deb o‘ylayman.

Shu fursatdan foydalanib, takror va takror aytishni istardim: **kichik biznes va xususiy tadbirkorlik — jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqi-**

yotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo'lishi shart.

Aynan ana shunday qarash, ana shunday yonda-shuv bizning ish faoliyatimizda, avvalambor, oldimizda turgan o'ta muhim va dolzarb vazifalar ni amalga oshirishda asosiy mezon va yo'llanma bo'lishiga ishonaman va barchangizga ayni shu maqsad yo'lida kuch-g'ayrat va yangi-yangi omadlar tilayman.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Sizlarni Konstitutsiyamiz bayrami bilan yana bir bor tabriklab, hammangizga sihat-salomatlik, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
18 yilligiga bag'ishlangan
tantanali marosimdagি ma'ruza,
2010-yil 7-dekabr*

KOLLEKTIV XAVFSIZLIK SHARTNOMASI TASHKILOTI (ODKB) KOLLEKTIV XAVFSIZLIK KENGASHINING MAJLISIDA SO'ZLANGAN NUTQ

Muhtaram davlat rahbarlari.

Sizlarni qutlashga va Rossiya tomoniga, Rossiya Prezidenti Dmitriy Anatolyevich Medvedevga samimiy qabul va an'anaviy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysizlar.

Bugungi sammit kun tartibidagi asosiy masala — ODKB kollektiv xavfsizlik tizimini yanada takomillashtirishdir.

Biz ODKB qarorlarining samaradorligi va ularning tezkorlik bilan qabul qilinishini ta'minlash, Tashkilotning mojaroli vaziyatlarga samarali munosabat bildirish imkoniyatlarini mustahkamlash borasidagi tashabbuslarni asosli hamda o'z vaqtida ilgari surilgan, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, O'zbekistonning bu boradagi qat'iy pozitsiyasini yana bir bor alohida ta'kidlamoqchiman: ODKBning vazifasi, bu — ODKB davlatlari o'rtasidagi va MDH makonidagi turli

qarama-qarshiliklar va mojarolarni hal etishda qatnashish emas, balki, avvalo, Tashkilotga a'zo mamlakatlarni tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iboratdir.

Biz, shuningdek, ODKBga a'zo u yoki bu davlatlar ichida «zo'ravonlik xatti-harakatlari» yuzaga kelgan hollarda unga Tashkilotning aralashuvi yoxud ta'sir ko'rsatishiga aslo yo'l qo'ymaslik zarur, deb hisoblaymiz. Bizning prinsipial pozitsiyamiz shundan iborat va Tezkor harakatlanuvchi kollektiv kuchlar to'g'risidagi bitimni imzolamaganimizning sababi ham shunda.

Bunda u yoki bu mamlakat ichidagi «zo'ravonlik xatti-harakatlari» turli ssenariylar bo'yicha, tashqi kuchlarning bevosita aralashuvi va moliyalashtiruvi orqali yuzaga kelishi mumkinligini e'tiborga olish darkor.

Shu bois «zo'ravonlik xatti-harakatlari»ning haqiqiy tashkilotchilarini aniqlab olish zarur. Shundan keyingina muayyan qaror qabul qilish mumkin.

Joriy yil 10 — 14-iyun kunlari Qirg'iziston janubida ro'y bergan voqealar barchamiz uchun ko'p jihatdan saboq bo'lishi kerak. Ushbu voqealar mamlakat ichidagi qarama-qarshiliklar va mojaroli vaziyatlarning haqiqiy sababini sinchkovlik bilan o'rghanmasdan, bu jarayonlarga aralashish qanday

oqibatlarga olib kelishi mumkinligini har tomonlama o'ylamasdan, ularni hal etish uchun Tashkilotning aralashuviga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmasligini yana bir bor ko'rsatdi.

11—12-iyun kunlari o'zbek millatiga mansub 100 mingdan ziyod qochqinlar, avvalambor, yordamga muhtoj xotin-qizlar, bolalar va qariyalar Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod viloyatlarida ro'y bergan millatlararo xunrezliklardan qochib, O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi chegarasini kesib o'tdi.

Men hozir bu odamlarni joylashtirish, oziq-ovqat bilan ta'minlash, chegara hududida tartibni saqlash va ular o'zini himoyalangan deb his qilishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasida yuzaga kelgan ulkan muammolar, buning uchun sarf etilgan resurs va mablag'lar haqida gapirib o'tirmayman.

Bu odamlar chegaradan o'z xohishi bilan yoki Qirg'iziston janubida yashash yoqmagani uchun o'tgani yo'q. Ular u yerda yuz yillar mobaynida qirg'izlar bilan yonma-yon yashab kelgan va bundan keyin ham yashaydi. Bunga bizning ham, Qirg'iziston Prezidenti Roza Otunboyevaning ham ishonchi komil. Qirg'iziston janubida hamon saqlanib turgan keskin vaziyatdan chiqishning yo'li shundan iborat ekaniga ishonaman.

Agar aholimiz o'rtasida osoyishtalikni saqlay olmaganimizda va turli g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olmaganimizda O'zbekistonning qariyb 300 ming qирг'из millatiga mansub aholi yashaydigan Farg'onan vodiysi hududida qanday fojiali voqealar ro'y berishi mumkinligi haqida gapirmasam ham bo'ladi.

Roza Otunboyeva tashabbusiga binoan 11-iyun erta tongda men u bilan telefon orqali uzoq gaplashdim. Shunda men uni har qanday holatda ham biz tomondan birorta ham odam Qирг'изiston chegarasidan o'tmaydi, deb ishontirdim va o'z so'zimning ustidan chiqdim.

O'sh Andijon shahridan uzog'i bilan 40 kilometr, chegaradan esa, bor-yo'g'i 15 kilometr masofada joylashgan. Agar ushbu qaltis paytda vaziyatni nazoratda saqlab turmaganimizda, Qирг'изiston janubidagi millatlararo qarama-qarshilik O'zbekiston va Qирг'изiston o'rtasidagi davlatlararo qarama-qarshilikka aylanib ketgan bo'lur edi.

Boshqacha aytganda, Qирг'изiston janubida ro'y bergen qonli voqealar oqibatlarini oldindan aytish qiyin bo'lgan ulkan fojiaga aylanib ketishi hech gap emasdi.

Ushbu qonli voqealarning sababi nimada, ularning buyurtmachilar, tashkilotchilar va ijrochilar kimlar ekani, bu — alohida masala.

Sizlarning e'tiboringizni quyidagi masalaga yana bir bor qaratmoqchiman. Agar bitta bo'lsa ham harbiy xizmatchi, O'zbekiston, Qozog'iston yoki Rossiya harbiy xizmatchisi bo'lishidan qat'i nazar, Qirg'iziston chegarasidan o'tganida, bu keyinchalik jilovlash qiyin bo'lgan katta mojaroga olib kelishi mumkin edi.

MDH hududida bunga misollar ko'p. Masalan, Armaniston va Ozarbayjon 20 yildan ortiq vaqt mobaynida o'zaro maqbul bo'lgan kelishuvga erisha olmayotir. Mojaro ro'y bergan dastlabki yillardayoq uning yoyilib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Ehtimol, shunda tomonlar bugun yuzaga kelgan vaziyatni bartaraf etib, o'zaro murosaga kelgan bo'lar edi.

Men bu misollarni har bir alohida vaziyatda biz «zo'ravonlik xatti-harakatlari» deb atayotgan voqealarning haqiqiy sabablarini nihoyatda jiddiy o'rganib chiqish kerakligining dalili sifatida keltirmoq-daman.

Aynan shu sababli O'zbekiston mojaroli vaziyatlarga ODKB munosabat bildirishi tartibi to'g'risidagi Nizomni imzolamayotir.

Biz, shuningdek, ODKBning tinchlikparvar kuchlari to'g'risidagi bayonotni ham imzolamaymiz. Bizning qarorimizning mohiyati shundan iboratki, bunday tinchlikparvar kuchlarda ishti-

rok etish har doim ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lgan va O'zbekiston o'z hududidan tashqaridagi tinchlik o'rnatish operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

E'tiboringiz uchun tashakkur.

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti

XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI

Shu yil 17-dekabr kuni xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

Samarqand zamini xususida so'z yuritganda, biz uning qadimiyligi, dunyodagi eng ko'hna o'lklalar qatorida turishi, shu bilan birga, go'zal va betakror tabiatni, umumbashariy sivilizatsiya rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida, ulug' mutafakkir zotlar, olim-u fuzalolar va jasur sarkardalar haqida gapishimiz odad tusiga kirib qolgan, dedi Yurtboshimiz. Lekin bugun Samarqand vohasining ana shunday buyuk tarixini yana bir marta e'tirof etgan holda, viloyatning yer osti va yer usti boyliklari, uning ulkan salohiyati, bunday noyob imkoniyatlarni ishga solish va ularni el-yurtimiz manfaati yo'lida oqilona ishlatish xususida fikr yuritishimiz ayni muddao bo'ladi. Bunda, avvalambor, bu sohada qilayotgan ishlarimizga tanqidiy ko'z bilan qarash va xolisona

baho berish asosiy vazifamiz bo‘lishi kerak. O‘z faoliyatimizga chuqur va atroflicha baho bermasdan, boy berilgan imkoniyatlarni to‘g‘ri tahlil qilmasdan va tegishli xulosalarni chiqarmasdan turib, hammamiz yaxshi tushunamizki, boshlagan ishlarimizni davom ettirish, eng muhim, har qaysimiz o‘z joyimizda xalqimizning bizga bildirgan ishonchini oqlashimiz qiyin bo‘ladi.

Bu haqda gapirar ekanmiz, bir haqiqatni esimizdan chiqarmasligimiz lozim: Samarqand viloyati, shu yurtda yashayotgan mehnatkash xalq hech qachon oqsoqlar qatorida bo‘lmagan, doimo ilg‘orlar safidan munosib o‘rin egallab kelgan, lo‘nda qilib aytganda, hech kimdan kam bo‘lmagan va kam bo‘lmaydi, dedi Islom Karimov.

Davlatimiz rahbari butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi, Samarqand vohasida ham keyingi yillarda viloyat ahlining fidokorona mehnati bilan ko‘pgina ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotgani haqida to‘xtalib, quyidagi misollarga alohida e’tibor qaratdi.

Joriy yilning 9 oyi davomida viloyatda yalpi hудуди mahsulot hajmi 112 foizga o‘sgan, sanoatda 116 foiz, qishloq xo‘jaligida 108,5 foiz, qurilish sohasida 140 foiz o‘sishga erishilgan. Viloyat mehnatkashlari paxta va g‘alla, qishloq xo‘jalinining boshqa tarmoqlari bo‘yicha ham shartnoma rejalarini muvaffaqiyatli ado

etib, Samarqand dehqonlarining mirishkorlik fazi-latlarini amalda namoyon etib kelmoqda.

Kapital qurilish sohasida ham salmoqli natijalar-ga erishilmoqda. Ayniqsa, Samarqand shahrini 2009 — 2012-yillarda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi to'g'risidagi hukumat qarori asosida bu azim shaharda ulkan bunyodkorlik va obodonchilik ishlari amalga oshirilmoqda. Shaharning 5 — 10 yil burungi qiyofasi, tang-u tor ko'chalari, rejasiz, pala-partish qurilgan ko'rimsiz binolarini Samarqandning bunguni manzarasi bilan solishtiradigan, qiyoslaydigan bo'lsak, yer bilan osmoncha farq borligini ko'rish qiyin emas. Xususan, Samarqand aeroportini rekonstruksiya qilish uchun katta sarmoya jalb qilinib, bu yerda bajarilgan qurilish va obodonchilik ishlari natijasida aerovokzal kompleksi eng zamonaviy talablarga javob beradigan, go'zal qiyofaga ega bo'ldi. Xuddi shunday o'zgarishlar Samarqanddagi temiryo'l vokzali va uning yon-atrofida ham amalga oshirildi.

Ayni vaqtida 14 milliard 700 million so'm mablag' hisobidan shahar ko'chalarining katta qismi kengaytirilib, kapital ta'mirlandi. Jami 450 ta obyektda, jumladan, 42 ta ko'p qavatli uy, 165 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 60 ta ijtimoiy soha obyekti, bir qator ma'muriy va xususiy

turarjoy binolarida keng ko‘lamli qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Bu maqsadlar uchun korxona va tashkilotlar mablag‘lari, banklarning krediti hisobidan qariyb 152 milliard so‘m sarflandi.

Dunyoga mashhur, ko‘pchilik bir ko‘rishni orzu qiladigan, Samarqand ahlining eng sevimli maskani bo‘lmish Registon maydoni, Bibixonim, Shohi Zinda, Hazrati Xizr ziyoratgohlari oxirgi yillarda har tomonlama obod qilinib, butun jahondan keladigan mehmon va sayyoohlarning havasini tortmoqda. Imom Buxoriy majmuasida amalga oshirilgan buniyodkorlik ishlari, bunday muqaddas qadamjolarning yanada obod bo‘lib borayotgani ko‘pgina musulmon mamlakatlari davlat arboblari va jamoatchiligi, minglab ziyoratchilarning yuksak e’tibori va hurmatiga sazovor bo‘lmoqda.

Shu kunlarda 6 milliard 500 million so‘m mablag‘ sarflanib, Siyob dehqon bozorini rekonstruksiya qilish va uning hududini obodonlashtirish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Shular qatorida, salkam 4 milliard so‘m mablag‘ o‘zlashtirilib, Samarqand shahridagi Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi hududida yangi muzey binosi, keng maydon va so‘lim xiyobon barpo etildi, buyuk bobomizning muazzam haykali o‘rnatalilib, bugungi kunda bu maskan Samarqand tarixining yana bir yorqin ko‘zgusiga aylandi.

Samarqand shahri bilan bir qatorda Pastdarg'om, Jomboy va Urgut tumanlarida, uzoq-yaqin qishloqlarda ham ana shunday ko'plab bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Samarqand vohasida keyingi yillarda qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan qariyb 200 milliard so'm kapital mablag' yo'naltirildi. Bularning barchasi Samarqand shahri, viloyatdagi tuman va qishloqlarimizning yanada ko'rkan va obod bo'lishida, shu yurtda yashayotgan insonlarning ehtiyojini ta'minlashda salmoqli qadam bo'lib, ayni vaqtda xorijiy sayyoh va mehmonlarning hayrat va havasini uyg'otmoqda.

Sessiyada bunday keng ko'lamli ishlarga xolisona baho berilgan holda, Samarqand viloyatining katta salohiyatini, eng muhimni, bu yerda istiqomat qilayotgan aholining tobora o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini inobatga olib, bu talablarni qondirish, viloyatda mavjud bo'lgan resurs va imkoniyatlarni oqilona ishlatish bo'yicha hali qilinadigan ishlar ko'pligi alohida ta'kidlandi.

Ma'lumki, hozirgi kunda iqtisodiyot taraqqiyotini investitsiyalar, avvalambor, xorijiy investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu borada Samarqand viloyatidagi mavjud ahvolga nazar tashlanadigan bo'lsa, viloyat iqtisodiyotiga xorijiy

investitsiyalarni jalb etish masalasiga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. O'tgan yili to'g'ridan to'g'ri jalb etilgan investitsiyalar miqdori 10 million dollarni tashkil etgani holda, bu yil ushbu ko'rsatkich 6 million dollarga tushib qolganini afsus bilan qayd etish lozim.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida barpo etilgan qo'shma korxonalarining 14 tasi mutlaqo ishlaymayapti, 6 tasi joriy yilda o'z faoliyatini tugatgan va yana 4 tasi to'xtash arafasida turibdi.

Samarqand vohasida mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala — ya'ni viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish hajmini oshirish, shu orqali valuta tushumini ko'paytirish va korxonalarini modernizatsiya qilish ishlari ham talab darajasida emas. Birgina joriy yilning 9 oyi mobaynida mahsulot eksporti 56 million dollarni tashkil etib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 50 million dollarlik mahsulot kam eksport qilingani ham buni isbotlaydi.

Yurtboshimiz sanoat sohasidagi muammolar haqidagi gapirar ekan, nomi bir paytlar butun mintaqaga mashhur bo'lgan «Samarqand liftsozlik zavodi», «8-Mart», «Nafis» chinni fabrikasi kabi korxonalar deyarli faoliyat ko'rsatmayotgani, «Sino», «Alpomish», «Kinap» kabi yirik zavodlar esa 35 — 40 foiz

quvvat bilan ishlayotgani viloyat rahbariyatini tashvishga solmayotganini afsus bilan qayd etdi.

Viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan qariyb 15 ming kichik biznes subyektining 4 mingga yaqini umuman faoliyat ko'rsatmayapti. Bunday korxonalarining aksariyati Samarqand shahri, Nurobod, Paxtachi tumanlariga to'g'ri keladi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda, jumladan, Samarqand viloyatida qishloqlarimizni har tomonlama taraqqiy toptirish maqsadida katta ishlar amalga oshirilayotgani, ayni paytda bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, mavjud muammolar va ularning yechimi haqida atroflicha to'xtalib o'tdi.

Samarqand viloyatida namunaviy loyihalar bo'yicha zamonaviy uy-joylar barpo etish uchun joriy yilning o'zida 21 ta qishloq massivida qariyb 44 milliard so'mlik kapital mablag' hisobidan 650 ta uy-joy qurish va ularni shu yilning uchinchi choragida foydalanishga topshirish belgilangan edi. Lekin, afsus bilan aytish kerakki, bunday yangi, odamlarning intilishini tortayotgan, qishloqlarimizni obod qilish, qishloq hayotini shahar darajasiga ko'tarishda istiqboli katta bo'lgan muhim masalaga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Buning natijasida ana shu uylarni qurishda sustkashlikka va ularni topshirish muddatlarini asossiz ravishda cho'zib yuborishga yo'l qo'yilmoqda.

Hammamizga yaxshi ma'lum bo'lishi kerakki, joylardagi barcha yangi qurilishlar yoki obodonchilik ishlari bo'ladimi, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida berish bo'ladimi, muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish bo'ladimi — bularning hal qiluvchi eng muhim manbayi viloyat, shahar va tumanlarning moliyaviy ahvoliga bevosita bog'liqdir, dedi Yurtboshimiz.

Shu borada Samarqand viloyatidagi ishlar tahlil qilindi. Avvalo, 2009-yilda dotatsiyaga tushib qolgan 8 ta tumanning hanuzgacha dotatsiyada qolib keelayotgani qayd etildi. Ayniqsa, Qo'shrabot, Bulung'ur, Payariq, Ishtixon, Pastdarg'om va Kattaqo'rg'on tumanlarida dotatsiya ulushi yuqoriligidicha qolayotganiga e'tibor qaratildi.

2010-yilning 1-oktabriga qadar viloyat bo'yicha debitorlik qarzlar qariyb 830 milliard so'mni, kreditorlik qarzlar esa deyarli 950 milliard so'mni tashkil etgan. Xususan, Samarqand shahrida, Bulung'ur, Nurobod, Payariq, Urgut va Qo'shrabot tumanlarida debitorlik va kreditorlik qarzlar yil boshiga nisbatan kamayish o'rniga o'sib bormoqda.

Ahvol shunday bo'lishiga qaramasdan, bu muammoning yechimi bo'yicha na viloyat, na ushbu hududlar rahbarlari tomonidan aniq amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Viloyatda sanoat korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish borasida ham yetarlicha chora-tadbirlar ko'rilmayapti. Buning natijasida shu yilning 1-oktabrigacha 7 ta korxona o'z faoliyatini zarar bilan yakunlab, ko'rilgan zarar miqdori 3 milliard 460 million so'mdan oshib ketgan.

Prezidentimiz har tomonlama o'rinli ta'kidlab o'tganidek, bunday korxonalarda ishlayotgan odamlarning hayoti, taqdiri nima bo'ladi, ular oilasini qanday boqadi, ishsizlikning ko'payishi ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida viloyatda o'zini rahbar degan, yetakchi degan shaxslar umuman o'ylayaptimiyo'qmi, degan savol, afsuski, javobsiz qolmoqda.

Mamlakatimizda aholini, avvalambor, hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizni ish bilan ta'minlash masalasi qanday o'tkir va dolzarb bo'lib turgani, bu muammoni yechish bo'yicha keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu masala davlatimiz, jamiyatimiz, barcha-barcha idoralar, faollarning e'tibor markazida turgani haqida ham fikr yuritildi.

Davlatimiz rahbari yurtimiz bo'yicha 2010-yilning o'zida 940 mingdan ko'proq yangi ish o'mni tashkil etilgan bo'lsa, ularning yarmidan ko'pi qishloq joylarda ochilganini qayd etdi va quyidagilarni ta'kidladi.

Ma'lumki, Konstitutsiyamiz bayramiga bag'ishlangan majlisdagi Prezident ma'rzasida bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Eng muhim, bu yo'naliшhdagi muammolarni yechishda birinchi navbatda rahbarlar — bu vazirlik va markaziy idoralar rahbarlari bo'ladimi, viloyat, shahar, tuman hokimlari bo'ladimi — ularning zimmasiga qanday katta mas'uliyat yuklatilgani haqida atroflicha so'z yuritildi.

Samarqand viloyati Kengashining sessiyasida ham bandlik masalasining naqadar muhim va hal qiluvchi, ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ma'naviy nuqtayi nazardan qay darajada dolzarbligi yana bir bor o'rtaqa qo'yildi.

Albatta, bunday muammolarni yechishda Samarqand viloyatida, shahar va tumanlarda ancha ishlar qilinyapti. Lekin bu masala bo'yicha Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan dasturning Samarqand viloyatida 97 foizga bajarilganini nima bilan izohlab bo'ladi?

Sessiyada ta'kidlanganidek, ushbu masalaga javobgar bo'lgan rahbar va xodimlarning — bu viloyat darajasida, shahar yoki tuman darajasida bo'ladimi — birinchi navbatda ularning mas'uliyatini alohida ko'rib chiqish zarur. Qaysi tuman, qaysi shahar, qaysi rahbar bu masalaga sovuqqonlik bilan qarayotgani bo'yicha tegishli xulosalar chiqarish darkor. Axir har qaysi ishsiz yurgan odam uchun,

eng muhim, endi hayotga kirib borayotgan yoshlarimiz uchun bu masala o'zining kasb-u hunariga qarab munosib ish topish, munosib haq olish, o'z hayotini, oilasini tebratishi uchun, ertangi kunini ko'rishi uchun naqadar muhim, naqadar o'tkir savdo ekanini, avvalambor, biz, xalq ishonchiga sazovor bo'lgan rahbarlar tushunishimiz, anglashimiz, yurakdan o'tkazishimiz zarur emasmi, dedi Prezident.

Shuni ochiq aytish mumkin: bugungi kunda har qaysi shahar va tuman rahbaridan ular boshqaratgan hududda qancha odam ishsiz yurgani va ish qidirayotgani, kim doimiy ish bilan, kim vaqtinchalik ish bilan bandligi haqida, ishsizlikning darajasi va ulushi haqida so'rasangiz, aniq-ravshan javob ololmaysiz. Vaholanki, bugungi kunda, joylardagi mayjud vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazadigan sabablar haqida gapirganda, aynan shu masala eng o'tkir bo'lib turganini anglash, mas'uliyatni sezish vaqt kelmadimi?

Bu masalaga bo'lgan munosabatni mutlaqo o'zgartirish zarurligini bugun zamonning o'zi talab qilayotgani qayd etildi.

Viloyatning bir qator shahar va qishloqlarida vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash masalasi mutlaqo e'tibordan chetda qolayotgani, bu sohada oxirgi yillarda yetarli

darajada mablag‘ ajratilmagani sababli 70 kilometr-dan ortiq quvurlarni almashtirish talab etilayotgani hech kimni, avvalambor, tegishli rahbar va mutasaddilarni tashvishga solmasdan kelmoqda. Aynan shu tufayli hozirgi kunda aksariyat ko‘p qavatli uylarga ichimlik suvi va issiqlik ta’mnoti yetib bormayapti.

Bugungi kunda aqlga sig‘maydigan ba’zi holatlar haqida faqat afsuslanib gapishtirish, xususan, vodoprovod tarmoqlarining ishdan chiqishi oqibatida odamlarning quduq suvidan foydalanishga majbur bo‘layotganini Bulung‘ur va boshqa tumanlarda kuzatish mumkin.

Tabiiy gaz bilan ta’minalash haqida gapirganda, bu masalada ham shu kabi noxush misollar kam emasligini aytish lozim. Jumladan, Samarqand, Urgut, Tayloq, Payariq, Kattaqo‘rg‘on tumanlariда bu nuqsonlar ko‘zga tashlanmoqda. Ayni qish paytida bunday holat odamlarning haqli e’tirozini uyg‘otmoqda.

Bu kabi kamchiliklar, ayniqsa, elektr energiyasi ta’midotidagi uzilishlar ayrim qishloq vrachlik punktlarida uchrashini hech chidab bo‘lmaydigan hol deb baholash kerak.

Sessiyada viloyatda huquq-tartibot sohasida olib borilayotgan ishlar haqida ham so‘z yuritilib, jinoyatchilik va qonun buzilishlariga qarshi kurash bo‘yicha hali qilinadigan ishlar ko‘pligi ta’kidlandi.

So'nggi ikki yil davomida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etish, bosqinchilik, talonchilik, qasddan odam o'ldirish kabi jinoyatlar ko'rsatkichi yuqori darajada bo'lib qolayotgani kuzatilmoqda. 2009-yilda ochilmagan jinoyatlar soni 443 ta bo'lgan bo'lsa, joriy yilning o'n oy davomida bu ko'rsatkich 311 tani tashkil etgan.

Bu borada ko'zga tashlanayotgan noxush bir holat odamda tashvish uyg'otmasdan qolmaydi. Ya'ni, viloyatda 2008 — 2010-yillar davomida 1391 nafar mansabdor shaxs poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish va o'zganing mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ularning 6 nafarini hokim va hokim o'rribosarlari, 83 nafarini ichki ishlar xodimlari va boshqa bo'g'indagi mansabdorlar tashkil etadi. Masalan, viloyat hokimining xotinqizlar masalalari bo'yicha o'rribosari G. Shodiyeva, Samarqand shahar hokimining birinchi o'rribosari Sh. Husanov, Ishtixon tumani hokimining birinchi o'rribosari J. Hamroyev, Kattaqo'rg'on tumani hokimining o'rribosari E. Doniyorova turli jinoyatlar bilan ayblanib, javobgarlikka tortilgan.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ko'zga tashlanayotgan, chidab bo'lmaydigan eng noxush holatlar — bu ko'zbo'yamachilik, salbiy ko'rsatkichlarni sun'iy ravishda pasaytirish, huquqni muhofaza

qiluvchi organlarning shaxsiy tarkibi tomonidan xizmat vazifasini suiiste'mol qilish bilan bog'liq. Xususan, pora olish va tamagirlik tufayli jinoiy javobgarlikka tortilganlar orasida 21 nafar ichki ishlar xodimi, 6 nafar prokuratura va sud xodimi borligi viloyatda bu borada tartib-intizom, talabchanlik va nazoratning bo'shashtirib yuborilganidan darak beradi.

Yuqorida zikr etilgan kamchilik va muammolarining barchasi oxir-oqibatda bir masalaga, ya'ni Samarqand viloyatining boshqaruvi, avvalambor, birinchi rahbar faoliyatiga, uning ish uslubidagi kamchiliklarga borib bog'lanadi, albatta.

Ma'lumki, bundan ikki yarim yil oldin O'ktam Barnoyevga katta ishonch bildirilib, u Samarqand viloyati hokimi lavozimiga tasdiqlangan edi. O'z faoliyatining dastlabki davrida vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida O'. Barnoyev tomonidan birmuncha harakatlar bo'ldi. Lekin keyinchalik uning faoliyatida ishga mas'uliyatsizlik bilan yonda-shish, viloyatdagi mavjud muammolarni hal etishda beparvolik va sustkashlik, erishilgan natijalardan qoniqish holatlari ko'zga tashlana boshladi.

Ishga bunday loqayd munosabat qanday salbiy oqibatlarga olib kelganini yuqorida zikr etilgan misollar yaqqol tasdiqlaydi. Bu misollarni davom

ettirib, kadrlar masalasida, ya’ni viloyat, shahar va tuman darajasidagi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda, avvalambor, ularning qobiliyati, bilim va tajribasi, ishni bilishi, salohiyati va istiqbolini har tomonlama o‘rganib, bamaslahat qaror qabul qilishda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani haqida ko‘p faktlarni keltirish mumkin. Masalan, o‘z vazifasiga noloyiq, ishni uddalay olmayotgan, xalq ishonchini yo‘qotgan ayrim viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimlari faoliyatiga baho berishda O‘. Barnoyev qat’iyatsizlik va sustkashlikka yo‘l qo‘yib, ularning kamchiliklaridan ko‘z yumib kelgan. Bunday noloyiq kadrlar, asosan, Prezident devoni tashabbusi bilan almashtirilgan.

Viloyatda zamonaviy bilim va professional malakaga, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini bitirgan yosh kadrlarga ishonch bildirish, ularning yo‘lini ochib berish o‘rniga mas’ul lavozimlarga bugungi kun talablariga javob bermaydigan nomzodlarni tavsiya etishdek nomaqbul tajriba qo‘llanib kelgan.

Majlisda ta’kidlanganidek, viloyat hokimining ish faoliyatida kuzatilgan yana bir jiddiy kamchilik shuki, Samarqand zaminidagi nufuzli oliy o‘quv yurtlari,

ilmiy tadqiqot markazlari, madaniyat muassasalarida mehnat qilayotgan, o‘z hayotini ilm-ma’rifatga bag‘ishlagan zahmatkash olimlar, san’at va madaniyat namoyandalari, shu yurtning haqiqiy fidoyilari bo‘lgan insonlarga, ularning dard-u muammolariga e’tibor berib, ilmiy-ijodiy izlanishlari, boy salohiyatini viloyatni ravnaq toptirish yo‘lida birlashtirish, safarbar etishga uning qurbi yetmadi. Holbuki, o‘ziga nisbatan katta ishonch bildirilgan har qaysi rahbar, shu jumladan, Samarqand viloyatini boshqarishdekk o‘ta mas’uliyatli vazifaga tayinlangan shaxs, avvalambor, bu ishga kirishishni ko‘p millatli, ko‘pni ko‘rgan, qanchadan qancha sinovlardan o‘tgan xalqning o‘ziga xos va o‘ziga mos tabiatini va mentaliteti, dunyoqarashi, bu viloyatning sir-asrori, tarixi bilan, o‘z faoliyati, halol mehnati va xizmati tufayli katta obro‘ qozongan, yetakchi, kayvoni bo‘lib tanilgan odamlar bilan yaqindan tanishish, ularning fikrmulohazalari, maslahat va tavsiyalariga qulq solish va tegishli xulosalar chiqarishdan boshlashi lozim.

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2008-yil aprel oyidagi O‘. Barnoyev viloyat hokimi etib saylangan sessiyada unga aynan shunday maslahatlar berilgan edi. Bu shaxsning o‘z faoliyatida eng boshdan xatoga yo‘l qo‘yanini ayni shu tavsiyalarga jiddiy qaramaganani, ularni e’tiborga olmaganida ko‘rish mumkin. Ya’ni Barnoyev o‘ziga

ortiqcha bino qo'yib, atrofidagi muovinlari va faollarning fikrini mensimasdan, manmanlikka, o'zboshimchalikka berilib ketgani oxir-oqibatda uning obro'siga putur yetishiga olib keldi.

Barnoyevda bugungi rahbardan zamonning o'zi talab qilayotgan muhim xususiyatlar, avvalambor, keng miqyosda fikrlash, yon-atrofidagi faollarga suyanib-tayanib, ularning boshini qovushtirib ishlash, bag'rikenglik alomatlari va hayotiy tajriba yetishmasligi namoyon bo'ldi. Bularning barchasi viloyatda bir yoqadan bosh chiqarib, biri-biriga yelkadosh bo'lib ishni boshqarish o'rniga ko'pgina xato, nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yishga sabab bo'ldi.

Viloyat oldida turgan o'ta muhim va mas'uliyatli vazifalarni, avvalambor, shahar va tumanlarning iqtisodiyotini, sotsial sohani rivojlantirish, aholining og'irini yengil qilishda bunday yaroqsiz ish uslubi o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Yurtboshimiz shu munosabat bilan barcha rahbarlarga daxldor bo'lgan haqiqatni yana bir bor eslatib o'tdi: sen boshqargan, senga ishonch bildirgan aholi, el-yurt, jamoatchilik hamma narsani kuzatadi, hamma narsadan xabardor, hamma narsani anglaydi va vaqt kelganda tegishli xulosa chiqaradi.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. O‘. Barnoyev Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko‘ra, Samarqand shahar hokimi vazifasida ishlab kelayotgan Zoyir Mirzayev Samarqand viloyati hokimi etib tasdiqlandi.

Bu dunyoda har qaysi inson baxtli bo‘lishni, munosib hayot kechirishni istaydi. Xalqimizning shu boradagi ezgu orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish, el-yurtimiz uchun hech kimdan kam bo‘lmagan hayot darajasini ta’minlash yo‘lida o‘zimizni ayamasdan mehnat qilish biz — rahbar va faollarning nafaqat vazifamiz, ayni vaqtda muqaddas burchimizdir, dedi pirovardida davlatimiz rahbari.

Sessiyada so‘zga chiqqan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Samarqand viloyati bo‘limi raisi o‘rinbosari Baxtiyor Xo‘jayorov, «Mahalla» jamg‘armasi Qo‘srorbot tumani bo‘limi raisi Normo‘min Usmonov, «Elxolding» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi boshqaruvi raisi Rustam Sattorov, «Ayollar kengashi» respublika jamoat birlashmasi raisi Xadicha Ja’farova, Pastdarg‘om tumani hokimi Abdumo‘min Jo‘rayev, Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti rektori Sobir Boboyev, Samarqand tumanidagi «SamRosXolod» qo‘shma korxonasi rahbari o‘rinbosari Shavkat Yo‘ldoshev va boshqalar

Prezidentimiz nutqida bayon etilgan tanqidiy fikrlardan zarur xulosalar chiqarib, ko'rsatib o'tilgan kamchilik-nuqsonlarni bartaraf etish, viloyat oldida turgan muhim va dolzarb vazifalarni bajarish, islohotlarimiz samarasini oshirish uchun butun Samarqand ahli belni qattiq bog'lab, astoydil mehnat qiladi va ko'zlangan marralarga albatta erishadi, deb ta'kidladilar.

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Aziz vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

Mana shu hayajonli daqiqalarda bayram dasturxonni atrofida jamuljam bo'lib o'tirgan siz azizlarni, butun O'zbekiston xalqini qutlug' qadami bilan yurtimizga kirib kelayotgan yangi — 2011-yil bilan samimi muborakbod etish va eng ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Ayni shu lahzalarda barchamiz o'tib borayotgan yil davomida boshimizdan kechirgan, el-yurtimiz hayotida ro'y bergan unutilmas voqealarni, quvonch va tashvishlarni beixtiyor ko'z o'ngimizdan o'tkazib, shu kunlarga sog'-omon yetkazgani uchun Yaratganimizga shukronalar aytishimiz, hayotning qadr-qimmatini yana bir bor anglashimiz tabiiy, albatta.

Yakuniga yetayotgan yilni kuzatar ekanmiz, bugungi shiddat bilan tez o'zgarayotgan zamonda, avvalo, yon-atrofimizda yuz berayotgan notinch-

lik va beqarorlik, qarama-qarshilik tufayli vaziyat tobora keskinlashib, murakkablashib borayotgan bir paytda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik, osuda hayotni saqlash, jamiyatimizda kuchayib borayotgan o'zaro hurmat, mehr-oqibat, millatlar va elatlар о'rtasidagi totuvlik va hamjihatlikning qadriga yetish, asrab-avaylash naqadar muhim ekanini yana va yana qalbimizdan, yuragimizdan o'tkazamiz, desam, o'ylaymanki, haqiqatni aytgan bo'laman.

Aziz do'stlarim, birodarlarim!

Biz 2010-yil mobaynida qanday yutuq va marralarga erishgan bo'lmaylik, albatta, ularni qiyinchiliksiz, osonlik bilan qo'lga kiritganimiz yo'q.

Shu ma'noda, qaysi sohani olmaylik, bu qishloq xo'jaligi bo'ladimi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar bo'ladimi, o'tgan yil davomida qancha-qancha mashaqqatli sinov va muammolarni yengib o'tishga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim. Lekin boshimizdan o'tkazgan bunday sinov va qiyinchiliklarga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramasdan, o'z nihoyasiga yetayotgan 2010-yil el-yurtimiz, Vatanimiz uchun har jihatdan mazmunli, barakali va omadli bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.

Buning yaqqol tasdig'ini, avvalo, O'zbekistonimizning dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqt-

sodiyotning barqaror o'sish sur'atlariga erishib kelayotganida ko'rish mumkin.

Ayniqsa, yakunlanayotgan yilda g'alla, paxta va boshqa qishloq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha mamlakatimizda mo'l hosil yetishtirilgani, iqtisodiyotimizning o'sish sur'atlari 108,5 foizni tashkil etib, davlat budgeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foizga oshirib bajarilgani bu fikrning yorqin dalilidir.

Eng muhimi, o'tgan yilda aholining real daromadlari 23,5 foizga, ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori 32 foizga ko'paygani xalqimizning farovonligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

2010-yil — Barkamol avlod yilida amalga oshirgan keng ko'lamli tadbirlarimiz farzandlarimiz, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning zamon talab qilayotgan darajada bilim olishi, intellektual salohiyatini oshirishi, tajriba topishi va hayotga hal qiluvchi kuch bo'lib kirib borishi, bir so'z bilan aytganda, kelajagimiz mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lishi yo'lida yangi bir qadam bo'ldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga yetish bo'yicha mamlakatimiz qanday yuksak natijalarga erishgan bo'lsa, hech shubhasiz, millati, tili, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, O'zbekistonimizni yagona Vatan deb, o'zini ayamasdan xizmat qilayotgan

har bir inson — qaysi sohada, qaysi vazifani bajarmasin — bu yutuqlarda mening ham hissam bor, deb boshini baland ko'tarib yurishga, albatta, haqlidir.

Bugun mana shunday shukuhli ayyomda zahmatkash dehqonlarimiz, mehnatchi va ziyolilarimizga, olim va shifokorlar, jonkuyar o'qituvchi va murabbiylarimizga, jasur va mard harbiyalarimizga — mammakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mehnati singgan barcha-barcha yurdoshlarimizga samimiy hurmatim va chuqur minnatdorchiligidagi bildirishni o'zimning burchim deb bilaman.

Muhtaram do'stlar!

Bugun eski yil bilan xayrlashar ekanmiz, bar-chamiz «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nom olgan yangi — 2011-yilni qut-barakali, omadli va fayzli, yurtimizni har tomonlama rivojlan-tirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizni yuksak pog'onaga ko'tarishda yangi bir bosqich bo'ladi, deb katta orzu-umidlar bilan kutib olishimiz tabiiydir.

Yangi yilda iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini saqlagan holda, salohiyatimizni yanada mustahkamlash hisobidan xalqimizning hayot darajasi va sifatini uzlusiz yuksaltirishga qaratilgan siyosatni davom ettirib, aholimizning daromadlarini oshirish, ish haqi, pensiya, sti pendiya va ijtimoiy

nafaqalar miqdorini 25 foiz ko‘paytirish ko‘zda tutilmoqda.

Shu borada sog‘lijni saqlash, ta’lim-tarbiya va boshqa sohalarga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmini sezilarli darajada oshirib, davlat budgeti umumiy xarajatlarining qariyb 60 foizini aynan ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga ajratish belgilangani el-yurtimizning bayramoldi kayfiyatini yanada ko‘taradi, deb o‘layman.

Bunday rejalar hammamizni quvontiradi, al-batta, lekin bu marralarni qo‘lga kiritishning asosiy shartlari haqida alohida aytib o‘tishni o‘rinli deb bilaman.

Nafaqat 2011-yildagi, balki uzoq va davomli orzuniyatlarimizni amalga oshirishning yakka-yu yagona sharti, bu — jamiyatimizni yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etish bo‘yicha mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab amalga oshirayotgan, uzoqni ko‘zlagan islohotlar siyosatini hech ikkilansmasdan, qat’iyat bilan davom ettirishdan iborat, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Kelgusi yilda men barchamizning eng muhim burchimizni shu borada amalga oshirayotgan ishlarimizning samarasini yanada oshirish uchun har qaysimiz o‘z joyimizda bir yoqadan bosh chiqarib,

astoydil mehnat qilishda deb bilaman va siz azizlarning barchangizni shunga da'vat etaman.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Sizlarni bag'rimga bosib, kirib kelayotgan yangi — 2011-yil bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Yangi yilda barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman!

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARINING 19 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIKA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va general-lar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Sizlarni va o'z hayatini ona Vatanni himoya qilish-dek muqaddas va olижаноб ishga bag'ishlagan barcha yurtdoshlarimizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana — Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 19 yilligi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etish menga katta mammuniyat bag'ishlaydi.

Bu yil xalqimiz barchamiz uchun eng ulug', eng aziz bo'lgan shonli sana — O'zbekiston Mustaqilli-gining 20 yillik bayramini keng nishonlaydi.

Ana shu yillar davomida bosib o'tgan murakkab yo'limizga nazar tashlar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida amalga oshirgan, o'zining ko'lami va mohiyatiga ko'ra g'oyat ulkan va noyob, tom ma'noda tarixiy ishlarimiz natijasida bugungi kunda O'zbekiston zamonaviy, ixcham va harakatchan, yaxshi tayyorlangan, mamlakatimiz xavfsizligi, hududiy

jaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilish bo'yicha taktik va strategik vazifalarni samarali hal etishga qodir o'z milliy armiyasiga ega bo'ldi, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

Yurtimizda qabul qilingan Mudofaa doktrinasni va armiyani isloh etish va modernizatsiya qilish hamda uning eski yondashuv va qoli plardan prinsi pial jihatdan ajralib turadigan qurilish tizimi bo'yicha chuqur o'ylangan, uzoq muddatga mo'ljallangan kompleks dasturni bosqichma-bosqich amalga oshirish asosida mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini boshqarishning zamonaviy talablarga va mintaqamizda yuz berishi mumkin bo'lgan harbiy harakatlar teatri talablariga javob beradigan yangi tizimi yaratildi.

Qo'shirlarning tuzilishi va jangovar tarkibi, tashkiliy-shtat qurilishi tubdan o'zgardi.

Bugungi zamonaviy sharoitda boshqarish nuqtayi nazaridan noqulay, samarasiz bo'lgan qo'shilmlarning, ko'p pog'onali boshqaruv tizimining tugatilishi armiyamiz qiyofasini butunlay o'zgartirdi. Qurolli Kuchlarimizning qudrati, jangovar salohiyati, harbiy qism va bo'linmalarning harakatchanligi, tez va shiddatli tarzda kechadigan mahalliy operatsiyalarni olib borishga tayyorgarligi, mamlakatimiz chegaralari daxlsizligiga raxna solishga, uning

hududiga suqilib kirishga urinadigan har qanday tajovuzkor bosqinchiga zarba berish qobiliyati yuqori darajada oshdi.

Ofitser va serjant kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy talablarga javob beradigan samarali tizimi yaratildi. Bu tizim harbiy xizmatchilarga o‘z professional, nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish, harbiy-jangovar faoliyatning tajriba va malakasini egallash uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarni tayyorlash tizimi tubdan o‘zgarmoqda. Ushbu bilim yurtlarida bo‘lg‘usi ofitserlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlari zamonaviy fikrlaydigan, o‘z xalqi, o‘z Vataniga sadoqatli ofitser kadrlarni shakllantirishni ta’mindaydigan mutlaqo yangi o‘quv-texnik va ma’naviy-axloqiy asosda yo‘lga qo‘yilganini ta’kidlash lozim.

Hozirgi vaqtida qo‘sishnlardagi harbiy xizmatchilarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i o‘quv mashg‘ulotlarini jangovar vaziyatga mumkin qadar to‘la yaqinlashtirilgan holda olib borish imkonini beradigan zamonaviy trenajor majmualari, modellashtirish va simulatsiya vositalari bilan jihozlangan serjantlar tayyorlash mакtablarida tayyorgarlikdan o‘tgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga egadir. Bunday tizim o‘quv materialini yanada sifatli o‘zlashtirish, birlamchi bo‘g‘in komandir kadrlarining tayyorgarlik

jarayonini o'zgartirish, serjantlar korpusini sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni va harbiy intizomni shakllantirish tayanchiga — Qurolli Kuchlarimizning mustahkam o'zagiga aylantirish imkonini berdi.

Qurolli Kuchlarning qism va bo'linmalarini qurol-yarog' va texnikaning zamonaviy turlari bilan ta'minlash masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda.

Muddatli harbiy xizmatning bir yil etib belgilanishi, safarbarlik-chaqiruv rezerv xizmatining joriy etilishi, chaqiruvning bir yilda bir marta tashkil etilayotgani, qo'shinlarda shartnomaga bo'yicha xizmat qiladigan harbiy xizmatchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'quv-jangovar va tarbiyaviy ishlar tizimini prinsipial jihatdan o'zgartirish, harbiy bo'linmalarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish, jamiyatimizda harbiy xizmatga bo'lgan ishonch va hurmat tuyg'usini kuchaytirish, bir so'z bilan aytganda, armiyamizning jangovar tayyorgarligini butunlay oshirishga olib kelmoqda.

Harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish sohasida aniq maqsadga qaratilgan katta ishlar olib borilmoqda. Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi harbiy xizmatchilar hayotining moddiy-maishiy sharoitlarini sezilarli da-

rajada yaxshilash imkonini bermoqda. Faqat keyingi besh yilda harbiy unvonlar bo'yicha beriladigan oylik maoshlar, harbiy xizmatdan bo'shabganda to'lanadigan yordam puli sakkiz martadan ko'proq oshirildi. Muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan shaxslarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralar, jumladan, oliy o'quv yurtlariga kirishda ularga davlat tomonidan imtiyozlar belgilab qo'yilgani, ishga joylashishda amaliy yordam ko'rsatilayotgani mamlakatimiz Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmatning nufuzi va obro'sining yanada yuksalishida muhim omil bo'lmoqda.

Bugun o'tgan davr mobaynida harbiy va mudofaa qurilishi, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash sohasida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, Vatanimiz sarhadlarining mudofaasi va himoyasi, xalqimizning tinch mehnati va osoyishtaligini ta'minlash ishonchli qo'llarda, deb to'liq asos bilan aytu olamiz.

Qadrli do'stlar!

Bizning eng muhim vazifamiz — har jihatdan zamonaviy, harakatchan, yaxshi qurollangan, zamонави́й, harakatchan, yaxshi qurollangan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan armiyani shakllantirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish, uning tizimli va kompleks modernizatsiya qilinishini ta'minlashdan, qisqacha aytganda, xalqimiz munosib va haqli ravishda

faxrlana oladigan Qurolli Kuchlarni yaratishdan iboratdir.

Afg'onistondagi vaziyatning tobora murakkablasib borayotgani, narkotrafik, xalqaro terrorizm, ekstremizm keng tus olayotgani, bizga chegaradosh ba'zi mamlakatlarda yuzaga kelgan beqarorlik, shuningdek, mintaqamizda boshqa tahdid va xavfxatarlarning saqlanib qolayotgani bizdan Qurolli Kuchlarimizning harbiy tayyorgarligi va jangovar qobiliyatini muttasil oshirish, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, uning davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlash borasidagi choralarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bularning barchasi bizdan doimo hushyor va ogoh bo'lish, yaqin atrofimizda ig'vo qo'zg'atib, keskinlik va qaramaqshilik o'choqlarini keltirib chiqarishga qaratilgan har qanday urinishlarni bartaraf etishga tayyor turishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi vazifalarni amalga oshirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi. Mintaqamizdagи zamonaviy tahidilar va xavfsizlikka qarshi qaratilgan xatarlarni tizimli va chuqur tahlil qilib borish, ularning o'rta va uzoq kelajakda olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini inobatga olgan holda, yuz berish ehtimoli bo'lgan harbiy harakatlar teatrini kuzatish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib borishimiz zarur.

Allaqachon o‘z umrini o‘tab bo‘lgan bir qolip-dagi yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligiga raxna soladigan har qanday xatti-harakatlarga qarshi Qurolli Kuchlarimizning munosib va samarali zarba berish imkoniyati va tayyorgarligini tanqidiy baholab borishimiz darkor.

Ikkinci. Barcha qo‘sishin turlarini boshqarish va o‘zaro uzviy muvofiqlashtirishning samaradorligini yanada oshirish, qism va bo‘linmalarining strategik, operativ va taktik nuqtayi nazardan aniq va bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishiga erishish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta’minalash, mamlakatimiz chegaralarini buzib, yurtimizga bostirib kirishga qaratilgan har qanday yovuz urinishlarga zarba berish va ularni bartaraf etishga doimo tayyor turish lozim.

Bu borada Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi, harbiy okruglarning qo‘mondonlik va shtablari oldida g‘oyat mas’uliyatli vazifalar turibdi. Ushbu tuzilmalar hozirgi sharoitlarda har qanday xavfning chorasini oldindan ko‘rishga va uzoqni ko‘zlab ish olib borishga tayyor bo‘lib turgan holda, mamlakatimiz mudofaa tizimidagi zaif nuqtalarni o‘z vaqtida aniqlab, ularning bartaraf etilishini ta’minalash uchun qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarida ayni shun-

day tayyorgarliklar ustida ishlashni maqsad qilib qo'yishi zarur.

Bugungi kunda hayotning o'zi Qurolli Kuchlarni boshqarish, rejalashtirish va qo'llash tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariidan keng foydalanish, boshqaruvning informatsion vositalari va harbiy aloqa tizimlarini uyg'unlashtirishni, Qurolli Kuchlarimiz axborot-kommunikatsiyalarining raqamli yagona tarmog'ini yaratishni taqozo etmoqda.

Uchinchi. Barcha darajadagi qo'shin turlarining hamkorligini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida qo'mondonlik-shtab, tezkor-taktik, taktik-maxsus o'quv mashqlari va mashg'ulotlarini o'tkazish, individual va guruh shaklidagi jangovar tayyorgarlikning butun tizimini qayta ko'rib chiqish eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Hamkorlikdagi operatsiyalarga jalb etiladigan chegara qo'shnulari, Mudofaa vazirligining harbiy qismlari, vertolyot-hujum bo'linmalari va maxsus operatsiyalarni amalga oshiradigan kuchlar, boshqa jalb qilinadigan qo'shin turlari hamkorligida turli model hamda variantlarni amalda qo'llash barcha o'quv mashg'ulotlarining muhim tarkibiy qismiga aylanishi shart. Shu borada harbiy okruglar qo'mondonliklarining turli xavf-xatar va tahdidlarga qarshi tezkor zarba berish bo'yicha vazifalarni hal

qilishda belgilangan operatsion yo‘nalishlar doirasida amalda mustaqil va o‘zini o‘zi boshqarishga qodir bo‘lishiga erishish lozim.

To‘rtinchi. Qurolli Kuchlarimizning harakatchanligi, o‘zini o‘zi boshqarishi, yuksak jangovar tayyor-garlikka ega bo‘lishiga erishishda harbiy qism va bo‘linmalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika, aloqa va individual himoya vositalari bilan qayta jihozlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini nazarda tutgan holda, havo huju-midan mudofaa vositalari va vertolyot texnikasi, bronetank qurol-yarog‘lari, artilleriya tizimlari, zenit raketalari komplekslari, zalpli o‘t ochishning reaktiv tizimlari, yuksak darajada aniq nishonga oladigan zamonaviy qurollar, individual va guruh shaklida, shu jumladan, radioaktiv nurlanish hamda kimyoviy va biologik qurollardan himoyalanishning maxsus vosita va texnikalarini modernizatsiya qilish va ularning zamonaviy namunalarini sotib olish masalasiga alo-hida e’tibor qaratish darkor.

Beshinchi. Qurolli Kuchlarimizni isloh etishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri — ofitser va serjant kadrlarni tayyorlaydigan, qayta tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, intellektual jihat-dan yuksak, analistik va strategik fikrlash qobiliyatiga,

jangovar harakatlarni mohirlik bilan rejalashtirish salohiyatiga ega, qo'l ostidagi bo'linmalarni samarali boshqarish, ularda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni qaror toptirishga qodir bo'lgan professional harbiylarni shakllantirishni ta'minlaydigan uzlusiz tizimni yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Qurolli Kuchlar qo'mondonligi harbiy ta'lim muassasalari, serjantlar tayyorlash maktablarini eng zamonaviy ta'lim jihozlari, jumladan, modellashtirish va simulatsiya vositalari, kompyuter texnikasi, harbiy poligon asbob-uskunalarini bilan ta'minlash masalasiga bundan buyon ham asosiy e'tiborni qaratishi lozim. O'quv jarayonini tashkil etishda harbiy sohani rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini, muayyan hudud doirasida tez va shiddatli tarzda kechadigan operatsiyalar va jangovar harakatlar olib borish bo'yicha bugungi tajribalarni aks ettiradigan fan va ixtisosliklarni o'zida mujassam etgan zamonaviy ta'lim dasturlariga asoslanish zarur. Kursantlarni nazarliy jihatdan tayyorlash ularning qo'shinlar safidagi amaliy tayyorgarligi bilan uzviy ravishda to'ldirilishi, kundalik jangovar xizmat faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi kerak.

Bularning barchasi harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchi va instruktorlari tarkibi oldiga alohida yuksak talablar qo'yadi. Ular yuqori darajadagi professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi,

zamonaviy o'quv-tarbiya ishlarining shakl va usullarini puxta egallagan holda, o'zining pedagogik va harbiy-professional malakasini doimo oshirib, xorijiy armiyalarning ilg'or tajribalarini o'zlashtirib borishi darkor. Muxtasar aytganda, ular o'z xizmat burchini yuqori darajada ado etish, tartib-intizomga qat'iy rioya qilish, yuksak madaniyat va axloq borasida ibrat va namuna ko'rsatishlari lozim.

Yuqorida zikr etilgan masalalarni hal etishda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi oldida katta vazifalar turibdi. Yaqinda uni tubdan qayta tashkil etish jarayonida oliy qo'mondonlik tarkibidagi ofitserlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, mudofaa qurilishi sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqot va ishlanmalarni muvofiqlash-tirish, mamlakatimizda harbiy ta'limni rivojlantirish mas'uliyati aynan shu akademiyaga yuklangani ham buning yaqqol dalilidir.

Harbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda yetakchi xorijiy davlatlar, jumladan, NATOga a'zo mamlakatlarning ofitser va serjantlar tayyorlash tajribasidan kengroq foydalanish zarur.

Oltinchi. Mudofaa qurilishi sohasidagi islohot-larning muvaffaqiyati shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, armiyaning qudrati faqatgina uning jangovar tayyorgarligi,

harakatchanligi, eng yangi qurol-yarog'lar bilan ta'minlangani bilan emas, balki Qurolli Kuchlari-miz saflari professional tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsiy tarkib bilan qay darajada to'ldirilgani, ofitser, serjant va askarlarning ma'naviy, axloqiy-ruhiy fazilatlari, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodi, ona-Vatan taqdiri uchun mas'-uliyat hissining naqadar yuksak ekani bilan belgilanadi.

Bu maqsadlarga erishish uchun eng zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariдан, jumladan, yetakchi jamoat tashkilotlari, olimlar, mutaxassislar, madaniyat va san'at namoyandalarining kuch va imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ehtiyojlariga javob beradigan zamonaviy harbiy shaharchalar barpo etish, harbiy okruglar miqyosida integratsiyalashgan qo'shinlarorti ta'minotini yo'lga qo'yish, ijtimoiy, uy-joy, maishiy, tibbiy ta'minot tizimlarini yaratish yuzasidan qabul qilingan davlat dasturlarini amalga oshirish vazifalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak.

Bu vazifalarning o'ta muhim ahamiyati shundaki, avvalambor, **bugungi sharoitda faqat puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan, har tomonlama yaxshi**

ta'minlangan va ijtimoiy himoyalangan Qurolli Kuchlarga xavfsizlik va barqarorlikning, sarhadlarimiz daxlsizligi va mamlakatimiz hududiy yaxlitligining, pirovard natijada el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligining, osuda hayotimizning mustahkam va ishonchli kafolati bo'la oladi.

Aziz vatandoshlar!

Mana shu qutlug' ayyomda sizlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 19 yilligi bilan yana bir bor tabriklar ekanman, barcha harbiy xizmatchilarga — askar va serjantlar, ofitser va generallarga — bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz saflarida mas'uliyatli xizmat vazifasini o'tayotgan yurtimizning mard va jasur o'g'lonlariga, Vatanimizni himoya qilishdek oliyjanob burchini munosib ado etayotgan barcha insonlarga samimiy minnatdorlik so'zlarini izhor etishdan baxtiyorman.

Barchangizga yangi 2011-yilda mustahkam sog'-liq, baxt va omad tilayman!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni*

BARCHA REJA VA DASTURLARIMIZ VATANIMIZ TARAQQIYOTINI YUKSALTIRISH, XALQIMIZ FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

Hurmatli majlis ishtirokchilar!

Bu yil barchamiz ona-yurtimiz, O'zbekistonimizning yangi tarixidagi eng buyuk va qutlug' sanalardan biri — Vatanimiz mustaqilligining 20-yillik shonli bayramini keng nishonlaymiz. Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni atroflichcha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq-ravshan belgilab olishni talab etadi.

Ayni shu holatni hisobga olgan holda, biz Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisida ko'rib chiqiladigan asosiy vazifaning ijrosiga yanada katta mas'uliyat bilan yondashmog'imiz kerak. Ya'ni, 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini tanqidiy baholashimiz va shu asosda 2011-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishimiz darkor.

Bu borada, avvalambor, mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ijobiy ko'rsatkichlar va noxush tendensiyalarni nafaqat qayd etish, balki iqtisodiyotimizning rivojini belgilab beradigan sabab va omillarni chuqur va xolisona tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu haqda gapirganda, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga qanday salbiy ta'sir ko'rsatgani va ko'rsatayotgani xususida bugun to'xtalib o'tirishga hojat yo'q, deb o'layman.

Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama va chuqur o'ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozoridagi keskin o'zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Dunyodagi taraqqiy topgan 20 ta davlat ishtirokida tashkil etilgan, «Katta yigirmalik» deb nom olgan guruh doirasida qabul qilinayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanayotgani yo'q.

Inqiroz yillarida ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishga majbur bo'ldi. Bu, o'z navbatida, bir qator davatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat budgeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutano-siblikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda bozorni pul resurslari bilan zo'r berib to'ldirish davom etayotgani fond va xomashyo bozorlarida sun'iy ravishda oshirib borilgan spekulativ narxlarning yanada ko'tarilib ketishiga, ta'bir joiz bo'lsa, moliyaviy ko'piklarning battar avj olishiga, inflatsiyaning jilovlab bo'lmas darajada o'sish xavfining kuchayishiga olib kelmoqda.

Jahon miqyosida konvertatsiya qilinadigan asosiy valutalarning beqarorligi jiddiy xavotir uyg'otmasdan qolmaydi. Bu, birinchi navbatda, rivojlanayotgan mamlakatlarning ushbu valutalarga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazmoqda.

Qadrli do'stlar!

Biz bugun 2010-yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etishimiz zarur. Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008-yilda 9 foiz, 2009-yilda 8,1 foiz, 2010-yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'r-satkichlardan biri ekani, albatta, barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Keyingi o'n yilda, ya'ni 2000-yilga nisbatan taqoslaganda, 2010-yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

Xarid imkoniyatlari mutanosibligini hisobga olgan holda sanaganda, yalpi ichki mahsulotning 2010-yilda 2000-yilga nisbatan o'sishi 2,6 karrani tashkil qildi.

O'z-o'zidan ravshanki, bularning barchasi iqtisodiyotimizning yuqori sur'atlari bilan barqaror o'sib borayotgani va mamlakatimizda ro'y berayotgan ulkan ijobjiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizda 2010-yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o'tgan yilda inflatsiya darajasi 2009-yildagi

7,4 foiz o'rniga 7,3 foizni tashkil qildi. Bu, avvalambor qat'iy, shu bilan birga, puxta o'yangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir.

Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish, ko'p jihatdan, iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq. Jumladan, 2010-yilda yuridik shaxslar uchun daromad solig'i 9 foizgacha, mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona to'lov 7 foizgacha tushirilgani buning amaliy tasdig'idir. Shu borada o'tgan yili Davlat budgeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirib, ya'ni 0,3 foiz profitsit bilan bajarilganini ta'kidlash zarur.

2010-yilda tashqi savdo va to'lov balanslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiy hajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobiy saldosи esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valuta zaxirasi ham shunga muvofiq ravishda ko'paydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Hammamiz yaxshi bilamizki, bizga sobiq sovet tizimidan bir tomonlama rivojlangan, faqat xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, puxta yakkahokimligi

halokatli darajada avjiga chiqqan, ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi o'ta qoloq, aholi jon boshiga iste'mol ko'rsatkichi eng past bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi.

Shuni e'tiborga oladigan bo'lsak, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish vazifasini hal etish qanchalik muhim strategik ahamiyatga ega ekani haqida ortiqcha gapirishga bugun zarurat yo'q, deb o'layman.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan ijobiyligi o'zgarishlarni yaqqol tasavvur qilish uchun quyidagi raqamlarni keltirib o'tmoqchiman.

Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligining ulushi esa 30,1 foizdan 17,5 foizga tushdi.

Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki, qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayib borayotgan bir sharoitda ushbu sohada mahsulot yetishtirish yuqori sur'atlar bilan ko'-paymoqda.

2010-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2009-yilga nisbatan 6,8 foizga, 2000-yilga

nisbatan esa 1,8 barobar oshgani ham shundan dalolat beradi.

Bizning bu boradagi eng katta yutug‘imiz yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko‘paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo‘lmoqda.

2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2010-yilda bu ko‘rsatkich 52,5 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratishni istardim.

2010-yilda sanoat ishlab chiqarish tarkibida yuqori qo‘sishimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotning ulushi 50 foizdan ziyodni tashkil etdi.

Mamlakatimiz sanoat korxonalarini tomonidan o‘tgan yili 160 dan ortiq turdagি yangi tovar va mahsulotlar, jumladan, mutlaqo yangi texnologik platforma negizida «Spark» yengil avtomobilini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» avtomobillarini, energiya tejaydigan lampalar, «LG» rusumidagi jahonga mashhur xoldilniklarni yig‘ish, kaliy o‘g‘itlari va boshqa mu-

him mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborildi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2010-yilda 1 ming 76 ta loyiha amalga oshirildi. Mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshdi, import o'rnini bosish bo'yicha yakuniy samaradorlik 3 milliard 400 million dollarni tashkil qildi va bu 2009-yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p demakdir.

Korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari mustahkamlanmoqda, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes subyektlari tobora keng jalb qilinmoqda.

2010-yilda o'tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsion birjada dunyoning 51 mamlakatidan 700 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya vakillari qatnashdi, 500 dan ortiq yangi turdag'i mahsulot namoyish etildi, qiymati 2 trillion 600 milliard so'mlik shartnomalar imzolandi.

Bu raqam oldingi yarmarkadagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 marta ko'pdir. Yarmarkada umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarlik eksport bitimlari tuzildi va bu 2009-yil darajasidan 1,2 barobar ortiqdir.

O'tgan yili mamlakatimiz moliya-bank tizimi likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

2010-yilda tijorat banklarining jami kapitali 36 foizga ortdi va banklarimiz erishgan 23 foiz miqdoridagi kapitalning yetarlilik darajasi dunyoda qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 barobardan ko'pdir. Faqat o'tgan yilning o'zida depozitlar hajmi 1,5 barobardan ziyod oshdi.

Bugungi kunda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki «Fitch Reytinqs», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining «barqaror» degan reyting darajasiga egadir.

Banklarning kredit va investitsiya faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2010-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 35 foizga ko'paydi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, 2010-yilning oxiridagi holat bo'yicha ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi yalpi ulushi 85,1 foizni tashkil etdi.

Tashqi qarzlar, asosan, uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalg qilindi.

Banklarning kredit portfeli tarkibida ham sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Umumiy kredit portfelia uzoq muddatli, ya'ni 3 yildan ortiq muddatga beriladigan investitsiya kreditlarining ulushi 2000-

yilning oxiridagi 35 foizdan 2010-yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi.

O'tgan yil davomida kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 1,4 barobar ko'paydi va 2 trillion 700 milliard so'mni tashkil etdi. Jumladan, mikrokreditlar hajmi 485 milliard so'mdan ortib, bu ko'rsatkich 2009-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'paydi.

To'lanmay qolgan qarzlari tufayli banklarning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi tijorat banklarining faoliyati yuksak baholashga molikdir.

Biz joriy etgan bunday mexanizm bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinalarini qayta tiklash va yangi ish o'rinalarini yaratishni ko'zda tutadi.

Shu tariqa faoliyat ko'rsatishga layoqatli, ilgarigiga qaraganda texnologik jihatdan ancha yuqori darajada ishlaydigan, faoliyati qayta tiklangan korxonalar yangi investorlar e'tiborini tobora ko'proq o'ziga tortmoqda. Investorlar hozirgi paytda

bunday korxonalarni banklardan faol sotib olmoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga berilgan 147 ta bankrot korxonaning 140 tasida ishlab chiqarish qayta tiklangani, ularning 64 tasi yangi investorlarga sotilgani bu fikrning yorqin dalilidir. Qayd etish kerakki, banklar tomonidan bu korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash uchun 156 milliard soʻm miqdorida investitsiya yoʻnaltildi, 21 mingdan koʻproq ish oʻrni tashkil qildi.

Bu boradagi ishlarimizning ahamiyatini tasavvur etish uchun ana shu qayta tiklangan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi 460 milliard soʻmni tashkil etib, umumiy qiymati 165 million dollardan ortiq boʻlgan turli mahsulotlar eksport qilinganini aytish kifoya, deb oʻyayman.

Bunday yondashuv kelgusida ham banklarning balansiga oʻtkazilgan bankrot korxonalarni qayta tiklash ishlarida eng muhim yoʻnalish boʼlib qolishi zarur. Bugungi majlisda qatnashayotgan tijorat banklarining rahbarlari eʼtiborini aynan shu masalaga qaratmoqchiman.

Qishloq xoʼjaligini isloh qilish, fermer xoʼjaliklariga biriktirilgan yer uchastkalarini optimallashtirish, paxta va gʼallaning xarid narxlarini oshirish boʼyicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida

iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda.

Paxta va g‘alla kabi strategik muhim qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ham ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o‘sdi, qayta ishlash tarmoqlari va ichki bozorni sut, go‘sht, kartoshka, sabzavot kabi eng muhim oziq-ovqat hamda boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan yanada ko‘proq to‘ldirish uchun mustahkam xomashyo bazasi yaratilmoqda.

Maxsus ishlab chiqilgan keng ko‘lamli dasturni izchil amalga oshirish hisobidan yerlarning meliorativ holati muttasil yaxshilanmoqda. Faqat 2010-yilning o‘zida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi va bu 724 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ quduqlarni barpo etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kilometrlik kollektor-drenaj tizimini ta’mirlash, qayta tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini berdi.

Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, shuningdek, Markaziy Farg‘ona hududi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida irrigatsiya hamda melioratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun 2010-yilda xalqaro moliya institut-

larining 62 million dollardan ziyod mablag‘lari jalb qilindi va o‘zlashtirildi.

Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming hektar sug‘oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini, fermer hamda dehqon xo‘jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tgan yili xizmat ko‘rsatish va servis sohasida 13,4 foiz o‘sishga erishildi, so‘nggi o‘n yilda esa aholiga ko‘rsatilgan pullik xizmatlar hajmi, kishi boshiga hisoblaganda, qariyb 20 barobar oshdi. Biz bu borada mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televideniye, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug‘urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz.

Bugungi kunda yurtimiz mobil aloqaning rivojlanish ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinda turgan o‘nta mamlakat qatoriga kiradi. O‘zbekistonda mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilarning umumiyligi soni 2000-yilga nisbatan — shunga e’tibor beringlar — 200 barobar oshib, 19 milliondan ortiq abonentni tashkil etmoqda. Agar o‘n yil avval mamlakatimiz aholisining har ming nafariga 4 donadan kam mobil telefon to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 600 donadan oshib ketdi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz sobiq Ittifoq hududida birinchilardan bo'lib raqamli va keng formatli televideniyega to'liq o'tish bo'yicha katta miqyosdagi dasturni amalga oshirishni boshladi va bu jarayon 2015-yilda nihoyasiga yetkaziladi.

Aholining Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati kengayib borayotganini albatta ijobiy baholash lozim. 2010-yilda Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 1,6 barobar ko'paydi va 7,4 million kishidan oshdi.

Ayni vaqtida Internet xizmatini ko'rsatish tariflarini bosqichma-bosqich kamaytirib borish hisobidan undan foydalanuvchilar uchun sharoitlar tobora yaxshilanmoqda. Xususan, 2010-yilda bu boradagi tariflar 20 foizga pasaytirilganini alohida qayd etish kerak.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Mamlakatimizda 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'mi 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar

ulushi 28,8 foizni, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.

Barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmi 3 milliard 600 million dollardan oshgani yoki 2010-yildagi barcha kapital qo‘yilmalarning 37,5 foizini tashkil etgani prinsipial muhim ahamiyatga egadir.

Muxtasar aytganda, Investitsiya dasturi doirasida 2010-yilda 200 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Jumladan, yiliga 50 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan «M-300» rusumidagi yengil avtomobil ishlab chiqarishni o‘zlashtirish», 200 ming tonna kaliy o‘g‘itlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan «Dehqonobod kaliy o‘g‘itlari zavodi qurilishi», «Xonjiza konida polimetall rudalarga ishlov berish» kabi yirik loyihalar, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Navoiyazot» kompaniyasining bir qator yangi obyektlarini barpo etish ishlari va boshqa loyihalar nihoyasiga yetka-zilganini ta’kidlash joiz.

2010-yilda «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasni hududida xorijiy investorlar bilan erishilgan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Ana shu loyihalar doirasida ja-hon bozorida xaridorgir bo‘lgan zamонави mah-

sulot ishlab chiqaradigan 7 ta korxona foydalanishga topshirildi.

Transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar investitsiyalar umumiy hajmida muhim o'rin egalladi. O'tgan yilning o'zida faqat avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 378 million dollarga teng bo'lган mablag' o'zlashtirildi va bu 2009-yilga qaraganda 31,5 foiz ko'p demakdir. Shuning hisobidan mamlakatimizda 270 kilometrlik zamonaviy avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston milliy avtomagistrali loyihasi tarkibiga kiradigan sement-beton qoplamali 222 kilometrlik avtomobil yo'lini qurish va rekonstruksiya qilish uchun Osiyo taraqqiyot banki bilan 600 million dollar miqdorida kredit mablag'larini jalgilish to'g'risida shartnoma imzolandi.

2010-yilda xalqaro transport logistika markazlari ni rivojlantirishga doir ishlar davom ettirildi. Navoiy shahridagi aeroportda foydalanishga topshirilgan «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazining yuk terminali orqali 50,1 ming tonna yoki 2009-yilga qaraganda 3 barobar ko'p yuk tashildi. Angren shahridagi Xalqaro logistika markazi tomonidan 4 million tonnadan ortiq yuk tashish amalga oshirildi, mamlakatimiz mintaqalari va Farg'ona vodiysi

viloyatlari o'rtasida yil davomida uzlusiz avtotransport qatnovi ta'minlandi.

Havo transporti va temiryo'l parklarini yangilash ishlari davom ettirilmoqda. O'tgan yili «Eyrbas industri» kompaniyasining 6 ta A-320-200 rusumli samolyoti, 8 ta zamonaviy elektrovoz sotib olindi, 1 ming 790 ta yuk tashiydigan va 38 ta yo'lovchi tashiydigan vagonlar qurildi, ta'mirlandi va modernizatsiya qilindi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Tiklanish va taraqqiyot fondining strategik muhim loyihalarni mustaqil ravishda hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda moliyalash-tirish borasidagi roli ortib bormoqda. 2010-yilda ushbu fondning qariyb 330 million dollar miqdoridagi mablag'i o'zlashtirildi va bu 2009-yilga nisbatan 25,6 foizga ko'pdir.

O'tgan davrda Fond mablag'lari hisobidan 14 ta yirik investitsiya loyihasi moliyalashtirildi. O'zbekiston — Ummon qo'shma investitsiya kompaniyasi ishtirokida to'qimachilik, telekommunikatsiya tarmoqlari va moliya sektorida umumiy qiymati qariyb 80 million dollarlik 3 ta investitsiya loyihasini moliyalashtirish ishlari boshlandi.

Tiklanish va taraqqiyot fondining tarkibiy o'zgarishlardagi roli ortib borayotganini hisobga olib, 2014-yilgacha uning nizom jamg'armasini ikki

barobar, ya’ni 5 milliard dollardan 10 milliard dollarga bosqichma-bosqich ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

2010-yilda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash, shuningdek, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish yakuniga yetkazildi.

Umuman olganda, 2005 — 2010-yillar davomida 7 ming 800 dan ortiq umumta’lim muassasasi, qariyb 1 ming 500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi va rekonstruksiya qilindi. Faqat 2010-yilda maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylarda 2 ming 300 tadan ziyod kompyuter texnikasi va multimedia uskunasi o‘rnatildi.

Unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash va bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirish bo‘yicha ishlar izchil davom ettirildi. Buning natijasida faqat 2010-yilning o‘zida 72 ta sport inshooti, 27 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, umumiyligi qiymati 3 million AQSH dollariga teng bo‘lgan sport inventarlari va uskunalar joylarga yetkazib berildi.

Bugungi kunda umumta’lim maktablari o‘quvchilarining har uch nafaridan biri turli seksiya va to‘garaklarda sport bilan muntazam shug‘ullanmoqda.

O‘tgan yilda farzandlarimizning ijodiy qobiliyati va ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqa va san’at mакtablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan dasturni amalga oshirish boshlandi. Agar 2009-yilda oltita musiqa va san’at mакtabi qurilgan va rekonstruksiya qilingan bo‘lsa, hisobot yilida 46 ta ana shunday mакtab foydalanishga topshirildi. Ularning qurilishiga 51 milliard so‘mdan ortiq kapital mablag‘ yo‘naltirildi.

2010-yilda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish va ushbu tizimda sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishni ta’minlash borasidagi ishlar davom ettirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda sifat jihatidan yangi, eng yuksak talablarga javob beradigan va respublika hamda viloyatlar shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish markazlarini o‘z ichiga olgan tibbiyot muassasalari tarmog‘i shakllandi.

Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamонавиy meditsina asbob-uskunalarini bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu qishloq vrachlik punktlarining soni 2000-yilga nisbatan 2 barobar ko‘payib, 3 ming 200 tadan oshdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha yuksak samarali

zamonaviy tibbiyot muassasalarining mustahkam tizimi yaratilgani shu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi.

Barcha viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida skrining markazlari tashkil etildi va ularning faoliyatini ta'minlash uchun 2010-yilning o'zida 4 million dollardan ortiq mablag' yo'naltirildi. 2010-yilda 116 ming nafardan ziyod bo'lajak ona skrining markazlarida tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Shu bilan birga, perinatal markazlar tarmog'i ham jadal rivojlanmoqda. O'tgan o'n yil davomida yurtimizda 11 ta perinatal markaz tashkil etildi. 2010-yilda ularda 158 ming nafardan ortiq, ya'ni 2000-yilga nisbatan 10 barobar ko'p ona va bola tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Buning natijasida keyingi o'n yilda mamlakatimizda onalar o'limi koeffitsiyenti 33,1 promilledan 19,7 promillega, bolalar o'limi koeffitsiyenti esa 18,9 promilledan 10,1 promillega tushdi. Tug'ma va irsiy kasalliklar bilan tug'iladigan bolalar soni qariyb ikki barobar kamaydi.

Shu yillarda aholining yuqumli kasalliklar, jumladan, sil, gepatit kabi og'ir turdag'i va boshqa xastaliklarga chalinishining umumiylar darajasi ancha pasaydi. Bunday natijalarga erishishda shifokorlar va tibbiyot xodimlarining mehnatini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish, ularning kasb tayyorgarligi darajasini oshirish, mamlakatimiz farmatsevtika sa-

noatini jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim omil bo'lmoqda. Birgina 2010-yilning o'zida 32 nomdag'i yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi va bu 2009-yilga qara-ganda 23 foizga ko'pdir.

2010-yilda statsionar tibbiyot muassasalarida qo'shimcha ravishda 1 ming 630 ta yoki 2009-yilga nisbatan qariyb 2,5 marta ko'p davolanish o'rnlari foydalanishga topshirildi.

Hisobot davrida sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish uchun jami 2 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi, buning 1 trillion 700 milliard so'mi budjet mablag'laridir.

O'tgan yili qishloq joylarda biz 2009-yilda boshlagan, qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdagi turarjoy massivlarini kompleks qurish ishlari e'tiborimiz markazida bo'lgani barchamizga ma'lum.

Ayniqsa, yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar loyihibalarining qulaylik nuqtayi nazaridan boshqatdan ko'rib chiqilib, ajratiladigan yer uchastkalari hajmini to'rt sotix o'mniga olti sotix qilib belgilash to'g'risida qabul qilingan qarorlar alohida ahamiyat kasb etdi.

Natijada 2010-yili mamlakatimizning barcha 159 ta qishloq tumanida namunaviy loyihibalar bo'yicha tayyor holda topshirish sharti bilan 6 ming 800 ta uy-joy barpo etildi.

Ushbu maqsadlarga qariyb 430 milliard so‘m miqdoridagi kapital qo‘yilmalar, jumladan, 250 milliard so‘mdan ortiq uzoq muddatli imtiyozli kreditlar yo‘naltirildi. Bu mablag‘ 2009-yilga nisbatan 9 barobar ko‘pdir. Dasturni amalga oshirish boshlanganidan buyon yangi massivlarda qishloq aholisining qulay va munosib yashashi uchun zarur bo‘lgan 165 ta ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyekti barpo etildi.

Ayni paytda yangitdan qurilayotgan turarjoy massivlarda zamonaviy turdag‘i muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari ham jadal bunyod qilinmoqda. 103 kilometrdan ortiq gaz, qariyb 100 kilometrlik suv tarmoqlari, 71 kilometrdan ziyod elektr uzatish liniyalari, shuningdek, umumiy uzunligi 85 kilometr bo‘lgan ichki yo‘llar qurildi.

Ichimlik suvi, elektr va gaz ta’minoti, shuningdek, aholi punktlarining sanitariya ahvolini yaxshilash bo‘yicha yangi kommunal infratuzilma tarmoqlari va obyektlarini qurish, modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish ishlari tizimli asosda olib borilmoqda.

Bugungi kunda biz uchun eng dolzarb muammlardan biri bo‘lmish yurtimizda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minalash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarimiz haqida.

2010-yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilganini katta mamnuniyat

bilan qayd etishimiz lozim. Bu yangi tashkil qilingan umumiy ish o'rinalarining 604 mingdan ziyodi yoki 65 foizi kichik biznes sohasi va fermer xo'jaliklariga, 210 mingdan ortig'i kasanachilik sohasiga to'g'ri keladi.

Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish haqi va umuman pul daromadlari barqaror oshib bormoqda, uning xarid qobiliyati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibining sifati ortmoqda.

Birgina 2010-yilda budjet sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi.

Aholining daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad ulushi tobora salmoqli o'rinnegallamoqda va barcha daromadlarining 47 foizdan ortig'i ushbu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yurtimizda oilalarning sifatli va uzoq muddat foydalananadigan iste'mol tovarlari bilan ta'minlanish darajasi sezilarli ravishda oshdi. Jumladan, bugungi kunda har 100 ta oilaga o'rtacha 132 ta televizor, 99 ta xolodilnik, 18 tadan ziyod konditsioner, 12 ta

shaxsiy kompyuter, 27 tadan ortiq yengil avtomobil to‘g‘ri kelmoqda.

2010-yilda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha qilingan ishlarimizning ulkan mohiyati va ahamiyatini, albatta, qisqacha baholash qiyin.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, Konstitutsiya kuniga ba-
g‘ishlangan tantanali yig‘ilishda ushbu dastur ijrosini
ta’minalash bo‘yicha erishilgan asosiy natijalar haqida
atroflicha fikr yuritilgan edi.

Men bu o‘rinda faqat shuni ta’kidlashni istardim-
ki, mazkur dasturni bajarish uchun barcha moliyaviy
manbalar hisobidan qariyb 8 trillion so‘m va 165
million dollar mablag‘ yo‘naltirildi. Bu esa, o‘z
navbatida, mamlakatimizda har tomonlama munosib
yoshlarni, Vatanimiz kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z
zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, jismoniy va ma’naviy
sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur
barcha shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha aniq maq-
sadga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni
amalga oshirish imkonini tug‘dirdi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

**2011-yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot-
ning o‘sish sur’atlari 108,3 foiz, sanoatdagি
o‘sish — 109,3 foiz, qishloq xo‘jaligida — 105,8 foiz
hajmida bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda.** Inflatsiya darajasi
7—9 foiz atrofida bo‘lishi nazarda tutilmoqda.

Tasdiqlangan davlat budjetida yalpi soliq yukini 1,2 foizga, kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovini esa 2010-yildagi 7 foizdan 2011-yilda 6 foizga tushirish mo'l-jallangan.

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011-yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda.

Bu o'rinda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xomashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlari haqida so'z bormoqda.

Ana shu maqsadlarga erishish uchun «2011 — 2015-yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq

yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga ko'paytirishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda ikki barobardan ziyod o'sishga erishiladi.

To'qimachilik sanoatida eksportbop raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga yo'naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo'lgan yangi, zamonaviy to'qimachilik komplekslarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Bu, o'z navbatida, paxta tolasini o'zimizda qayta ishlash hajmini 2 barobardan ko'proq, kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini 3 barobar, to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksportini 2 barobar oshirishni ta'minlaydi. Yuksak texnologiyalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu loyihalar sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni tashkil qilish, polietilen va polipropilen mahsulotlar, suyultirilgan va siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha yangi, zamonaviy gaz-kimyo kom-

plekslarini barpo etish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida mineral o'g'itlar hamda yangi turdag'i kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish, eskirgan uskunalarini zamonaviy bug'-gaz qurilmalari bilan almashtirish hisobidan energetika tarmog'ini jadal rivojlantirish kabi sohalarni qamrab oladi.

Vazirlar Mahkamasi mazkur dasturga kiritilgan har bir loyiha bo'yicha idoralararo ishchi guruhlarini tasdiqlashi lozim. Bu ishchi guruhlar loyihalarning barcha bosqichlarda amalga oshirilishi va foydalanishga topshirilishini tizimli asosda kuzatib va qat'iy nazorat qilib borishi zarur.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi.

Bu xususda gapirganda, 2011-yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4 foizdan ortig'ini sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirish ko'zda tutilayotgani, zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy kapital qo'yilmalar hajmining kamida 46 foizini tashkil etayotganini qayd etish darkor.

2011-yilda 35 tadan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasini qurishni yakunlash va foydalanishga top-

shirish vazifasi qo'yilmoqda. «Jeneral motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 225 ming dona avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxona, Qo'qon shahrida «Indorama» kompaniyasi bilan hamkorlikda yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo'lgan to'qimachilik kompleksi, shuningdek, umumiy quvvati 30 ming tonna kalava ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan yana bir qator to'qimachilik komplekslari kabi muhim obyektlar shular jumlasidandir.

Shular qatorida Toshkent shahrida ko'p o'rinni «Mersedes-Benz» yo'lovchi avtobuslarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, Muborak gazni qayta ishslash zavodi va «Sho'rtan neft-gaz» unitar korxonasida 400 ming tonna suyultirilgan gaz va gaz kondensati ishlab chiqaradigan qurilmalarni o'rnatish, Olmaliq va Navoiy kombinatlarining korxona va ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlash, Bekobod metallurgiya kombinatini modernizatsiya qilish va boshqa o'ta muhim loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Joriy yilning oxiriga qadar, idoraviy mansubligidan qat'i nazar, barcha yirik korxona va ishlab chiqarish quvvatlarida jahon tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi lozim bo'lgan uskuna va texnologiyalarning ro'yxatini aniqlash uchun texnik audit o'tkazish zarur. Vazirlar

Mahkamasiga ushbu dasturlar bajarilishini nazoratga olish vazifasi topshiriladi. Bunda yangi loyihalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutish darkor.

Ming afsuski, biz modernizatsiya deganda, ko‘pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o‘rganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo‘jaligi kabi yetakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Bu borada, avvalo, yerlarning unumdorligini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, bu yo‘nalishdagi ishlarning ko‘lami yil sayin kengayib borayotganiga qaramasdan, sug‘oriladigan yerlarning mavjud meliorativ holati katta tashvish uyg‘otmoqda.

Hozirgi vaqtida yurtimizda jami sug‘oriladigan yerlarning qariyb 49 foizi turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o‘rta darajada sho‘rlangan yerdadir, 23 foizdan ortig‘i esa boniteti past yerlar toifasiga kiradi. Meliorativ holati qoniqarsiz yerlarning katta qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Farg‘ona viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

Biz yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini bundan buyon ham ko‘paytirib boramiz. Ayni paytda ushbu maqsadlar uchun yo‘naltirilayotgan katta miqdordagi mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni maqsadli ishlatish, zamonaviy texnologiyalar va texnikani joriy etish borasidagi ishlarni ham tartibga solishimiz lozim.

Shuni tan olish kerakki, chorvachilik, g‘al-lachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganish va uni amalda qo‘llashga, bizning iqlim sharoitimizda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan **zamonaviy sug‘orish tizimlari** va **energiyani tejaydigan texnologiyalardan foydalanishga yetarlicha e’tibor berilmayapti.**

Masalan, chorvachilik sohasini oladigan bo‘lsak, bu borada ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlash o‘rinlidir. Taqqoslash uchun quyidagi bir misolni keltiraman: Daniya va Janubiy Koreyada sut sog‘ib olish bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 8 — 9,5 ming kilogrammni, Vengriya, Germaniya, Gollandiyada esa 6 — 7 ming kilogrammni tashkil qilayotgan bir paytda, bizda keyingi besh yilda bu raqam 1,7 ming gramm darajasida saqlanib qolmoqda.

Bu o'rinda gap faqat o'ziga xos iqlim sharoitlari bilan emas, balki eng asosiy masala bo'lmish zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq ekanini, o'yaymanki, tushunish qiyin emas.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi zamonaviy agrotexnologiyalarni o'rganish va amalda joriy etish bilan o'ta jiddiy shug'ullanishi, seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldarligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishi zarur.

Chopiq traktorlarining 55 foizdan ortig'i va yer haydaydigan traktorlarning 46 foizi 15 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatilayotgani, boshqacha aytganda, ular belgilangan foydalanish muddatini allaqachon o'tab bo'lgani, quvvati, ish unumi va yoqilg'i iste'mol qilish bo'yicha zamonaviy standart-larga javob bermaydigan eski texnikalar ekani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi.

Vazirlar Mahkamasiga Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklari, boshqa manfaatdor vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari hamda korxonalar bilan birgalikda uch oy muddatda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahsulotni ishlab chiqarish, uni qayta ishlash sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash va yer unumdarligini oshirish bo'yicha maxsus dastur tayyorlash topshiriladi.

Qishloq xo‘jalik texnikalarini yangilash bo‘yicha, avvalo, chet elning ilg‘or kompaniyalari bilan hamkorlikni mustahkamlash talab qilinadi.

Bu borada biz Germaniyaning «Klaas» kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo‘lgan traktorlar, g‘alla o‘rish kombaynlari va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga bundan keyin ham jiddiy e’tibor qaratamiz.

Xorijdagi boshqa mashhur firmalar bilan ham aloqalarni yo‘lga qo‘yish, birinchi navbatda, zamonaviy melioratsiya texnikasini ishlab chiqarish va ta’mirlashni tashkil qilish masalalarida hamkorlik qilish bo‘yicha bugungi kunda oldimizda katta istiqbollar ochilmoqda.

Hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir muhim ustuvor yo‘nalish — chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga ulkan e’tibor qaratayotganimizni alohida qayd etmoqchiman.

O‘zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko‘p jihatdan beqiyos, o‘ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniya-lar bilan tuzilgan shartnomalar va bitimlar asosida 2011-yilda iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritish ko'zda tutilmoxda. Shuni ta'kidlash kerakki, bu mablag'ning 2 milliard 200 million dollardan ortig'i yoki 73 foizdan ziyodini to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari tashkil etadi.

To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari hisobidan iqtisodiyotimizning ko'plab tarmoqlarida 70 tadan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

Bu, avvalambor, gazni qayta ishlaydigan zamnaviy zavod qurishni o'z tarkibiga olgan Qandim guruhi konlarini, shuningdek, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xomashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha yirik loyihalardir.

Ayni vaqtida Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi barpo etish, Qoraqalpog'iston Respublikasida sement zavodi qurish, Toshkent viloyatida turli mato va tikuvchilik mahsulotlari, tayyor dori preparatlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha loyihalar ham shular qatoriga kiradi. Bular — to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan barpo etiladigan istiqbolli obyektlarning bir qismi, xolos.

Shu bilan birga, ishonchim komilki, xorijiy sheriqlarimiz bilan o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, mamlakatimizda yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirish uchun hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz yetarli. Sodda qilib aytganda, bu borada ishonchli kafolatlarni yaratish, xorijiy investorlarning ishonchini qozonish va mustahkamlash darkor.

Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor tuzilmalarga **ikki oy muddatda xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan amaldagi sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi topshirilsin.**

Ushbu takliflarni tayyorlashda mavjud normativ bazani, investorlarni jalb etish va xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarni ro'yxatga olishning tartib-qoidalarini, eng muhimi, ularni himoya qilish bo'yicha ishonchli kafolatlarni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ayni paytda biz mamlakatimizdagi o'z ichki resurslarimizning ko'lamini kengaytirish bo'yicha ham doimiy ish olib borishimiz darkor. Bu borada

Tiklanish va taraqqiyot fondining rolini kuchaytirish g'oyat muhim o'rinni tutadi. Hozirgi vaqtida 6 milliard dollardan ortiq mablag' jamlangan ushbu Fond, avvalo, strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda yetakchi sheriklardan biri sifatida faoliyat olib borishi kerak.

2011-yilda mazkur Fondning mablag'lari hisobidan qiymati 780 million dollardan ortiq bo'lgan 24 tadan ziyod loyihani moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 2,1 barobar ko'pdir.

Bu loyihalar sirasiga, eng avvalo, Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Qalmoqqir konini kengaytirish va rekonstruksiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz moslamasini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko'mir asosida ishslash tizimiga o'tkazish, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining misni boyitish fabrikasini rekonstruksiya qilish va boshqa loyihalar kiradi.

Fondning xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasidagi samarali hamkorligiga misol sifatida Tallimaron issiqlik elektr stansiyasida umumiyligi 1 milliard 280 million dollarlik ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasini keltirish mumkin.

Ushbu loyihani amalga oshirishda O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondidan tashqari, Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi kabi xorijiy sheriklar investor sifatida ishtirok etmoqda.

Bizning 2011-yilgi va istiqbolga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturimizni amalga oshirishda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal ravishda rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylanishi darkor.

Bu muhim ustuvor vazifani izchil amalga oshirish uchun 2015-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan maxsus dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, u iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakatimiz hududlarini istiqbolli rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan dastur bilan uzviy bog‘liqdir.

Ta’kidlash joizki, bu dasturni amalga oshirish maqsadida 85 ta investitsiya loyihasini joriy etish va bu ishlarga barcha manbalar hisobidan qariyb 7 milliard dollar yo‘naltirish mo‘ljallanmoqda. 2011-yilda bu mablag‘ning 1 milliard 200 million dollardan ortig‘ini o‘zlashtirish lozim.

Bu borada O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish, mamlakatimizning barcha hududlarini o‘zaro ishonchli bog‘laydigan yagona milliy avtomobil transport tizimini tashkil etish

loyihalarini jadal amalga oshirishni ta'minlashga birinchi darajali ahamiyat qaratilishi lozim.

2011-yilda ushbu maqsadlar uchun 2010-yilga qaraganda 1,4 barobar ko'p, ya'ni 547 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalarni yo'naltirish, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan 302 kilometrlik avtomobil yo'llarini foydalanishga topshirish ko'zda tutilmoqda.

Sizlarning e'tiboringizni yana bir dolzarb masalaga, ya'ni «Toshkent — Andijon» avtomobil yo'lining «Qamchiq» dovoni orqali o'tadigan tog'li uchastkasini rekonstruksiya qilish, bu yerda 4 polosali, sement-beton qoplamlari yo'l qurilishi bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarurligiga qaratmoqchiman.

Biz Farg'ona vodiysi mintaqalarini mamlakatimizning boshqa mintaqalari bilan yil davomida ishonchli va kafolatli bog'lab turadigan transport aloqasini ta'minlashimiz zarur.

2011-yilda transport va kommunikatsiya qurilishiga Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Kuvayt arab iqtisodiy hamkorlik jamg'armasi va OPEK jamg'armasi tomonidan 152 million dollar dan ortiq mablag' ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Joriy yilda temiryo'lchilarimiz oldida ham ulkan vazifalar turibdi. Xususan, «Jizzax — Yangiyer» yo'nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan ikki yo'lli temiryo'l tarmog'i va «Yangiyer — Farhod» yo'nalishi

bo'yicha elektrlashtirilgan bir yo'lli temiryo'l tarmog'i qurilishini nihoyasiga etkazish, «Maroqand — Qarshi» va «Qarshi — Termiz» yo'nalishi bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo'lgan temiryo'l tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalarini amalga oshirishga kirishish zarur.

Bu, o'z navbatida, sarf-xarajatlarni 20 foizga kamaytirish va yo'lovchi hamda yuklarni manzilga yetkazish tezligini 1,3 barobar oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, yo'lovchi tashish lokomotivlari parkini yangilash, yuk tashish lokomotivlari hamda vagonlarini modernizatsiya qilish va qayta tiklash, temiryo'llarni modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish lozim. Shular qatorida Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasi bilan hamkorlikda «Toshkent — Samarqand» temiryo'l uchastkasida O'rta Osiyoda birinchi bor bunyod etiladigan tezyurar temiryo'l magistralini qurish va foydalanishga topshirish ishlarning belgilangan muddatlarda yakunlanishini ta'minlash dar-kor.

O'zbekiston hududida yuklarning ichki va xalqaro tranzitini ishonchli ravishda ta'minlaydigan transport va logistika tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan izchil ishlarni 2011-yilda davom etti-rishimiz lozim.

2010-yilda tashkil etilgan «Angren» logistika markazini yanada rivojlantirishni ko‘zda tutish, joriy yilda «Qamchiq» dovoni orqali kamida 5 million tonna yuk tashishni ta’minlash zarur. Buning uchun Hukumat ushbu markazning konteyner bilan keldigan yuklarni qabul qilib olish, saqlash va jo‘natish quvvatini oshirish, uni Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan «MAN» avtolyagachlari bilan ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

Shuningdek, hozirgi vaqtida xalqaro transport logistikasining global tarmog‘ida barqaror o‘rin egallagan «Navoiy» aeroporti bazasidagi Xalqaro logistika markazini yanada rivojlantirishni ta’minlash darkor. Joriy yilda «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi mazkur aeroport operatori bo‘lmish «Korean Eyr» kompaniyasi bilan hamkorlikda havo qatnovlari geografiyasini yanada kengaytirish, aeroport infratuzilmasini takomillashtirish va hajmi tobora ortib borayotgan yuklarni tashish uchun samolyotlar sonini ko‘paytirish ishlarini davom ettirishi zarur.

Ma’lumki, biz zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari hamda texnologiyalarini yanada rivojlantirishga g‘oyat muhim e’tibor qaratmoqdamiz.

2011-yilda zamonaviy keng formatli va optik texnologiyalarni joriy etish asosida telekommunikatsiya

tarmog‘ini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, 950 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa tarmog‘ini foydalanishga topshirish, viloyatlar markazlariga ma'lumotlar uzatishning transport tarmog‘ini kengaytirishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda.

Ko'zda tutilgan ushbu chora-tadbirlarni amalgaloshirish hisobidan internetning xalqaro tarmoqlariga chiqish imkoniyatlari tezligini 4 barobar oshirish, turg'un statsionar aloqa orqali internetdan foydalanuvchilar sonini 3 milliondan 3,5 million nafarga ko'paytirish, keng formatli telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanuvchilar sonini esa ikki barobar oshirib, 100 mingtaga yetkazish lozim.

O'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda «Elektron ta'lim» milliy tarmog‘ini barpo etishni nihoyasiga yetkazish hamda 2011-yilda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini yagona kompyuter axborot tarmog‘iga ulashni ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

2015-yilgacha mamlakatimizning barcha hududlarida raqamli televideniyega o'tishni ta'minlash bo'yicha kompleks dasturning amalga oshirilishi biz uchun alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga 2011-yilda Nukus, Urganch, Andijon va Qarshi shaharlari telemarkazlarida zamonaviy raqamli uzatish uskunalarini o'rnatish, aholini raqamli formatdagi teledasturlar translatsiyasi bilan qamrab olishni 23 foizdan 37 foizga oshirish, shuningdek, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida raqamli televideniye uchun maxsus moslamalar ishlab chiqarish quvvatini 50 ming donaga yetkazish vazifasi topshiriladi.

2011-yilning birinchi yarmida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining mediamarkazini Yaponiya va Germaniyaning yetakchi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy multimedia texnikasi bilan jihozlab, foydalanishga topshirishni ta'minlash zarur.

Ijtimoiy rivojlanish, birinchi navbatda, ta'lif va sog'liqni saqlash sohalarining moddiy-texnik baza-sini mustahkamlash va ularni jihozlash masalalari, hech shubhasiz, joriy yilda ham diqqatimiz markazida bo'ladi.

2011-yilda Davlat budjeti barcha xarajatlarining 60 foizi ijtimoiy maqsadlar uchun yo'naltiriladi. Bu o'tgan yilga qaraganda sezilarli darajada ko'kdir. Jumladan, ta'lif va sog'liqni saqlash sohasi uchun ana shu xarajatlarning 48 foizi yoki 2010-yilga nisbatan

1 trillion 800 milliard so‘m ko‘p mablag‘ sarflanadi.

Umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari, shifokorlar va tibbiyot xodimlarining mehnatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish borasidagi ishlar davom ettiriladi. 2011-yilda ushbu toifalardagi xodimlarning ish haqi o‘rtacha kamida 25 foizga oshiriladi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash xodimlarining ish haqini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalash uchun budgetdan 420 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratiladi.

Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan Ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining 367 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘i hisobidan joriy yilda 336 ta ta’lim muassasasini, 65 ta bolalar musiqa va san’at maktabini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, qariyb 1500 ta kompyuter sinfini tashkil qilishni ta’mirlash, shuningdek, 118 ta sport zalini qurish va jihozlash ko‘zda tutilmoqda. Bundan tashqari, Koreya Eksimbankingning 30 million dollar miqdoridagi krediti hisobidan umumta’lim maktablarida yana qo‘srimcha ravishda 1,5 mingta kompyuter sinfi jihozlanadi.

Hozirgi kunda 2011 — 2015-yillarda Oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirish dasturi tayyorланмоқда va

ushbu hujjat yaqin vaqt ichida qabul qilinadi. Dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad — oliv ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yonda-shuvlarni hayotga tatbiq etishdan iboratdir.

2011-yilda Respublika neyroxiturgiya ilmiy marmazi, Respublika jarrohlik markazi huzuridagi kardioxirurgiya bo‘limi, Gematologiya va qon quyish institutining yangi bo‘limi kabi yirik sog‘liqni saqlash obyektlarini foydalanishga topshirish va eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash ishlari davom ettiriladi. Nukus, Andijon, Guliston va Termiz shaharlarida ko‘p tarmoqli viloyat bolalar markazlari, Qarshi, Namangan va Termiz shaharlarida ko‘p tar-moqli tibbiyot markazlarini, jami 6 ming 400 o‘ringa mo‘ljallangan 51 ta statsionar muassasa, bir kunda 6 ming kishini qabul qila oladigan 23 ta polikliniki-kanı qurish va rekonstruksiya qilishni yakuniga yetkazish ko‘zda utilmoqda.

Sog‘liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birqalikda budget mablag‘laridan samarali foydalanish, ularni o‘z vaqtida

o'zlashtirish, qurilish va ta'mirlash ishlarining sifati ustidan qat'iy nazoratni ta'minlashi zarur.

Hukumat, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi **2011-yilda uy-joy qurish ko'lamini kengaytirish va qishloqlarni obo-donlashtirish dasturini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishi lozim**. Bu borada 357 ta massivda kamida 7 ming 400 ta uy-joy, shuningdek, ijtimoiy va kommunal xo'jalik obyektlarini qurish mo'ljalanmoqda. Ushbu maqsadlar uchun 500 milliard so'mdan ortiq mablag', jumladan, Davlat budgetidan 140 milliard so'm ajratish va Osiyo taraqqiyot bankining 100 million dollardan kam bo'limgan imtiyozli kredit liniyalarini jalb qilish darkor.

Qadrli yurtdoshlar!

Mamlakatimizda 2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilinishi bar-chamizning zimmamizga qanday ulkan mas'uliyat yuklashi, bu borada tayyorlanayotgan umum davlat Dasturini hayotga tatbiq etish **bizdan qancha kuch va mablag'larni safarbar etishni talab qilishi haqida bugun gapirib o'tirishning, o'ylaymanki, zarurati bo'lmasa kerak.**

Biz hammamiz, mana shu zalda o'tirganlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini

ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda qanchalik o'ta muhim rol o'yashini, albatta, chuqur anglaymiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning ushbu sohasi yurtimizda qanday katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini yuqorida qayd etib o'tdik. Bu o'rinda 2011-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54 foizga yetkazish ko'zda tutilayotganini aytishning o'zi kifoya, deb o'layman.

Shu bilan birga, erishgan muvaffaqiyatlarimizni dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasi bilan taqqlaslagan holda tanqidiy baholar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, O'zbekistonda hali bu yo'nalishda qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Bu haqda gapirganda, quyidagilarni alohida ta'kidlashni istardim:

Birinchidan, mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish,

byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati muhitining qanday holatda ekani, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va bu faoliyatning amaldagi rivojlanish sur'atlari barcha darajadagi hokimlar faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi darkor.

Bosh prokuraturaga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuvni iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha davlat siyosatiga qarshi qaratilgan harakat sifatida ko'rib chiqish va huquqbuzarlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq javobgarlik normalarini qo'llash vazifasi topshiriladi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga soladigan qonun hujatlarini tanqidiy tahlil qilish vazifasi topshiriladi.

Eskirgan, sun'iy ravishda o'ylab chiqarilgan va ko'pincha hech kimga keragi bo'lmagan cheklov va taqiqlarni bartaraf etish, davlat va nazorat organlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini yanada keskin kamaytirish darkor.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek,

davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

2011-yilda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga maxsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqish va amalda qo'llash, kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi topshiriladi.

Markaziy bank tijorat banklari bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirishi lozim. 2011-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning ushbu sektoriga ajratiladigan kreditlar hajmini kamida 1,3 barobar ko'paytirish darkor.

O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan hamkorlikda Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasini tashkil qilishi zarur. Bu esa kichik biznes subyektlarining biznes rejalarini tayyorlash sarf-xa-

rajatlarini kamaytirish, ularning sifatini oshirish va kreditlar berish muddatlarini qisqartirish imkonini yaratadi.

To‘rtinchidan, biz kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlarni tug‘dirib berishimiz kerak.

Kichik korxonalar uchun tashqi savdo operatsiyalarini rasmiylashtirishdagi ortiqcha ichki protsedralarni bartaraf etish, kichik biznes sohasi mahsulotlarini eksport qilish borasida qo‘srimcha preferensiyalar berish zarur.

Shuni tan olish kerakki, har qanday kichik korxona ham o‘z mahsulotlari bilan tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqa olmaydi. Chunki buning uchun katta sarf-xarajatlar kerak bo‘ladi, xorijiy mamlakatlar bozorining holati va qonunchiligining o‘ziga xos xususiyatlari haqida yetarlicha axborot va bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi «O‘zstandart» agentligi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda uch oy muddatda kichik biznes korxonalariga tashqi bozorlarda o‘z mahsulotlarini sotishga ko‘maklashadigan, marketing o‘tkazish, sertifikat va ruxsatnomalar olishni ta’minlaydigan mexanizmni yaratish uchun barcha zarur ishlarni amalga oshirishi darkor.

Aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinalrini tashkil qilish muammosini hal etish 2011-yil va yaqin istiqbolda mamlakatimizni muvaffaqiyatli va barqaror rivojlantirishning alohida ustuvor yo'nalishi va hech mubolag'asiz eng muhim shartidir.

2011-yilga mo'ljallab qabul qilingan va mamlakatimiz Parlamenti tomonidan ma'qullangan Respublika dasturida 950 mingdan ortiq yangi ish o'rnini, asosan, qishloq joylarda yaratish ko'zda tutilgan.

Bu ish joylarining 600 mingdan ziyodini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ochish mo'ljalanmoqda. 73 mingdan ortiq ish o'rni transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish natijasida tashkil etiladi. Kasanachilikni, avvalo, mehnat shartnomalari bo'yicha korxonalar bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bandlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi va bu qariyb 220 ming kishini ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Hukumatimizdan, joylardagi davlat hokimiyyati organlari va korxonalar rahbarlaridan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlarni doimiy ravishda amalga oshirishni ta'minlash talab etiladi.

2011-yilda kasb-hunar kollejlarini tamomlaydi-gan 450 mingdan ortiq o'quvchini ishga joylashti-rish masalasi e'tiborimiz markazida bo'lishi darkor. Shu fursatdan foydalaniib, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi rahbariyati, viloyatlar, shahar va tumanlar hokim-lari e'tiborini ushbu mas'uliyatli vazifa bo'yicha ular-ning shaxsan javobgar ekaniga yana bir bor qara-tishni istardim.

Bu borada ko'rilibotgan barcha chora-tadbir-larga qaramasdan, quyidagi masalalar kasb-hunar kollejlari faoliyatida eng zaif bo'g'in bo'lib qol-moqda:

1) **9-sinf bitiruvchilari kasb-hunar ta'limi bilan to'laqonli qamrab olinishini nazarda tutgan holda, ularni o'qishga qabul qilishni tegishli ravishda tartibga solish.**

2) **O'qituvchilar tarkibini tayyorlash sifati va ular-ning malakasini oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratish.**

3) **Kasb-hunar kollejlarini tamomlab chiqayot-gan bitiruvchilarni ishga joylashtirish.** Bu masala, ko'p jihatdan, ularni tayyorlash sifati va mehnat bozorini qanchalik chuqur o'rganishimizga bog'liq ekanini unutmaslik zarur.

Yuqorida zikr etilgan masalalardan tegishli xu-losalar chiqarish kerak.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish va-zirligi viloyatlar, tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda har bir tuman va shahar bo'yicha kollejlarning bitiruvchilarini o'z mutaxassisligiga muvofiq ish bilan ta'minlash yuzasidan aniq maqsadli rejalarни tayyorlashi va ularni amalga oshirish masalasiga yanada mas'uliyat bilan yondashishi darkor.

Shu munosabat bilan muayyan korxona va ish beruvchilarini turdosh kollejlarga biriktirish tajriba-sini, doimiy amal qiladigan «korxona — kollej» hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim.

Shu bugundan e'tiboran bo'lajak har bir bitiruvchining ish joyini oldindan belgilashga kirishish, kollej o'quvchilarining amaliyotni bo'lg'usi ish joyida o'tashini tashkil etish, boshqacha aytganda, ularning aniq bir ish joyiga biriktirib qo'yilishini ta'minlash zarur.

Aziz vatandoshlar!

Biz bugun o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qildik va 2011-yilda mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldik.

Shu asosda iqtisodiyotimizni rivojlantirish va isloq qilishni chuqurlashtirishda yaqin kelgusida butun e'tiborimiz, resurs va imkoniyatlarimizni qaratishimiz

lozim bo'lgan hal qiluvchi strategik muhim yo'nalishlarni aniqlab oldik.

2011-yilga mo'ljallangan dasturiy vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, har birimiz o'z ishimizni qanday tashkil etishimiz, oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarga erishish uchun kuch va imkoniyatlarimizni, bilim va tajribamizni qanchalik samarali safarbar eta olishimizga bog'liq ekani haqida bugun ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'layman.

2011-yilda barchangizga chin dildan yangi yutuq va muvaffaqiyatlar, baxt va omadlar tilashga ruxsat bergaysiz.

*2010-yilning asosiy yakunlari va 2011-yilda
O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlantirishning eng muhim ustuvor
yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar
Mahkamasining majlisidagi ma'ruba,
2011-yil 21-yanvar*

BOLALAR SPORTI – O'ZBEK SPORTINING KELAJAGI, UNING XALQARO MAYDONDAGI OBRO'-E'TIBORINI YUKSALTIRISHNING POYDEVORIDIR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov raisligida 2011-yilning 25-fevral kuni Oqsaroyda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashi raisi Islom Karimov ushbu tuzilma tashkil etilganidan buyon o'tgan davrda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar, ularning ahamiyati, mohiyati va amaliy natijalari haqida so'z yuritib, Jamg'arma faoliyati rivojiga davlat va hukumat idoralari, ishlab chiqarish korxonalari, tadbirkorlik va fermerlik subyektlari, nodavlat tashkilotlar, keng jamoatchilik o'z hissasini qo'shayotgani, ularning bu boradagi ishlarni qo'llab-quvvatlashi tufayli bu tashkilot qisqa muddatda umummilliy harakatga aylanganini qayd etdi.

Bu haqda gapirar ekan, davlatimiz rahbari quyidagi fikrlarni alohida uqtirib o'tdi:

Ushbu yo'nalishda to'plangan tajribamiz asosida xulosa chiqarish va oldimizda turgan vazifalar, maqsad-muddaolarimiz xususida qisqacha to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Bunda, avvalo, qu-yidagi masalalarga, garchi ular ko'pchilikka ma'lum bo'lsa-da, yana bir bor e'tiborimizni qaratish foydadan xoli bo'lmaydi, deb o'layman.

Birinchidan, farzandlarimizning sportga qiziqishi va intilishini, kerak bo'lsa, sportga bo'lgan mehrini ayni yosh bolalik davridan uyg'otgan taqdirdagina sport har qaysi odamning hayotida, haqiqatan ham, doimiy hamroh bo'lib qolishiga erisha olamiz.

Hayotning o'zi bu fikrni har qadamda tasdiqlab beradi. Bu fikr-xulosaga har birimiz o'z hayotimiz, o'z tajribamiz misolida ishonch hosil qilishimiz qiyin emas, albatta. Ya'ni, bolalarimizni bog'cha va mакtab yoshidan sport olamiga jalb etgan holda, bu borada ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

Shuni aytish kerakki, har bir kichik bolaning o'ziga xos katta dunyosi borligini unutmasligimiz, bunga alohida e'tibor berishimiz lozim.

Ikkinchidan, bugun hech kimga sir emas, erta yoshdan boshlab sport bilan muntazam shug'ullanadigan bolalargina jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga yetadi. Shu asosda har bir ota-onaning ezgu orzusi bo'lmish sog'lom farzand o'stirish, aholimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng

qaror toptirish uchun katta imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Aynan yoshlik chog‘idan sport bilan do‘sit bo‘lish bolaning o‘z ustida ishlashi, xarakterining toblanishi, musobaqalarda qatnashish orqali qat’iyatlik va mardlik xususiyatlarining shakllanishi, g‘alabaga intilishi, ta’bir joiz bo‘lsa, avvalo, o‘z ustidan g‘alaba qozonishi, bir so‘z bilan aytganda, mustahkam irodaga ega bo‘lishi uchun puxta zamin yaratadi.

O‘z ustidan g‘alaba qozonish deganda, men o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini intizomga o‘rgatish, ayrim kamchilik va nuqsonlardan xalos bo‘lish, sinovlarni yengib o‘tishni nazarda tutaman.

Uchinchidan, o‘z-o‘zidan ayonki, bolalar sportini rivojlantirmasdan turib, o‘zbek sportining kelajagini ta’minalash, xalqaro maydonda uning obro‘-e’tibor qozonishiga erishish mumkin emas.

Bugungi kunda aynan sport butun jahonda har qaysi millat, har qaysi xalqni dunyoga tanitishning, uning o‘z salohiyatini namoyon etishi, g‘urur va iftixorini yuksaltirishning eng samarali va ta’sirchan vositasiga aylanib borayotganini ko‘rish-kuzatish qiyin emas.

Hozirgi vaqtda dunyoda 7 milliardga yaqin aholi yashayotgan bo‘lsa, jahon miqyosida eng mashhur, taniqli shaxslar — bu sportchilardir. Mana, o‘tgan yili Xitoyda bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida badiiy

gimnastika bo'yicha O'zbekiston jamoasi qancha-qancha yirik davlatlar vakillari orasida yuksak shohsupaga ko'tarilganda, shaxsan men to'lqinlanib, hayajonli bir holatni boshimdan kechirdim. O'ylaymanki, bunday yutuqlar barcha yurtdoshlarimizga katta quvonch bag'ishlagani, shubhasiz.

Yoki futbol bo'yicha mamlakatimiz o'smirlar terma jamoasi Osiyo qit'asida g'olib bo'lib, bu yil Meksikada bo'lib o'tadigan jahon championatida qatnashish huquqini qo'lga kiritgani bizning sport hayotimizdagi tarixiy voqeadir. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Shu ma'noda, biz o'zbek sportining xalqaro maydonda har tomonlama munosib o'rinni egallashi-ga intilar ekanmiz, bolalar sportini, o'smirlar sportini tizimli asosda izchil rivojlantirmasdan turib bu maqsadga erishib bo'lmasligini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Bir so'z bilan aytganda, **bolalar sporti** — o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning poydevoriga aylanishi zarur.

To'rtinchidan, bolalar sporti biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk bir maqsadga erishish uchun, ya'ni barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetayotgan bolalarimizni hayotimizda hal qiluvchi kuchga aylantirish, O'zbekistonimizning dunyodagi taraq-

qaror toptirish uchun katta imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Aynan yoshlik chog'idan sport bilan do'st bo'lish bolaning o'z ustida ishlashi, xarakterining toblanishi, musobaqalarda qatnashish orqali qat'iyatlik va mardlik xususiyatlarining shakllanishi, g'alabaga intilishi, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo, o'z ustidan g'alaba qozonishi, bir so'z bilan aytganda, mustahkam irodaga ega bo'lishi uchun puxta zamin yaratadi.

O'z ustidan g'alaba qozonish deganda, men o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini intizomga o'rgatish, ayrim kamchilik va nuqsonlardan xalos bo'lish, sinovlarni yengib o'tishni nazarda tutaman.

Uchinchidan, o'z-o'zidan ayonki, bolalar sportini rivojlantirmasdan turib, o'zbek sportining kelajagini ta'minlash, xalqaro maydonda uning obro'-e'tibor qozonishiga erishish mumkin emas.

Bugungi kunda aynan sport butun jahonda har qaysi millat, har qaysi xalqni dunyoga tanitishning, uning o'z salohiyatini namoyon etishi, g'urur va iftixorini yuksaltirishning eng samarali va ta'sirchan vositasiga aylanib borayotganini ko'rish-kuzatish qiyin emas.

Hozirgi vaqtida dunyoda 7 milliardga yaqin aholi yashayotgan bo'lsa, jahon miqyosida eng mashhur, taniqli shaxslar — bu sportchilardir. Mana, o'tgan yili Xitoyda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida badiiy

gimnastika bo'yicha O'zbekiston jamoasi qancha-qancha yirik davlatlar vakillari orasida yuksak shohsupaga ko'tarilganda, shaxsan men to'lqinlanib, hayajonli bir holatni boshimdan kechirdim. O'ylaymanki, bunday yutuqlar barcha yurtdoshlarimizga katta quvonch bag'ishlagani, shubhasiz.

Yoki futbol bo'yicha mamlakatimiz o'smirlar terma jamoasi Osiyo qit'asida g'olib bo'lib, bu yil Meksikada bo'lib o'tadigan jahon championatida qatnashish huquqini qo'lga kiritgani bizning sport hayotimizdagi tarixiy voqeadir. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Shu ma'noda, biz o'zbek sportining xalqaro maydonda har tomonlama munosib o'rin egallashi-ga intilar ekanmiz, bolalar sportini, o'smirlar sportini tizimli asosda izchil rivojlantirmasdan turib bu maqsadga erishib bo'lmasligini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Bir so'z bilan aytganda, **bolalar sporti — o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning poydevoriga aylanishi zarur.**

To'rtinchidan, bolalar sporti biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk bir maqsadga erishish uchun, ya'ni barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetayotgan bolalarimizni hayotimizda hal qiluvchi kuchga aylantirish, O'zbekistonimizning dunyodagi taraq-

qiy topgan davlatlar qatoridan joy olishida qanday beqiyos o‘rin va ahamiyat kasb etishi haqida bugun hech kimga tushuntirib berishga hojat yo‘q, deb o‘yayman.

Mana, ko‘ryapsizlar, bugungi kunda mamlakatimizda yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan qancha-qancha korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, ularda yurtimizdagи олий о‘кув yurtlari, litsey va kollejlarda ta’lim olgan ming-minglab farzandlarimiz mehnat qilmoqda. Bolalarimizning mana shunday yuqori malakali mutaxassis bo‘lib kamol topishida, albatta, ular egallagan zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda sport bilan shug‘ullanib, sog‘lom, baquvvat bo‘lib o‘sib-ulg‘aygani ham muhim omil bo‘layotgani hech kimga sir emas.

Shu munosabat bilan ilgari aytgan bir fikrni yana bir bor ta’kidlashni o‘rinli deb bilaman: XXI asrda ham jismoniy, ham ma’naviy yetuk, intellektual boylikka ega bo‘lgan avlod va xalqgina jahon miqyosidagi bugungi keskin musobaqada g‘olib bo‘la oladi.

Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, ko‘pgina xorijiy davlatlarda shu mamlakat, shu xalqni ulug‘laydigان, dunyoga tanitadigan tasvirlar, ya’ni shohsupaga ko‘tarilgan sportchilar sha’niga davlat bayrog‘ining ko‘tarilib, davlat madhiyasining yangrashi bilan

bog'liq lavhalar ta'sirchan ravishda muntazam namoyish qilib boriladi.

O'ylaymanki, bizning milliy televideniyemiz ham O'zbekistonimizning dovrug'ini dunyoga taratadigan aynan mana shunday lavhalarni ko'proq namoyish etsa, ona yurtimizning xalqaro maydondagi timsolini yaratishga ko'proq e'tibor bersa, katta ma'naviy, tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo'lar edi.

Beshinchidan, biz mana shunday go'zal va betakror, beqiyos boylik va imkoniyatlarga, ulkan salohiyatga ega bo'lgan yurtimizda o'zgalarning havasini tortadigan, barcha ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan navqiron avlodni tarbiyalamoqchi ekanmiz, buning uchun jismoniy tarbiya va sport hayotimizga yanada chuqr kirib borishi, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida turishi darkor.

Bu haqda fikr yuritar ekan, Prezident Islom Karimov masalaning yana bir o'ta muhim jihatiga e'tibor qaratdi: keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, sport, onalik va bolalikni muhofaza qilish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini, madaniyatini oshirish, ijtimoiy muhofazani kuchaytirish masalasiga ustuvor ahamiyat berilib, kompleks yon-

dashuv natijasida aholining, ayniqsa, bolalarning salomatligini mustahkamlash bo'yicha salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Bu haqda ko'p gapirmasdan, bir misol keltirish joiz. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, agar 2005-yilda yurtimizda mutlaqo sog'lom bolalar ko'rsatkichi 52,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu raqam 62,6 foizga yetdi.

Agar dunyoning rivojlangan davlatlarida bu ko'rsatkich 70 — 72 foizni tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekistonda bu masala bo'yicha qanday jiddiy o'sish sur'atlariga erishilayotgani yaqqol ayon bo'ladi.

Shu bilan birga, 2010-yilda 2005-yilga nisbatan o'quvchilar o'rtasida o'tkir respiratorli virusli infeksiya bilan kasallanish 12,8, pnevmoniya bilan kasallanish 15,5, bronxit bilan kasallanish 16,2 va skolioz bilan kasallanish 11,6 foizga kamaydi. So'nggi besh yilda sport bilan shug'ullanadigan 10 — 14 yoshdagи bolalarning bo'yi o'rtacha 2,3, qiz bolalarning bo'yi 2 santimetrga o'sgani, vazni esa tegishli ravishda 2,6 va 2,9 kilogrammga oshganini ham shu boradagi ijobiy ko'rsatkichlar sifatida qayd etish joiz.

Lekin biz bunday natijalar bilan kifoyalanmasdan, o'z oldimizga yanada ulkan maqsadlar qo'yishimiz, ya'ni taraqqiy topgan davlatlar dara-

jasiga yetish bo'yicha muntazam ish olib borishimiz zarur, dedi mamlakatimiz rahbari.

Majlisda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining o'tgan yil davomidagi faoliyati atroficha tahlil qilindi.

Ma'lumki, 2010-yilda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ulkan ishlarni izchil davom ettirish, jumladan, bolalar sportini yanada rivojlantirish, shahar va qishloqlarimizda zamonaviy sport majmualari va stadionlar bunyod etish, ularni sport anjomlari, yuqori malakali sport ustozlari va murabbiylar bilan ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Mazkur dasturda belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy maddaniyatini yuksaltirish, ommaviy sportni, birinchi navbatda, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlarni yanada faollashtirish imkonini berdi.

Yig'ilishda 2010-yilda bolalar sporti obyektlari va suzish havzalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash dasturining ijrosi muhokama etildi. Jumladan, o'tgan yili 95 ta obyekt ishga tushirilgani, shuning 61 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirilgani qayd etildi. Shuningdek, iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan tender savdolari va mablag'-larni qayta taqsimlash natijalari bo'yicha qo'shimcha

ravishda 4 ta bolalar sporti obyekti foydalanishga topshirilgani ham ijobjiy baholandi.

Bu yil «Barkamol avlod — 2011» sport musobaqalarining final bosqichi Surxondaryo viloyatida o'tkaziladi. Shu munosabat bilan Termiz shahrida bir qator yangi bolalar sporti majmualari qurilmoqda. Xususan, 10 ming tomoshabinga mo'ljallangan futbol-yengil atletika maydoniga ega bo'lgan universal sport zali barpo etilmoqda. «Kurash» sport majmuasini rekonstruksiya qilish bo'yicha qo'shimcha ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtboshimiz Surxon vohasida birinchi marta o'tkazilayotgan bunday sport musobaqasini mamlakatimiz yoshlarining katta anjuman, muhim siyosiy-iijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga molik tadbir sifatida yuksak saviyada o'tkazish, buning uchun puxta tayyorgarlik ishlarini olib borish bo'yicha o'zining taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Futbolni rivojlantirish dasturiga muvofiq, 2011-yilda Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida professional futbol klublari qoshida bolalar o'smirlar futbol klublarini tashkil etish mo'ljalanganmoqda.

Shuningdek, joriy yilda Jamg'arma mablag'lari hisobidan 149 ta obyekt, jumladan, 130 ta bolalar sporti obyekti, 19 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ko'zda

tutilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu obyektlarning 118 tasi qishloq joylarda bunyod etiladi.

Majlisda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan bolalar sporti inshootlarining, ayniqsa, suzish havzalarining zamонавиј талаблар дарajasida bo'lishini ta'minlash, ulardan samarali foydalanish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Yig'lishda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanish masalalari muhokama qilindi. O'tgan yili ushbu maqsadlar uchun 111,1 milliard so'm ajratish ko'zda tutilgan bo'lib, amalda bu ko'rsatkich 116,8 milliard so'mni tashkil etdi. Xorijiy valutadagi tushumlar esa 1,72 million AQSH dollarini tashkil qildi. Aytish joizki, 2008 — 2011-yillarda mablag'-lar tushumi 55,9 foizga ko'paydi va bu, o'z navbatida, homiylarning mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish va Jamg'arma ishini faol-lashtirishga e'tibori ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ushbu sarf-xarajatlар maqsadli amalga oshirildi — bolalar sporti obyektlari va inshootlari, suzish havzalarini qurish va kapital rekonstruksiya qilish, 2010-yilda foydalanishga topshirilgan sport obyektlarini jihozlash ishlari bajarildi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari, ayniqsa, qizlarni sport kiyimlari va anjomlari bilan

ta'minlash, sport tadbirlarini o'tkazish, maktab o'quvchilarining xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi uchun ham tegishli mablag'lar yo'naltirildi.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va mahalliy hokimliklar o'g'il-qizlarimizni sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalg etish borasida faol hamkorlik qilayotgani e'tiborga loyiqidir. 2010-yilda bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatimizda 6 — 15 yoshdagi 1,6 million nafar o'quvchi sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmoqda. Bu boradagi ko'rsatkich hozirgi kunda 2008-yildagi 29,2 foizdan 34,5 foizga, qizlar orasida esa 24,1 foizdan 30,9 foizga yetdi.

Ayniqsa, viloyatlarda gimnastika bo'yicha hududiy federatsiyalar hamda markazlarning tashkil etilishi natijasida qizlarning nafis sport turlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari yanada kengaydi. So'nggi ikki yilda badiiy gimnastika bilan shug'ullanadigan qizlar soni uch barobar oshgani buning tasdig'idir. Bundan tashqari, stol tennisi va suzish bilan shug'ullanayotgan qizlar soni ham ko'payib bormoqda.

Prezident Islom Karimov yig'ilishda qizlarni sportga jalg etish masalasi alohida yondashuvni talab etishini ta'kidladi. Bolalar sportini rivojlantirish, qizlarning sport bilan shug'ullanishi uchun, ayniqsa, qishloqlarda tegishli shart-sharoit yaratish masalasiga atroflicha to'xtaldi.

Masalaning muhim jihatni shundaki, sport bilan shug‘ullangan qiz bola ertaga ona bo‘ladi, sog‘lom surriyotni dunyoga keltiradi. Ayni paytda o‘z farzandiga sportga mehr tuyg‘usini singdiradi. Qayd etish kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Sog‘lom ona — sog‘lom bola» dasturining asosiy ma’no-mazmuni ham shundan iboratdir, dedi Yurtboshimiz.

Yig‘ilishda bolalar sporti obyektlarini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan zarur sport inventarlari va uskunalarini bilan jihozlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

2003 — 2010-yillarda O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan barpo etilgan 1199 ta bolalar sporti obyekti umumiyligi qiymati 18,91 milliard so‘mlik sport inventarlari va uskunalarini bilan jihozlandi.

Mamlakatimizdagi Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Fayz» xolding kompaniyasi, «Sovplastital» qo‘shma korxonasi, «O‘zelteksanoat» uyushmasi, «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi va boshqa korxonalarda, shuningdek, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarida keng turdagiligi sport inventarlari va uskunalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 2010-yilda «O‘z-Tong-Xong Ko» qo‘shma korxonasida basketbol, futbol va voleybol to‘plari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida bolalar sporti obyektlari, avvalo, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobidan jihozlanmoqda. 2010-yilda foydalanishga topshirilgan barcha sport obyektlari belgilangan normativlarga muvofiq o‘zimizda tayyorlangan sport uskunalarini va inventarlari bilan to‘liq ta’minlandi. 2011-yilda sekundomer va shaxmat soatlari ishlab chiqarishni o‘zlashtirish rejalashtirilmoxda.

Majlisda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining kelgusi faoliyati bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqildi. Muhokama etilgan masalalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari, moliya vaziri R. Azimov, Bosh vazir o‘rinbosari B. Xo‘jayev, xalq ta’limi vazirining o‘rinbosari, Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi ijrochi direktori A. Ochilov, qator vazirlik va idoralar rahbarlari, viloyat hokimlarining axborotlari tinglandi.

Yig‘ilishda ko‘rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI XODIMLARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli do'stlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligining qutqaruvchilari, xodimlari va faxriylari!

Sizlarni — o'zini odamlarning hayotini asrash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishdek oliyjanob ishga bag'ishlagan barcha insonlarni qutlug' sana — Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilganining 15 yilligi bilan samimi tabriklash menqa ulkan mamnuniyat bag'ishlaydi.

O'zbekiston o'z mustaqilligi va suverenitetini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab mamlakatimiz aholisi va hududini tabiiy ofatlar, texnogen halokat va falokatlardan muhofaza qilish bo'yicha ishonchli va samarali milliy tizimni yaratish hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Shu borada qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida ko'lami va mohiyatiga ko'ra salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda «Fuqaro muhofazasi to'g'risida», «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen

xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida», «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilinishi bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish masalalari, shuningdek, qutqaruv xizmatlari va qutqaruvchilar faoliyatini, huquqiy maqomini tartibga soladigan zarur me’yoriy-huquqiy baza shakllandi.

Yurtimizda va ilg‘or xorijiy mamlakatlarda to‘plangan ko‘p yillik tajribaga tayangan holda, fuqaro mudofaasi qurilishi bo‘yicha o‘z umrini o‘tab bo‘lgan eskicha yondashuv va qoli plardan tubdan farq qiladigan, har tomonlama puxta o‘ylangan, zamonaviy kompleks dastur asosida mutlaqo yangi, favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi hamda uning muvo-fiqlashtiruvchi organi — Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.

Bugungi kunda ushbu tizim 40 dan ortiq turli vazirlik va idoralarni, respublikamizning barcha hududiy bo‘g‘inlarini qamrab olib, davlat boshqaruvi hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tabiiy ofat va halokatlarning oldini olish, ularning oqibatlariga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kuch va vositalarning o‘zaro uyg‘unligi va yaqin hamkorligini ta’minlamoqda.

Mamlakat va mintaqalarimiz darajasida tashkil etilgan harakatchan avariya-qutqaruv, radiatsion-kimyoviy va biologik muhofaza guruhlari, obyektlarning fuqaro muhofazasi tuzilmalari barcha turdag'i xavfli tabiiy hodisalar va texnogen halokatlar, jumladan, transchegaraviy ko'rinishdagi falokatlarga qarshi chora-tadbirlarni tezkor va o'z vaqtida amalga oshirmoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan, seysmik holatlarni kuzatib borish va yong'inlarning oldini olishda qo'llanadigan texnologiyalardan, shuningdek, halokatlar paytida ishlatiladigan eng yangi qutqaruv uskunalarini, maxsus transport va texnikadan keng foydalanish favqulodda vaziyatlarni monitoring va prognoz qilish tizimining yuksak darajada ishonchli bo'lishini, qutqaruv operatsiyalarini rejalashtirish va amalga oshirishning tezkorligini ta'minlamoqda.

Shu yillar mobaynida operativ fikrlash va nostandard qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda aholini qanday harakat qilishga o'rgatish tizimini takomillashtirish borasida ham ko'pgina ishlar amalga oshirildi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda ilmiy-pedagogik va o'quv-mashg'ulot markazlari — Fuqaro

muhofazasi instituti va Qutqaruvchilarni tayyorlash markazi tashkil etilgani, ularda 20 ming nafardan ortiq mutaxassis va qutqaruvchi ta'lim olganini alohida qayd etish zarur.

Xorijiy markazlar bilan tabiiy ofatlar va falokatlardan muhofaza qilish hamda ularning oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Xususan, bu borada Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Ukraina, Latviya va boshqa mamlakatlar bilan amaliy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Tabiiy ofatlarni kamaytirish xalqaro strategiyasi va Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha Osiyo markazi kabi xalqaro tuzilmalar doirasida favqulodda vaziyatlar xavfining oldini olishga doir ilg'or amaliy tajribalarni almashish borasida samarali faoliyat olib borilmoqda.

So'nggi o'n besh yil davomida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan xavfli tabiiy hodisalar va texnogen halokatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 4 mingdan ortiq yirik qutqaruv operatsiyalari amalga oshirildi.

Qutqaruvchilarning fidokorona mehnati va yuksak professional mahorati tufayli 16 mingdan ziyod fuqaromizning hayoti va sog'lig'iga xavf solgan tahdidlarning oldini olishga erishilgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Favqulodda vaziyatlar xizmatlari va tuzilmalari ning tashkil topishi bo'yicha shu davrda bosib o'tilgan murakkab yo'lni baholar ekanmiz, iqtisodiyot obyektlarining barqaror ishlashi, mamlakatimiz fuqarolarining hayoti, tinch mehnati va osoyish-taligining himoyasi ishonchli qo'llarda, deb to'liq asos bilan aytish mumkin.

Hurmatli qutqaruvchilar!

Keyingi vaqtida dunyoning turli mamlakatlarida ro'y bergan yirik tabiiy ofat va texnogen halokatlar, respublikamizning tog'li va tog'oldi hududlarida zilzila, jala va toshqinlar, sel va ko'chkilar yuz berish xavfi, shuningdek, manbayi biz bilan chegaradosh davlatlar hududida joylashgan transchegaraviy ko'ri-nishdagi xatarlarning saqlanib qolayotgani ushbu xavfli holatlarga qarshi samarali va tahdid darajasiga mos ravishda harakat qilishni, barcha qutqaruv xizmatlari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining aniq va o'zaro uyushgan harakatini, har bir qutqaruv-chining o'z xizmat burchini mas'uliyat bilan bajarishini taqozo etmoqda.

Qo'yilgan ana shunday maqsadga erishish yo'lida favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini har tomonlama mustahkamlash, qutqaruv xizmatlarining yuqori malakali xo-

dimlarini tayyorlash, fuqaro muhofazasi sohasida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar samardorligini oshirish bo'yicha ishlarni davom ettirish darkor.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining har bir xodimi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni favqulodda vaziyatlar xavfi paydo bo'lganda mavjud holatga muvofiq harakat qilishga tayyorlash hamda o'qitish borasida o'z vaqtida qabul qilingan chora-tadbirlar, avvalam-bor, qancha-qancha insonlarni qutqarib, hayotini asrab qolishga xizmat qilishini doimo yodda tutmog'i lozim.

Qadrli do'stlar!

Bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida o'z ishiga sadoqatli, professional mutaxassislар mehnat qilmoqda. O'zgalar dardiga befarq odam hech qachon qutqaruvchi bo'lolmaydi. Chunki qutqaruvchilik — bu oddiy kasb emas, balki inson hayotini saqlab qolish uchun o'zini qurbon qilishga, jasorat ko'rsatishga hamisha tayyor turish demakdir.

Ishonchim komilki, mardlik va matonat, o'z ishining professional negizini chuqr bilish, tezkor harakat qilish va safarbarlik bundan buyon ham siz egallagan oliyjanob kasbning eng muhim mezoni va xususiyati bo'lib qolaveradi.

Sizlarni ushbu qutlug' sana bilan yana bir bor tabriklar ekanman, barchangizga mustahkam sog'-liq, g'oyat mas'uliyatli faoliyatingizda yangidan yangi muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'zbekiston xotin-qizlariga Bayram tabrigi

Uhtarama onaxonlar!
Unis opa-singillar, lobar qizlarim!
O'zal yurtimizga barchamiz orziqib kutgan
ham nafasi kirib kelayotgan mana shu yorug'
kunard'a siz, azizlarimni, sizlar orqali butun
O'zbekiston xotin-qizlarini 8-mart bayrami bilan
chalg'ibimdan muborakbod etishdan baxtiyormen.
Isho'z Tobora kuchga kirib, tabiat uyg'onib bo-
rangan shu qutlug' ayyomda sizlarning aziz va qadr-
dar yuzlaringiz, ko'zlarining boqib, samimiyligi
va tilaklarimizni izhor etar ekanmiz, biz
ba'mir va ayol so'zlarining naqadar uyg'un va
hamharing ekanini yanada chuqur anglaymiz. Ayol
zotchindan ham o'z timsolida go'zallik va nafosat,
ezulk va fidoyilik kabi ollyjanob insoniy fazilatlar-
ni ujas-sam etganiga yana va yana bir bor ishonch
hos qillamiz.
Urhaqiqat, biz hayotimiz mazmuni bo'lgan sevgi
va sloq'at, mehr-muhabbat, nazokat va latofat kabi

eng nozik, sirli tuyg'ularni Yaratganimizning beqiyos mo'jizasi bo'l mish ayol zotisiz aslo tasavvur etolmaymiz.

Ayol deganda, ko'z o'ngimizda, avvalo, oq sut berib, barchamizni o'z bag'rida asrab-avaylab voyaga yetkazadigan, butun hayotini farzandiga baxshida etadigan dunyodagi eng muqaddas zot — Ona siymos namoyon bo'ladi.

Mehribon va mushfiq onalarimizning ana shunda: buyuk xizmatini so'z mulkining sultonni, ulug mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning «Jismr qil sadqa ano boshig'a» degan hikmatli so'zlarida o'tkazib ifoda etishning o'zi qiyin, deb o'ylaymar

Shu ma'noda, asrlar mobaynida Yer yuzida hay davomiyligini ta'minlab kelayotgan aziz va mukarram Ona siymosi, ayol zoti oldida bosh egib ta'zil qilish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdi desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Qadrli opa-singillar!

Bugungi kunda hayotimizning qaysi soha yo'nalishini olmaylik — bu davlat va jamiyat qurilis yoki ishlab chiqarish tarmoqlari bo'ladimi, fermer va tadbirkorlik, tibbiyot, ta'lim-tarbiya, fan madaniyat, san'at bo'ladimi — ularning rivoji samarasini oshirishda, yurtimizda hech kimdan ka bo'lmaydigan demokratik davlat va fuqarolik jamiy barpo etishda, xalqaro maydonda davlatimizni

obro‘-e’tiborini yuksaltirishda opa-singillarimizning katta hissa qo‘shayotgani haqida ko‘p gapirish mumkin.

Xususan, ayollarimizning siyosiy-ijtimoiy hayot-dagi o‘rni va ta’siri ortib borayotganini davlat hokimiyatining barcha bo‘g‘indagi vakillik organlarida 1131 nafar xotin-qiz, jumladan, Oliy Majlisimiz tarkibida 48 nafar senator va deputat faoliyat ko‘rsatayotgani, qariyb 332 ming ayol siyosiy partiyalarning a’zosi sifatida o‘z salohiyatini namoyon qilayotgani, fuqarolik jamiyatining tayanchi bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlarda ularning faol ishtirok etayotganida ko‘rish, kuzatish qiyin emas.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha amalga oshirgan ulkan ishlarimiz haqida albatta ko‘plab misollarni olib kelish mumkin.

Birgina «Sog‘lom ona — sog‘lom bola» deb nom olgan, bugungi kunda umummiliy harakatga aylangan dasturimiz doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning o‘zi ilgari hayotimizda, tariximizda hech ko‘rilmagan salmoqli natijalari bilan ko‘pchilikning hayrati va havasini uyg‘otmoqda.

Yurtimizda zamonaviy tibbiyot muassasalarining mustahkam tizimi yaratilib, barcha hududlarimizda skrining va perinatal markazlari, tug'uruqxona va sog'lomlashtirish komplekslari, 3200 ta qishloq vrachlik punktlari tashkil etilgani, ular zarur tibbiy uskuna va jihozlar bilan ta'minlangani bu boradagi ulkan ishlarimizning bir qismi, xolos. Bunga qo'shimcha qilib, o'tgan yili amalga oshirilgan «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi bo'yicha shu yo'nalishda 8 trillion so'mdan ziyod mablag' sarflanganini yana bir bor eslash o'rinnlidir.

Bu kabi yutuq va marralar, albatta, barchamizni mamnun etadi, lekin bunday keng ko'lamli, uzoqni ko'zlab olib borayotgan ishlarimizning ma'no-mohiyatini, kelajak avlod uchun ahamiyatini, hech shubhasiz, eng avvalo, ayollarimiz, onalarimiz ko'proq tushunadi va qadriga yetadi, deb o'layman.

Bizning aynan ana shunday ulug' maqsadga qaratilgan barcha sa'y-harakat va intilishlarimiz bugungi kunda jahon jamoatchiligi tomonidan yuksak baholanib, xolis e'tirof etilmoqda.

Bu haqda gapirganda, Xalqaro Bolalar jangiarmasi — UNISEFning Sharqiylig Yevropa, Boltiqbo'yi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha ofisi onalik va bolalikni muhofaza

qilish borasidagi dasturlarni joriy qilishda O'zbekistonni mintaqadagi namuna deb tan olganini qayd etish lozim.

Tinch va osoyishta hayotning, mehr-oqibat, shafqat va muruvvat tuyg'ularining qadriga yetadigan jonkuyar va oqila ayollarimizning oila va mahallada, jamiyatimizda o'zaro hurmat va hamjihatlik, fayz-u baraka, sog'lom muhitni mustahkamlash yo'lidagi xizmatlari har qancha e'tiborga loyiqdir.

Shu bilan birga, barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi murakkab va tahlikali zamonda tinch va osuda hayotimizni, farzandlarimizning baxt-u kamolini ko'rolmaydigan g'arazli kuchlar ham yo'q emas. Ayniqsa, dunyoda, olis va yaqin atrofimizda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan hozirgi paytda yoshlarimizning ongi va qalbini turli zararli ta'sirlardan asrash, doimo hushyor va ogoh bo'lib yashash zarurligini aslo esimizdan chiqarmasligimiz darkor.

Aziz vatandoshlar!

Biz bu yil O'zbekistonimizning yangi tarixidagi buyuk sana — mustaqilligimizning 20 yilligini eng ulug' va eng aziz bayram sifatida keng nishonlaymiz. Bir qarashda, 20 yil ko'hna tarix uchun qisqa bir muddat, albatta. Lekin bu davr biz uchun o'z mohiyati va ahamiyatiga, amalga oshirgan ishlarimizning ko'lami va miqyosiga ko'ra, haqiqatan

ham, asrlarga teng davr bo‘ldi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor.

Ana shu vaqt mobaynida biz Vatanimizning yorug‘ kelajagi, uning ravnaqi yo‘lida qancha-qancha og‘ir sinovlardan o‘tdik. 90-yillarda davlatimiz endigina shakllanib, mustaqil taraqqiyot sari dastlabki qadamlar qo‘yayotgan murakkab kunlar bo‘ladimi, chetdan turib bizga ta’sir o‘tkazish uchun qilingan turli bosim va tazyiqlar bo‘ladimi, iqtisodiy uzilish va yetishmovchiliklar sharoitida, o‘ta og‘ir bir vaziyatda bozor munosabatlarini joriy etish bo‘ladimi, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash va mustahkamlash bo‘ladimi — bularning barchasi, o‘ylaymanki, yangi tariximizda chuqur iz qoldiradigan davr sifatida xalqimiz xotirasidan hech qachon ko‘tarilmaydi. Ishonamanki, erkin va mustaqil fikrlaydigan yosh avlodimiz ham mamlakatimiz bosib o‘tgan bu o‘chmas yo‘ldan zarur xulosa va saboqlar chiqarib, mag‘rurlanib yashaydi.

Ortimizda qolgan ana shu qiyinchilik va muam-molarni yurtimizdagи har qaysi oila, har qaysi mahalla, shahar va qishloq ahli o‘z boshidan o‘tkazdi. Lekin, qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib, xolisona aytadigan bo‘lsak, bunday qiyinchilik va tashvishlar, avvalambor, zahmatkash ayollarimizning yelkasiga tushdi. Va ularning sabr-bardoshi va

chidamliligi, donoligi va shukronalik fazilatlari, ertangi kunga ishonchi yurtimizning ana shunday sinovlarni yengib o'tishida mustahkam zamin va asos bo'ldi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'lamani.

Bugungi kunda, iqtisodiyotimiz tobora rivojlanib, hayotimiz obod va farovon bo'lib borayotgan, barqaror taraqqiyot sur'atlarimizni dunyo hamjamiyati tan olayotgan bir paytda mana shunday yorug' kunlarga yetib kelishimizga unutilmas va beqiyos hissa qo'shgan, dalada va korxonalarda, ta'lim va shifo maskanlarida, boshqa ko'plab soha va tarmoqlarda o'zini ayamasdan mehnat qilayotgan, oila hayotini tebratib, yosh avlodimizni bar-kamol etib tarbiyalayotgan siz qadrdon opasingillarimizga tasannolar aytib, barcha-barchangizga o'zimning chuqur minnatdorligimni bildirishga ijozat bergaysiz.

Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan barcha reja va dasturlarimiz va ularni amalga oshirish haqida gapirganda, bir haqiqatni takror va takror aytishni istardim — o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsad-muddaolarimizga yetishda men siz, aziz ayollarimizni asosiy tayanchim va suyanchim, eng yaqin maslak-doshlarim deb bilganman va bundan buyon ham shu fikrda qolaman.

Muhtarama opa-singillar!

Barchangizni qutlug' bayramingiz bilan yana bir
bor chin qalbimdan tabriklar ekanman, sizlarga
sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga
fayz-u baraka tilayman.

Doimo toleyingiz baland, rizq-u nasibangiz ziyoda
bo'lzin!

Hamisha omon bo'ling, azizlarim, mehribonla-
rim!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

NAVRO'Z BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI SO'Z

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Shu kunlarda ona yurtimiz — O'zbekistonimiz zaminiga go'zal bahor nafasi bilan birga barchamiz orziqib kutgan Navro'zi olam kirib kelmoqda.

Tabiat ochilib, shahar va qishloqlarimiz yashil libosga burkanib borayotgan mana shu lahzalarda siz, qadrli vatandoshlarimni, butun xalqimizni Navro'z bayrami bilan chin yurakdan tabriklab, barchangizga o'zimning samimiyl tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Hurmatli do'stlar!

Xalqimiz hamisha shod-u xurramlik bilan kutib oladigan qutlug' bayramlar va sanalar ko'p. Lekin shu kunlarda el-yurtimiz nishonlayotgan Navro'zi olam biz uchun eng qadimiy, asl milliy, har qanday siyosatdan xoli bo'lgan, uzoq o'tmish zamonlardan buyon qadriyatlarimiz timsoli bo'lib kelayotgan xosiyatli bir ayyom, yasharish va yan-gilanish faslidir.

Sharqona yangi yil bo‘lmish bu sana odamzod qalbida ezgu intilishlarni uyg‘otib, unga umid va ishonch, shukronalik tuyg‘ularini bag‘ishlaydigan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, erkag-u ayol, yosh-u qari — barcha yurtdoshlarimizning eng ardoqli, katta xursandchilik bilan o‘tkazadigan sevimli bayramidir.

Bu betakror ayyomni har bir xonodon, har bir oilada, bag‘rimizni keng ochib, «Xush kelibsan o‘lkamizga, Navro‘zi olam, qadaming qutlug‘ bo‘lsin, yurtimizga tinchlik-omonlik keltirsin!» deb qarshi olish azaliy odatimizga aylanib qolgan, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Ana shunday xolisona, pok niyatlar bilan zahmatkash dehqonlarimiz oftob nuridan tobora qizib borayotgan yerga urug‘ qadab, bepoyon dalalimizdan mo‘l hosil undirish maqsadida yangi mehnat mavsumini boshlamoqda.

Bugun mana shu munavvar damlarda hammasizning tilagimiz: fidoyi dehqon va fermerlarimizning, barcha mehnatchilarimizning baxtini, omadini bersin, ishlari baroridan kelsin.

Navro‘z shukuhi, ko‘klam shabbodasi ufurib turgan shu dilbar faslda inson tabiat bilan yanada yaqinroq va uyg‘un bo‘lib yashashga, yon-atrofidagi odamlarga, oilasi, yor-do‘sstariga har qachongidan ham ko‘proq hurmat va ehtirom, mehr va e’tibor

NAVRO'Z BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI SO'Z

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Shu kunlarda ona yurtimiz — O'zbekistonimiz zaminiga go'zal bahor nafasi bilan birga barchamiz orziqib kutgan Navro'zi olam kirib kelmoqda.

Tabiat ochilib, shahar va qishloqlarimiz yashil libosga burkanib borayotgan mana shu lahzalarda siz, qadrlı vatandoshlarimni, butun xalqimizni Navro'z bayrami bilan chin yurakdan tabriklab, barchangizga o'zimning samimiyl tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Hurmatli do'stlar!

Xalqimiz hamisha shod-u xurramlik bilan kutib oladigan qutlug' bayramlar va sanalar ko'p. Lekin shu kunlarda el-yurtimiz nishonlayotgan Navro'zi olam biz uchun eng qadimiy, asl milliy, har qanday siyosatdan xoli bo'lgan, uzoq o'tmish zamonalardan buyon qadriyatlarimiz timsoli bo'lib kelayotgan xosiyatli bir ayyom, yasharish va yan-gilanish faslidir.

Sharqona yangi yil bo‘lmish bu sana odamzod qalbida ezgu intilishlarni uyg‘otib, unga umid va ishonch, shukronalik tuyg‘ularini bag‘ishlaydigan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, erkag-u ayol, yosh-u qari — barcha yurtdoshlarimizning eng ardoqli, katta xursandchilik bilan o‘tkazadigan sevimli bayramidir.

Bu betakror ayyomni har bir xonadon, har bir oilada, bag‘rimizni keng ochib, «Xush kelibsang o‘lkamizga, Navro‘zi olam, qadaming qutlug‘ bo‘lsin, yurtimizga tinchlik-omonlik keltirsin!» deb qarshi olish azaliy odatimizga aylanib qolgan, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Ana shunday xolisona, pok niyatlar bilan zahmatkash dehqonlarimiz oftob nuridan tobora qizib borayotgan yerga urug‘ qadab, bepoyon dalalalarimizdan mo‘l hosil undirish maqsadida yangi mehnat mavsumini boshlamoqda.

Bugun mana shu munavvar damlarda hammasizning tilagimiz: fidoyi dehqon va fermerlarimizning, barcha mehnatchilarimizning baxtini, omadini bersin, ishlari baroridan kelsin.

Navro‘z shukuhi, ko‘klam shabbodasi ufurib turgan shu dilbar faslda inson tabiat bilan yanada yaqinroq va uyg‘un bo‘lib yashashga, yon-atrofidagi odamlarga, oilasi, yor-do‘stlariga har qachongidan ham ko‘proq hurmat va ehtirom, mehr va e’tibor

bildirishga ehtiyoj sezadi, sumalak va halim, ko'ksomsa kabi tansiq, haqiqatan ham milliy taomlarimizni ular bilan birga baham ko'rishga intiladi.

Mahalla-ko'y, el-yurt bilan ahil bo'lib, ko'makka muhtoj bo'lgan insonlarga, nogiron va bemorlarga beminnat yordam berish, tabarruk keksalarining duosini olish singari azal-azaldan xalqimizga mansub bunday oliyjanob fazilatlarimiz ayni shu kunlarda o'zining yaqqol tasdig'ini topishini kuzatish mumkin.

Shuni aytish kerak — kimki xalqimizning mehribonligi va bag'rikengligining yorqin ifodasi bo'lmish ana shunday noyob odatlarimizning namoyishini ko'rsa, ularning chuqur insoniy ma'nosini anglasa, hech shubhasiz, doimo hayratda qolishi muqarrar.

Navro'z ruhi, Navro'z falsafasi bilan hamohang bo'lgan o'lmas sharqona qadriyatlarni necha-necha asrlar davomida bezavol asrab-avaylab, saqlab kelayotgan xalqimizga har qancha tasannolar aytsak, arziydi. albatta

Qadrli yurtdoshlarim, azizlarim!

Bugun O'zbekistonimizning taraqqiyot yo'lida barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani, bizning asosiy maqsadimiz bo'lmish yangi jamiyat, yangi hayat qurish, xalq farovonligini yuksaltirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib joy olish uchun qat'iy qadamlar qo'yayotganimizni xalqaro jamoatchilik e'tirof etayotgani hammamizni

quvontiradi va yangi kuch-quvvat bag'ishlaydi, albatta.

Avvalo, xalqimizning og'ir va mashaqqatli mehnati, o'z kuchimiz va salohiyatimizni oqilona ishlatish hisobidan erishayotgan yuksak natija va marralarimiz haqida gapirganda, e'tiboringizni ikki masalaga alohida jalg etishni zarur, deb bilardim.

Birinchidan, bugun mana shunday xavfli-tahlikali, o'ta notinch bir davrda, jahon moliyaviy inqirozi hali-beri davom etayotgan paytda el-yurtimiz nimaiki natijalarni qo'lga kiritmasin, bularning barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo'lib borayotgan tinchlik va osudalik, millatlar, dirlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik, bir-birimizga hurmat va ehtirom hisobidan, desak, o'yaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bunday hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan boylikni ko'z qorachig'idek asrashimiz va sezgir bo'lishimizni zamonning o'zi talab etadi.

Ikkinchidan, biz hayotimizda erishayotgan yutuq va marralarni xalqaro hamjamiyat bilan hamnafas bo'lib, uzoq va yaqin, avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda ish tutishimizning samarasi sifatida ko'ramiz va bunday hamkorlikni yanada kuchaytirish taraf dorimiz.

Navro'z ruhi barchamizni ayni shunday orzuniyatlar va intilish bilan yashashga da'vat etadi.

Fursatdan foydalanib, mana shunday shodiyona kunda shu yuksak minbardan turib, bugungi tantanamizda biz bilan birga ishtirok etayotgan chet mamlakatlarning muhtaram elchilari va xalqaro tashkilotlarning vakillariga, bizga xayrixoh bo‘lgan barcha do‘s-t-u birodarlarimizga minnatdorlik bildirib, ularni Navro‘zi olam bilan samimiyl qutlashga ruxsat bergaysiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Bugungi unutilmas, ulug‘ ayyomda nuroni otaxon va onaxonlarimizni, munis opa-singillarimizni, navqiron yoshlарimizni — hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan mening farzandlarimni yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Aziz boshingiz omon, umringiz uzoq, rizq-u nasibangiz ziyoda bo‘lsin!

Har bir xonadonga, butun yurtimizga tinchlik-omonlik, mehr-oqibat, baxt-u saodat yor bo‘lsin!

Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

MILLIY DAVLATCHILIGIMIZ TARIXINING MUMTOZ NAMUNASI

Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi ham ana shunday buyuk tajribalar manbayidir. Bu tarixning eng yorqin va shonli sahifalarini tashkil etadigan ulug' ajdodlari-miz haqida so'z borganda, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning o'lmas nomini birinchilar qatori tilga olishimiz tabiiy, albatta. Mana, qariyb yetti asrdirki, bu ulug' zotning shon-u shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish jahoning turli mamlakatlarida tobora ortib bormoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, ulug' ajdodimizning o'zi yashagan zamonga, shu davrda Osiyo va Yevropa qit'alarida ro'y bergan, juda katta tarixiy ahamiyatga molik o'zgarishlarga olib kelgan voqea-hodisalarga hal qiluvchi ta'siri, uning bu jarayonlardagi roli nainki tarixchi va siyosatchilar, harbiy ilm mutaxassislar, balki badiiy ijod ahlining ham diqqat-e'tiborini hali-hamon o'ziga jalb etib kelmoqda.

Bu benazir zotning qanday milliy zamin va tarixiy sharoitda o'sib-ulg'aygani, qay tariqa shunday yuksak cho'qqilarga ko'tarilgani, zafarli yurishlari haqida, uning nafaqat davlat arbobi va yengilmas sarkarda, ayni vaqtida inson sifatidagi fazilatlari, ichki dunyosi va kechinmalari haqida Sharq davlatlari bilan birga olis Yevropada — Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya kabi mamlakatlarda ham bundan necha yuz yillar avval ko'p-ko'p ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani yaxshi ma'lum.

Chunonchi, Amir Temur bobomiz haqida ingliz dramaturgi Kristofer Marlou 1588-yili tarixiy pyesa, mashhur nemis kompozitori Georg Gendel 1724-yili opera, amerikalik adib Edgar Po esa 1827-yili she'riy poema yaratgan. Va bunday asarlar bugungi kunda ham ko'plab paydo bo'lmoqda. Fransiyalik taniqli olim Lyusen Keren tomonidan 2006-yili xalqaro miqyosda keng nishonlangan Sohibqironning 670 yillik tavallud to'yi arafasida Parijda fransuz tilida

nashr qilingan «Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat» nomli fundamental tadqiqot bu fikrning yaqqol tasdig‘idir. Tabiiyki, bu asarlarning barchasi ulug‘ bobomizning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarga javob topishda, ularni tarix va bugungi zamon nuqtayi nazaridan yoritishda muhim o‘rin tutadi. Ularning har biri Sohibqiron siymosi haqida o‘ziga xos tasavvur va tushuncha beradi.

Ming afsuski, mustamlakachilik yillarida, ya’ni milliy qadriyatlarimiz, aziz-avliyolarimiz va alломаримизнинг boy merosi, tabarruk nomlarini xal-qimiz xotirasi va yuragidan butunlay o‘chirishga qaratilgan siyosat hukm surgan davrlarda Amir Temurning hayoti va faoliyatini o‘rganish u yoqda tursin, hatto uning nomini tilga olish ham mutlaqo taqiqlab qo‘yilgan edi. Bu mavzuda yaratilgan ba’zi bir ilmiybadiiy asarlarda Amir Temur siymosi tarixiy haqiqatiga zid ravishda bирyoqlama, asosan qora bo‘yoqlarda aks ettirilar edi. Taassuflar bo‘lsinki, sobiq tuzum davrida yaratilgan tarixiy va badiiy adabiyotlarda hamda ularning ta’sirida chop etilayotgan bugungi ayrim kitoblarda ham mana shunday g‘arazli yondashuv alomatlarini hanuz uchratish mumkin.

Ollohga shukrki, istiqlolga erishganimizdan keyin bu masalada ham tarixiyadolat qaror topdi. Muqaddas yurtimiz zaminida yashab o‘tgan ko‘plab ulug‘ siymolar qatori Amir Temur bobomizning

nomi, sha'n-u shavkati va merosi ham qayta tiklanib, bu buyuk zot haqidagi asl haqiqat xolis va haqqoniy yoritilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda, kitoblar yozilmoqda. Zero, Amir Temur shaxsini idrok etish — tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash — o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash — tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlat-chilik vadi plomatiya, harbiy mahorat, buniyodkorlik salohiyati, ilm-u fan, san'at va me'morchilikka oid qarashlari, hayotning ma'no-mazmuni, insonni ulug'laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, din-u diyonat va adolatni joyiga qo'yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko'zlab, el manfaatini o'ylab ish tutish bilan bog'liq ibratli fazilatlarini alohida ta'kidlash o'rinnlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo'lgan «Temur tuzuklari» asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta'sirchan tarzda yoritilgan, desak, haqiqatni aytgan bo'lamic.

Shuning uchun ham o'zining beqiyos azm-u shijoati, mardlik va jasorati bilan Movarounnahr zaminida mo'g'ul zulmiga barham berib, xalqimizni

qaramlik iskanjasidan xalos etgan, tarqoq va parokanda el-ulusni birlashtirib, mustaqil va qudratli davlatga asos solgan bu ulug' siyomonig mazkur kitobda ifoda etilgan g'oya va qarashlari nafaqat o'z davri, balki bugungi va kelgusi avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi bejiz emas.

Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan «Tuzuklar»ni o'qisam, xuddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. Har bir satri bir umr el-yurt, sultanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o'y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba'zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug'orilgan bu asarda qanday teran ma'no mujassam ekanini ma'rifatli, zukko kitobxon yaxshi anglaydi, albatta.

Men o'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to'g'ri ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning: «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur», degan

ko'rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli fikrlar borligini ta'kidlash joiz. Amir Temur bomizning bunday chuqur ma'noli so'zлari, ayniqsa, «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar» degan hikmati insonni doimo aql-idrok, ilm-u ma'rifat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir.

Ulug' ajdodimiz, garchi buyuk buniyodkor va jahongir bo'lsa-da, kuch-qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekanini nihoyatda chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi. Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda «Temur tuzuklari» bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag'zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson

uchun bag'oyat foydali ekanı haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo'yib, tushunib, chuqur anglab o'qisa, ularning qalbida milliy g'urur tuyg'usi yuksaladi, o'zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo'lib voyaga yetadi.

Shu ma'noda, «Temur tuzuklari» kitobining mamlakatimizda ona tilimizda yangitdan yuksak sifat bilan chop etilishi, hech shubhasiz, madaniy hayotimizdagı o'ziga xos muhim voqeadir. Qadimiy va boy, shavkatli tariximiz, betakror merosimiz, azaliy qadriyatlarimiz bilan qiziqadigan barcha kitobxonlarni ana shu quvonchli voqeа bilan chin dildan qutlab, bu noyob asar ularning hayotida doimiy ma'naviy hamroh bo'lib qolishini tilayman.

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

«DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI» MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI

Hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari!
Qadrli mehmonlar!

Avvalambor, sizlarni — nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillari, olimlar, tahlilchi va ekspertlarni chin qalbimdan qutlab, «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyadagi ishtirokingiz uchun samimiy minnatdorlik tuyg‘usini bildirishga ruxsat etgaysiz.

O‘zbekistonda mazkur Konsepsianing qabul qilinishi biz bu yil yigirma yilligini nishonlaydigan davlatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlangan mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish borasidagi keng ko‘lamli islohotlarimizning mantiqiy va qonuniy davomidir.

O‘zbekiston o‘z istiqlolining dastlabki kunlari dan o‘zi uchun ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtiso-

diyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliv qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lini tanladi. O'z umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, mamlakatimiz iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish va uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi besh tamoyilga asoslangan, «o'zbek modeli» deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Biz mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab chetdan tiqishtirilgan «shok terapiyasi» usullarini, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan soxta tasavvurlarni rad etib, «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmang», «Islohotlar islohot uchun emas, avvalo, inson uchun», degan mashhur prinsiplarga amal qilgan holda, ma'muriy-buyruq-bozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tadalik.

Ushbu qoidalarning joriy etilishi davlat va konstitutsiyaviy qurilishni pog'onama-pog'ona, qadam-baqadam tubdan o'zgartirish va yangilash, siyosiy,

iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda chuqur demokratik islohotlarni olib borish imkonini berdi.

Bu model, o'zining mazmun-mohiyati bilan, butun taraqqiyotimiz davomidagi og'ir va mashaq-qatli sinovlardan o'tib, har tomonlama hayotiyligini namoyon etdi. Avvalo, sobiq SSSR tarqalib ketganidan so'ng ilgari shakllangan iqtisodiy aloqalarining butunlay izdan chiqishining oqibatlarga barham berish, iqtisodiyotning halokatli tarzda orqaga ketishi, ishsizlikning avj olishiga yo'l qo'ymaslik, qisqa muddatlarda mustaqil hokimiyat institutlarini tuzish zarurati, o'sha paytdagi mu-rakkab vaziyatning o'zi aynan shu modelni tanlashni taqozo etdi.

Biz turli jozibali da'vatlarga uchmadik va tadrijiy, bosqichma-bosqich taraqqiyot yo'lini ma'qul topib, har xil inqilobiy modellardan ongli ravishda voz kechdik va shu tariqa xalqimizni qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

Mustaqil taraqqiyotimizning ana shu yigirma yillik davri davomida amalga oshirgan ishlarimizni tahlil qilar ekanmiz, biz tanlagan model, chuqur o'ylan-gan va izchil amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari

yurtimizdagi siyosiy tizim, fuqarolik jamiyatni, milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining hayot darajasi, uning siyosiy, huquqiy madaniyati izchil oshib borishi uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi, deb ta'kidlashga barcha asoslarimiz bor.

Istiqlol yillarida mulkchilikning tuzilishida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ko'p ukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi o'rin egalladi, ayni vaqtda bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbayiga, aholi bandligi o'shining eng muhim omiliga aylandi.

Ulkan qiyinchiliklarga, ayniqsa, mustaqil taraq-qiyotimizning dastlabki yillarida biz yengib o'tishga to'g'ri kelgan muammolar, tahdid va sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti o'tgan 20 yil mobaynida qariyb 3,5 barobar o'sdi, yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 2,5 barobar, o'rtacha ish haqi 14 barobar oshdi.

Aholining yalpi daromadlari amaldagi hisob-kitoblar bo'yicha 8,6 barobar o'sdi. Ushbu daromadlarning 47 foizi biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan mulk shakllaridan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlardir.

Davlatning ijtimoiy himoya sohasi uchun sarflagan xarajatlari, aholi jon boshiga hisoblaganda, 5 martadan ko‘proq oshdi, har yili Davlat budjetining qariyb 60 foizi sog‘liqni saqlash, ta’lim, kommunal xo‘jalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yo‘naltirilmoqda.

Shu davrda odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi darajasi 67 yoshdan 73 yoshga yetdi, onalar o‘limi 2 barobardan ziyod, bolalar o‘limi esa 3 barobar kamaydi.

Shu bilan birga, yaxshi tushunamizki, mustaqillik yillarida amalga oshirgan barcha ishlarmiz biz o‘z oldimizga qo‘ygan uzoq muddatli yuksak maqsadga — rivojlangan zamонавиј демократик давлатлар qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratish va uning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan olis va murakkab yo‘lning faqat bir qismi, shu boradagi dastlabki qadamlar, xolos.

Biz yashayotgan globallashuv asrida, birinchi navbatda, erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, bugungi dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jarayonidagi o‘z o‘rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablariga uyg‘un va hamohang bo‘lib qadam tashlaydigan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishini o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Mantiqning o'zi, taraqqiyotimiz qonuniyatlari, biz erishgan marralar, biz o'z oldimizga qo'yayotgan maqsad jamiyatimizning izchil rivojlanishiga, mamlakatimizning nufuziga tuzatib bo'lmaydigan zyon yetkazishi mumkin bo'lgan havolanishga, qo'lga kiritilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilmasdan, demokratik islohotlarni davom ettirishni talab qilmoqda.

Faqat keng miyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohot va o'zgarishlarni biz tanlagan, amalda o'zini to'la oqlagan modelga muvofiq ravishda davom ettirish davlat va jamiyatning barqarorligi va zarur rivojlanish sur'atlarini ta'minlash, hayot sifatini oshirish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rinnegallash imkonini beradi.

Bizning Demokratik islohotlarni yanada chuqrulashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilishimiz aynan shu talab bilan bog'liq bo'lib, bu Konsepsiya, o'z mohiyatiga ko'ra, davlat va jamiyat rivojining prinsipial jihatdan yangi bosqichida mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha boshlagan keng ko'lamli ishlarimizni yanada izchil davom ettirish dasturi hisoblanadi.

Bu borada biz amaliy asosga ega bo'lgan va hayotning o'zi isbotlab bergen bir haqiqatga suyanib-tayanib ish olib bormoqdamiz. Ya'ni, siyosiy tizimi ni izchil demokratlashtirmsadan, sud hokimiyatining

mustaqilligini, so‘z va axborot erkinligini, saylov erkinligi va saylov tizimi rivojini ta’minlamasdan, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirmasdan, fuqarolarimizning siyosiy ongi, ijtimoiy-iqtisodiy fəolligi va huquqly madaniyatini yuksaltirmasdan turib, bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni ta’minlab bo‘lmaydi. Va bunda tadrijiy taraqqiyotni, amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishda uzviylik va izchillikni ta’minlash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ba’zan uchrab turadigandek, olib borilayotgan islohotlarning oxiriga yetmasdan, yuzaki va palapartish tus olib, demokratik jarayonlarning qandaydir soxta ko‘rinishiga aylanib qolishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Demokratiya — bu, qanchalik og‘ir va murakkab bo‘lmasin, bizning yo‘limizdir.

Shuni tushunib olish kerakki, Konsepsiya jamiyatda ro‘y berayotgan keng miqyosdagi o‘zgarishlarga doir barcha masalalarni qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham unda asosiy ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan, ulardan, bizning nazarimizda, islohotlarning quyidagi yo‘nalishlari prinsipial ahamiyatga egadir.

Bizning oldimizda davlat hokimiysi va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida katta va mas’uliyatli vazifalar turibdi. Hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini izchil va tizimli ravishda

amalga oshirish, hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining, davlat va jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishda o'zaro kelishilgan holda faoliyat yuritish va hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishimiz zarur.

Konsepsiya muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasida eng ko'p deputatlik o'rnini egallagan siyosiy partiyalarning Bosh vazir nomzodi bo'yicha taklif kiritish huquqini, Bosh vazirga ishonchszilik votumi institutini joriy etishni nazarda tutadigan o'zgartishlar kiritildi. Parlamentga mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha hukumat rahbari hisobotlarini eshitish huquqi berilgan va boshqa qator prinsipial yangiliklarni kiritish ko'zdatutilgan. Shu tariqa ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarini yanada chuqr isloh qilish, ularning mustaqilligini, mustaqil ish yuritish qobiliyatini kuchaytirish, davlat va siyosiy qurilish tizimida parlamentning roli va ahamiyatini oshirish borasida qonunchilik asoslari yaratilmoqda. Konstitutsiyaning mazkur yangi qoidalarini bosqichma-bosqich joriy etish ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, demokratik jamiyatning eng muhim

tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy, partiyalararo raqobatni sezilarli darajada kuchaytirishda siyosiy partiyalarning rolini tubdan oshirish uchun sharoit yaratadi.

Sud-huquq tizimidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish biz uchun eng muhim ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Konsepsiyaga binoan, sudning mustaqilligini ta'minlash, qonunchilikka sudga qadar bo'lgan ish yuritish bosqichida sud nazoratini mustahkamlash, «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohalarini kengaytirishga qaratilgan tegishli o'zgartishlar kiritish bo'yicha ishlarni davom ettirishimiz darkor. Huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tizimida ularning faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlaydigan o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratishimiz, ayrim huquqbazarliklarni jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazish yo'li bilan jinoyat qonunchilagini yanada liberallashtirish, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish bo'yicha boshqa qator chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim.

Bizning oldimizda axborot sohasini demokratik isloh etish, so'z va axborot erkinligini ta'minlash bo'yicha keng miqyosdagi vazifalar turibdi. Demokratik jamiyatni matbuot erkinligisiz, o'z xohish-

irodasini erkin bildirish va saylov erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Konsepsiya muvofiq, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'-risida»gi qonunni qabul qilish, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va fuqarolarning so'z erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarish hamda olib borilayotgan islohotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga qaratilgan boshqa bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Saylov erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish masalalari diqqatimiz markazida bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda yaratilgan mustaqil, mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob bo'lgan saylov tizimini yanada demokratlashtirish, xususan, saylov jarayonlarining yanada ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash, saylovoldi tashviqotlarini o'tkazish mexanizmi, saylov komissiyalari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish vazifasi oldimizda turibdi. Bunda biz saylovlar —mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy me'yorlarning demokratik

ruhini namoyon etadigan eng muhim masala, huquqiy-demokratik davlatning ajralmas belgilalomiati, xalq xohish-irodasining, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokining asosiy shakli ekanidan kelib chiqamiz.

Fuqarolik institutlarini shakllantirish va rivojlantirish demokratik islohotlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizni rivojlantirishning hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini kuchaytirish, hech mubolag‘asiz, mamlakatimizni demokratlashtirish, uning jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvi, jamiyatimizda millatlar va dinlararo hamjihatlikni, barqarorlikni ta’minlash, «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini amalga oshirish bo‘yicha o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarni ro‘yobga chiqarishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

Kelgusida eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy das-turlarimizni amalga oshirish, aholi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali huquqiy mexanizmlarini yaratish borasida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat tuzilmalari o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni yanada mustahkamlash bo‘yicha qonunchilikni, huquqni

qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini aniq yo'naltirilgan holda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish, aholining boshqa zarur ehtiyojlari bilan bog'liq vazifalarni hal etishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Bizning oldimizda demokratik bozor islohotlari ni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha keng miqyosdagi ishlар turibdi.

Bugungi kunda biz chuqur tahlillar asosida 2011—2015-yillarga mo'ljallangan, o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta strategik dasturni ishlab chiqdik va amalga oshirishga kirishdik. Bu dasturlar sanoatni, infrazilmalarni, transport va kommunikatsiya qurilishi ni rivojlantirish, bank-moliya tizimini yanada isloh etish va uning barqarorligini oshirishni, shuningdek, mamlakatimizda qulay ishchan muhit va uni baholashning zamonaviy xalqaro mezonlarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Mazkur dasturlarning amalga oshirilishi uzoq istiqbolda tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi bosqichda ichki ehtiyojning o'sishiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Chunki bunday yondashuv jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning izchil rivojlanishini barqarorlashtirish va rag'batlantirishning omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirayotgan barcha ishlarimizning eng muhim natijasi xalqimiz, avvalo, mamlakatimizni isloh etish va yangilashning hal qiluvchi kuchi bo'l mish yoshlarimizning islohot va demokratlash-tirish borasidagi siyosatni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotganida namoyon bo'lmoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilar!

Ushbu anjuman ishi davomida uning kun tartibiga qo'yilgan masalalar yuzasidan ishlab chiqiladigan xulosa va tavsiyalar, hech shubhasiz, mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanterish borasidagi bizning faoliyatimizda o'zining amaliy ifodasini topadi, deb ishonaman.

Konferensianing barcha ishtirokchilariga samarali ish olib borishlarini tilayman.

Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

«BARKAMOL AVLOD» SPORT O'YINLARI QATNASHCHILARIGA

Aziz farzandlarim!

Hurmatli ota-onalar, ustoz-murabbiylar!

Avvalambor, barcha-barchangizni bugun go'zal va betakror Surxondaryo zaminida boshlanayotgan «Barkamol avlod» sport o'yinlarining tantanali ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etishdan xursandman. Qadimiy Termiz shahriga mutlaqo yangicha qiyofa va chiroy bag'ishlagan, yangidan bunyod etilgan sport inshootlari, jumladan, barchaning hayrati va havasini uyg'otadigan mana shu muhtasham maydonda to'plangan siz, azizlarni — men uchun qadrli bo'lgan barkamol o'g'il-qizlarimni qutlar ekanman, hammangizni g'oyibona bag'rimga bosib, sizlarning qaddi-qomatingiz, azm-u shijoatingizga, yonib turgan ko'zlariningizga boqib, o'zimning cheksiz mehr-muhabbatim, katta ishonch va umidimni bildirishdan haqiqatan ham baxtiyormen.

Navbatdagi — beshinchchi «Barkamol avlod» o'yinlarining yurtimizning janubiy ostonasi bo'lmish

Surxon diyorida, Vatanimiz mustaqilligining shonli 20 yilligi arafasida bo‘lib o‘tayotganining o‘zi chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, nafaqat mamlakatimiz, balki yon-atrofda joylashgan davlatlar aholisining ham e’tiborini tortayotganini, hech shubhasiz, hammamiz yaxshi anglaymiz.

Mamlakatimiz, qit’a va jahon miqyosidagi nufuzli bellashuvlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan, bugun sizlarning saflaringizda barchaga o‘rnak va namuna bo‘lib turgan o‘g‘il-qizlarimiz ertangi kunda jahon maydonlarida O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarib, eng yuksak sovrin va nishonlarning sohibi bo‘lishiga, xalqimizning g‘urur va iftixoriga aylanishiga ishonchimiz komil.

Shu borada birgina misol — yosh sportchilarimizning o‘tgan yili Xitoyda bo‘lib o‘tgan XVI Osiyo o‘yinlarida 11 ta oltin, 22 ta kumush, 23 ta bronza medaliga sazovor bo‘lgani, futbol bo‘yicha o‘smirlar milliy terma jamoamiz Meksikada bo‘ladigan jahon championatida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritganining o‘zi, o‘ylaymanki, ko‘p narsani anglatadi.

Yoshlar sportini rivojlantirish, yuksak darajaga ko‘tarish maqsadida amalga oshirgan ishlarimiz ko‘lamini so‘nggi yillarning o‘zida barcha viloyat va tumanlarimizda 1200 dan ziyod bolalar sporti inshooti, jumladan, 61 ta suzish havzasi, 724 ta maktab sport

zali barpo etilgani, ular zamonaviy jihoz va anjomlar, malakali ustoz-murabbiylar bilan ta'minlangani misoldida ko'rish, kuzatish qiyin emas, albatta.

Bu yilgi «Barkamol avlod» sport o'yinlarining dastlabki bosqichida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan 1 million 600 ming nafardan ziyod farzandlarimizning 740 ming nafari yoki qariyb 50 foizi ishtirok etgani ushbu musobaqlarning qamrovi qanday keng ekani va mana shu kurash maydonlarida bo'lajak bellashuvlarning naqadar qizg'in bo'lishidan darak beradi.

Bugungi yoshlik va nafosat bayramini, yurtimizda shakllangan, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada sport o'yinlari deb nom olgan uch bosqichdan iborat noyob tizimni biz ming-minglab yoshlарimiz uchun sport olamida eng yuksak marralarni egallahsha o'ziga xos parvoz maydonchasi sifatida qabul qilamiz. Bunday samarali tizim siz, aziz bolalarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk, irodasi baquvvat, imon-e'tiqodi mustahkam insonlar etib voyaga yetkazishda, qat'iyat va mardlik ruhida tarbiyalashda yoshlарimizning chiniqish va mahorat mакtabiga aylanib borayotgani barchamizni albatta quvontiradi.

Qadrli o'g'il-qizlarim!

El-yurtimizga xos bag'rikenglik, oriyat va g'urur tuyg'usini ulug'lab yashaydigan Surxon ahli mard-

larni sevadi, maydonga bel bog'lab chiqqan insonlarni ardoqlab boshiga ko'taradi. Shunday otashin sport muxlislarining ishonch va e'tiborini qozonib, ularning olqishlariga sazovor bo'lishning o'zi, hech shubhasiz, har bir ishtirokchi uchun katta sharaf va mas'-uliyatdir.

Shu hayajonli daqiqalarda sizlar g'alaba ishtiyoqi bilan kurashga shaylanib turar ekansiz, Termiziy bobolarimizdek ulug' zotlarni voyaga yetkazgan, Alpomishdek mard o'g'lonlar, Barchinoydek barno qizlarni ulg'aytirgan qanday muqaddas zaminda maydonga tushayotganingizni, o'ylaymanki, chuqr anglab, his etib turibsiz. Bu esa sizlarning har biringizga baland ruh, jo'shqin g'ayrat va ishonch bag'ishlaydi, albatta.

Fursatdan foydalaniib, «Barkamol avlod» sport o'yinlarini yuksak saviyada o'tkazish uchun zamonaviy sport majmualarini barpo etgan mohir quruvchilarga, me'mor va muhandislarga, ana shunday ezgu ishlarga katta hissa qo'shgan mutasadidi va homiy tashkilotlarga, butun Surxon ahliga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Sizlarning, butun el-yurtimizning fidokorona mehnati bilan ko'hna va navqiron Termiz shahri tobora obod bo'lib, ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekistonimizning oltin darvozasiga aylanib bormoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Aziz farzandlarim!

Mamlakatimiz mustaqillik yillarda qanday og'ir va murakkab yo'lni bosib o'tib, bugun barqaror o'sish sur'atlariga erishayotgan, jahondagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun ishonch bilan bardam qadam tashlayotgan ekan, buning eng muhim sharti va mezoni bitta: ya'ni dunyoda yakka-yu yagona bo'lган ona Vatanimiz taraqqiyoti uchun o'zini ayamasdan mehnat qilish, mana shu musaffo osmonimiz, tinch va osoyishta hayotimizni qat'iyat bilan himoya etish, bu yo'lда har qanday sinov va mashaqqatlarga tayyor turishdan iboratdir.

Aynan shu asosda buyuk va muqaddas yurtimizing tuprog'ini ko'zingizga to'tiyo qilib, uning shon-u shuhratini yetti iqlimga tarannum etish uchun o'z hissamni qo'shaman, deb Vatanga chin farzandlik sevgisi va sadoqati bilan yashasangiz, ishonamanki, hech qachon kam bo'lmay siz.

Sizlarni yana bir bor samimi tabriklab, barchangizga bugun boshlanayotgan musobaqalarda baxt va omad, kelgusi hayotingizda yangi-yangi yutuqlar tilayman.

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

larni sevadi, maydonga bel bog'lab chiqqan insonlarni ardoqlab boshiga ko'taradi. Shunday otashin sport muxlislarining ishonch va e'tiborini qozonib, ularning olqishlariga sazovor bo'lishning o'zi, hech shubhasiz, har bir ishtirokchi uchun katta sharaf va mas'uliyatdir.

Shu hayajonli daqiqalarda sizlar g'alaba ishtiyoqi bilan kurashga shaylanib turar ekansiz, Termiziy bobolarimizdek ulug' zotlarni voyaga yetkazgan, Alpomishdek mard o'g'lonlar, Barchinoydek barno qizlarni ulg'aytirgan qanday muqaddas zaminda maydonga tushayotganingizni, o'ylaymanki, chuqur anglab, his etib turibsiz. Bu esa sizlarning har biringizga baland ruh, jo'shqin g'ayrat va ishonch bag'ishlaydi, albatta.

Fursatdan foydalaniб, «Barkamol avlod» sport o'yinlarini yuksak saviyada o'tkazish uchun zamonaviy sport majmualarini barpo etgan mohir quruvchilarga, me'mor va muhandislarga, ana shunday ezgu ishlarga katta hissa qo'shgan mutasadidi va homiy tashkilotlarga, butun Surxon ahliga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Sizlarning, butun el-yurtimizning fidokorona mehnati bilan ko'hna va navqiron Termiz shahri tobora obod bo'lib, ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekistonimizning oltin darvozasiga aylanib bormoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Aziz farzandlarim!

Mamlakatimiz mustaqillik yillarida qanday og'ir va murakkab yo'lni bosib o'tib, bugun barqaror o'sish sur'atlariga erishayotgan, jahondagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun ishonch bilan bardam qadam tashlayotgan ekan, buning eng muhim sharti va mezoni bitta: ya'ni dunyoda yakka-yu yagona bo'lgan ona Vatanimiz taraqqiyoti uchun o'zini ayamasdan mehnat qilish, mana shu musaffo osmonimiz, tinch va osoyishta hayotimizni qat'iyat bilan himoya etish, bu yo'lda har qanday sinov va mashaqqatlarga tayyor turishdan iboratdir.

Aynan shu asosda buyuk va muqaddas yurtimizing tuprog'ini ko'zingizga to'tiyo qilib, uning shon-u shuhuratini yetti iqlimga tarannum etish uchun o'z hissamni qo'shaman, deb Vatanga chin farzandlik sevgisi va sadoqati bilan yashasangiz, ishonamanki, hech qachon kam bo'lmaysiz.

Sizlarni yana bir bor samimi tabriklab, barchangizga bugun boshlanayotgan musobaqalarda baxt va omad, kelgusi hayotingizda yangi-yangi yutuqlar tilayman.

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

BU BUYUK VATANDA INSON ULUG‘, XOTIRA — MUQADDAS

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan e’lon qilingan 9-may — Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

Hamma narsa inson uchun, uning manfaatlari uchun. Ana shu ezgu maqsad istiqlol yillarida hayotimizda mustahkam o’rin egalladi, izchil islohotlarning, yurtimiz mustaqil taraqqiyot yo’lining bosh yo’nalishi sifatida hamyurtlarimiz hayotida o’zining mustahkam ifodasini topdi. Zotan, bugun O’zbekiston inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati ulug’lanadigan buyuk mustaqil davlatga aylandi.

Xotira va qadrlash — xalqimizning asriy qadriyatlari, ulug’ fazilatlaridan. El-yurtining tinchligi, osoyishtaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar hamisha xalqimiz ardog’idadir. Ana shunday mardlik va jasorat namunasini ko’rsatganlarga, jang maydonlarida jonini fido qilgan bobolarimiz, sabr-bardosh bilan katta qiyinchiliklarni yengib o’tgan nuroniy momolarimizni sharaflash, xotirasini abadiylashtirish, ularga g’amxo’rlik va e’tibor ko’rsatish

mustaqillik yillarda yangicha ma’no-mazmun bilan boyidi.

Bu jihatlar yurtimizda keng nishonlanayotgan Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tadbirlarda, ona diyorimizni, xalqimizning ozodlik va istiqlolini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoyi yurtdoshlarimizga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, hurmat-ehtiromda yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2011-yil 22-aprelda qabul qilingan «Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi Farmoni mamlakatimizda Ikkinci jahon urushi qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasıdir. Mazkur Farmonga muvofiq, barcha shahar va tumanlarda, qishloq va mahallalarda urush qatnashchilari va nogironlariga pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

9-may. Poytaxtimizdagı Xotira maydoni har qachongidan gavjum. Bu yerga urush va mehnat faxriylari, hukumat a’zolari, deputatlar va senatorlar, harbiylar, jamoatchilik vakillari tashrif buyurdi.

Maydon uzra mahzun musiqa taraladi.

Soat 9.00. Maydonga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kirib keldi.

Davlatimiz rahbari harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Prezidentimiz Ikkinci jahon urushida jon fido qilgan minglab vatandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

— Bugun butun xalqimiz 9-may sanasini — fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaning 66 yillik bayramini keng nishonlamoqda. Bu qutlug‘ sana bilan, avvalambor, safimizda sog‘-omon yashab kelayotgan urush qatnashchilarini, muhtaram faxriyalarimizni, barcha-barcha yurtdoshlarimizni chin qalbimdan samimiyl tabriklayman, — dedi Islom Karimov.

Ma'lumki, 1999-yildan 9-mayni yurtimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlaymiz.

Xotira, qadr degan tushunchalar azal-azaldan el-yurtimizning tafakkuri, ma’naviy hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lib keladi. O‘zini, o‘z el-yurtining o‘tmishini, tarixini eslamaydigan, bilmaydigan, o‘z xotirasida saqlamasdan yashaydigan odam bolasini, ongli insonni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Xotira deganda, barchamiz qon-qonimiz, suyaksuyagimizga singib ketgan muqaddas tuyg‘uni tu-shunamiz. Chindan ham, o‘tganlarni xotirlash, ularning ruhini yod etish xalqimiz uchun asrlar davomida ezgu an’ana, ezgu odatga aylanib qolgan.

Tarixiy xotira — bu, avvalo, hayot mazmunini, avlodlar o‘rtasidagi vorislik tuyg‘usini anglash demakdir, dedi davlatimiz rahbari. Uzoq-yaqin

o‘tmishda sodir bo‘lgan voqeа-hodisalardan bugungi va ertangi kun uchun zarur saboq va xulosalar chiqarib yashash demakdir. O‘z bolalari va avlodlariga, ularning ong-u shuuriga ajdodlar ruhiga hurmat va ehtirom tuyg‘usi bilan yashashni singdirish demakdir.

Ikkinci jahon urushi, uning jarohatlari el-yurtimiz xotirasida umrbod saqlanadi. Ko‘pni ko‘rgan, jafokash xalqimiz bu urushda ne-ne asl farzandlaridan, oilaning tayanchi va suyanchi bo‘lmish qancha-qancha navqiron o‘g‘lonlaridan judo bo‘lgan, dedi Islom Karimov.

Agar urush arafasida O‘zbekistonda 6,5 millionga yaqin aholi yashagan bo‘lsa, shundan 1,5 millioni urushda bevosita ishtirok etgan. Yosh go‘dak va bolalarmi, qariyalar va ayollarmi hisobga olmaganda, xalqimizning 40 foizdan ko‘prog‘i qo‘liga qurol olib, jang-u jadallarda qatnashgan. Va bu dahshatli qирг‘inda qariyb 500 ming yurtdoshimiz, ya’ni urushda qatnashganlarning 30 foizi halok bo‘lganini inobatga oladigan bo‘lsak, erishilgan g‘alabaning qadr-qimmati nechog‘liq baland ekani, O‘zbekiston xalqining fashizmga qarshi kurashga qanday katta hissa qo‘shgani yaqqol ayon bo‘ladi.

Bu haqiqatni hech kim, hech qachon unutmasligini istardim, qolaversa, talab qilardim, dedi Prezidentimiz.

Ishonchim komil, bu mard va jasur yurtdoshlarimiz qandaydir noma'lum tepalikni egallahash uchun emas, avvalo, fashizm balosini yurtimiz ostonasiga yo'latmaslik uchun, o'zining ota-onasi, suyukli yori, aziz farzandlari, yor-u do'stlarini, el-yurtini himoyalash, asrash uchun jangga kirgan, jon fido qilgan.

Shuning uchun ham bu dahshatli urush yetkazgan og'ir jarohat, bitmas yara bo'lib, hech qachon xotiramizdan o'chmaydi. Yurtimizda biron-bir oila, biron-bir xonodon yo'qki, kimidir bu urushda qatnashmagan bo'lsin, bu urush ularning boshiga kulfat keltirmagan bo'lsin. Bu mudhish qirg'in tufayli qancha askarlar mayib-majruh bo'lib qaytgan, qancha ayollar beva, minglab bolalar yetim bo'lib qolgan.

Tabiiyki, har bir oila jang maydonlarida qurban bo'lganlarni, bedarak ketganlarni, o'z ajdodining xotirasini qancha yillar o'tsa ham armon bilan eslaydi.

Bugun poytaxtimizda, viloyat, shahar va tuman markazlarida barpo etilgan mana shunday go'zal Xotira maydonlarida urushda jasorat ko'rsatib halok bo'lganlar, front ortida kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qilgan matonatli insonlarning aziz xotirasi oldida bosh egib, ta'zim qilish bar-chamiz uchun ham qarz, ham farz.

Bir so'z bilan aytganda, xotira tuyg'usining asl ma'nosi bugungi tinch-osuda, erkin hayotga biz

osonlikcha erishmaganimizni, bu yorug‘ kunlar osmondan tushmagani, qanday og‘ir mashaqqat bilan qo‘lga kiritilganini doimo eslatishni ifoda etadi.

Bugungi ayyomning yana bir muhim jihat shundaki, u bir-birimizni, avvalambor, safimizda tetik bo‘lib yurgan urush qatnashchilarini qadrlab, ularga mehr-oqibat ko‘rsatib yashashga da‘vat etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 8 ming 600 dan ortiq urush qatnashchisi hayot kechirmoqda. Muh-taram faxriyalarimizning hayotini mazmunli qilishga, umrini uzaytirishga qo‘limizdan kelgancha hissa qo‘sish, ularga nafaqat mana shunday bayram kunlarida, balki har kuni, har soatda g‘amxo‘rlik va mehribonlik ko‘rsatish barchamiz uchun, avvalambor, rahbarlar uchun ham qarz, ham farz ekanini unutmasligimiz kerak, dedi Yurtboshimiz.

Xotira va qadrlash marosimining yana bir muhim ahamiyati shundaki, u barchamizni bugungi notinch va tahlikali dunyoda doimo sezgir, hushyor va ogoh bo‘lib, tinch-osoyishta hayotimizning, musaffo osmonimizning qadriga yetib yashashga da‘vat etadi.

Shu ma’noda, dunyoning ayrim mamlakatlarida bugun qanday nizo va qarama-qarshiliklar paydo bo‘layotganini unutmasligimiz darkor. Misol uchun, mana, yon qo‘sнимиз — Afg‘онистонда 30 yildan buyon urush davom etmoqda.

Biz bunday notinchliklardan tegishli xulosalar chiqarishimiz, yurtimizda hukm surayotgan tinchlikni, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashimiz kerak. Xalqimizning eng katta boyligi — bag'rikenglik, mehr-oqibat. Biz bu bag'rikenglikni, mehr-oqibatni doimo asrab-avaylashimiz zarur.

Biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk va ezgu maqsadlarga erishish, dunyodagi rivojlangan, demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rin egallash haqida gapirganda, bu yo'lida bizning tayanchimiz, suyanchimiz bo'lgan yoshlarni milliy g'oyamiz ruhida, hech kimdan kam bo'lmaydigan avlod etib tarbiyalash — hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yaqinda Surxondaryo viloyatida bo'lib, yoshlar bilan suhbatlashganimda, kuni kecha u yerda bo'lib o'tgan «Barkamol avlod» sport o'yinlarini televdeniye orqali kuzatganda ko'pchilik qatori men ham ko'zları yonib, g'ayrat-shijoatga to'lib turgan navqiron o'g'il-qizlarimizga boqib, katta g'urur va iftixor tuyg'usini his etdim, dedi davlatimiz rahbari.

Eng zamonaviy bilimga, keng dunyoqarashga ega bo'lish, o'z qadr-qimmatini anglash, hech kimdan kam bo'lmaslikka, marrani baland qo'yib yashashga intilish farzandlarimizning ichki dunyosiga tobora singib borayotgani hammamizni quvontiradi, albatta.

Fursatdan foydalanib, barcha urush qatnashchilari, muhtaram faxriylarimizni, butun xalqimizni

bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor tabriklayman. Barcha vatandoshlarimizga tinchlik-omonlik, baxt va omad tilayman, dedi Islom Karimov.

Motamsaro ona haykali poyi shu kuni anvoyi gullarga burkandi. Xotira maydoni oqshomga qadar yurt tinchligi va ozodligi, farzandlarining porloq istiqboli uchun jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo etish uchun kelgan ziyorat-chilar bilan gavjum bo‘ldi.

* * *

Prezidentimiz Islom Karimov shu kuni poytaxtimiz markazida bunyod etilayotgan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va g‘oyasi asosida bunyod etilayotgan ushbu bino arxitekturaviy muhandislik yechimiga ko‘ra noyob inshootdir.

— Ushbu inshoot bugungi va kelajak avlodlarga xizmat qiladigan darajada mustahkam va muhtasham bo‘lmog‘i zarur, — dedi Yurtboshimiz.

— И. Каримов, 19 м.

VI UMUMJAHON SUV FORUMIGA TAYYORGARLIK BO‘YICHA TOSHKENT MINTAQAVIY KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA QUTLOV MUROJAATI

Muhtaram konferensiya qatnashchilari!

VI Umumjahon suv forumiga tayyorgarlik doirasidagi mintaqaviy konferensiya ishtirokchilarini — nufuzli ekspertlar, olimlar, xalqaro tashkilotlar, eko-logik harakatlar va moliya institutlari vakillarini samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

Azal-azaldan bizning mintaqamizda suv eng aziz ne’mat, hayot va farovonlik manbayi sifatida qadrlangan, desak, hech qanday mubolag'a bo‘lmaydi. Ikki azim daryo — Amudaryo va Sirdaryo asrlar davomida O‘rta Osiyoda istiqomat qiladigan aholining toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini, sug‘oriladigan dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun zarur bo‘lgan darajada suv bilan ta‘minlab kelgan. Aynan shu zaminda ko‘p asrlar muqaddam sayyoramizda birinchilardan bo‘lib irrigatsiya va suvdan samarali foydalanish tizimi yaratilgan.

XXI asr bo‘sag‘asida O‘rta Osiyo xalqlari uchun, sayyoramizning boshqa ko‘plab mintaqalarida bo‘lgani

kabi, suv resurslaridan oqilona vaadolatli foydalanish masalasi muhim hayotiy ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki o'tgan asrning ikkinchi yarmida yirik transchegaraviy daryolardan uzoqni o'ylamay foydalanish oqibatida mintaqamiz ekologik halokat yoqasiga kelib qoldi.

Bir avlod umri davomida noyob va go'zal den-gizdan qurib va yo'qolib borayotgan suv havzasiga aylangan Orol fojiasi buning yaqqol dalilidir. Bir paytlar gullab-yashnagan Orolbo'yi hududi esa bugungi kunda ayanchli sahroga aylanmoqda.

Inson hayoti, salomatligi, millat genofondiga salbiytas'sir ko'rsatadigan omillar oqibatida nafaqat bevosita ekologik halokat hududida yashovchi aholi, balki butun O'rta Osiyo mintaqasi doimiy ekologik tahdid ostida qolmoqda.

Suv resurslari taqchilligi, sug'oriladigan ekin maydonlarining yaroqsizlanishi, hayvonot va nabotot dunyosining keskin qisqarishi, iqlim o'zgarishlari, shuningdek, mintaqadagi asosiy daryolar suv oqimining katta qismini tashkil qiladigan Pomir va Tyan-Shan tog'laridagi muzliklar erishining tezlashuvi — bular Orol fojiasi keltirib chiqargan og'ir oqibatlarning bir qismi, xolos.

Aynan shu sababli mintaqadagi transchegaraviy daryolar bo'yida joylashgan davlatlarning hayotiy

ehtiyojlarini azal-azaldan ta'minlab kelgan suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari bugungi kunda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda mintaqaning 6 davlatida istiqomat qiluvchi 50 milliondan ziyod kishining taqdiri suv resurslari, birinchi galda, transchegaraviy daryolardan foydalanish bo'yicha har tomonlama puxta o'ylangan yondashuv va qarorlarga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston V Umumjahon suv forumining ichimlik suvdan foydalanish imkonini insonning eng asosiy huquqi ekani, suv taqchilligi energetik va moliyaviy inqirozdan ko'ra xavfliroq ekani to'g'-risidagi qarorini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, suv resurslarining yalpi taqchilligini, halokatli texnogen, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan loyihalarning amalga oshirilishi suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasini katta xavf ostida xavf qoldiradi.

Sug'oriladigan dehqonchilik barqarorligi va vegetatsiya davrida suv resurslarining yetarli darajada bo'lishiga bevosita bog'liq bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari o'ta muhim bo'lib turgan hozirgi sharoitda bu masala, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu jiddiy tahdidlarni inobatga olmaslik barqaror rivojlanish istiqbollarini hamda Qozo-

g'iston, Turkmaniston va O'zbekistonning o'n millionlab aholisining bu yerda yashashini xavf ostida qoldiradi.

Bundan tashqari, yangi ulkan gidroinshootlar qurilishi mo'ljallanayotgan joylar bir necha marotaba 9 balli zilzilalar sodir bo'lgani isbotlangan va tasdiqlangan kuchli seysmik zonada joylashgan. Mazkur hududda, ilgari ham bir necha bor kuzatilganidek, kuchli yer silkinishi sodir bo'lsa, tuzatib bo'lmaydigan, yuz minglab odamlarning hayotini xavf ostida qoldiradigan texnogen halokat yuz berishi mumkin.

Bugun insoniyat oldida tabiatni hozirgi va kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash, uni odamlar turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, tabiatdan foydalanish bo'yicha shakllangan tizimni buzishi mumkin bo'lgan xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilishdek muhim vazifalar turibdi.

Shu ma'noda, mintaqamiz xalqlari uchun transchegaraviy daryolardan umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar va qoidalar asosida foydalanishni kafolatlaydigan, har bir tomon uchun tenglik, o'zaro manfaat vaadolatni ta'minlaydigan samarali mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini yaratish hayotiy muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, mintaqaviy va global darajada gidrologik balansni saqlash, suv

resurslarini asrash va tejash, suvdan foydalanish hajmini kamaytirishni ta'minlovchi dehqonchilik tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suvni tejaydigan zamnaviy texnologiyalarni joriy etish — bular hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan g'oyat muhim masalalar bo'lib, bizdan alohida e'tibor va o'zaro manfaatli muhokamani talab qiladi.

Toshkent mintaqaviy konferensiyasi yakunlari kelgusida BMTning Mingyllik rivojlanish maqsadlari dasturi ijrosini ta'minlash yo'lidagi samarali hamkorligimiz uchun mustahkam asos bo'ladi va VI Umumjahon suv forumiga tayyorgarlik ko'rishga salmoqli hissa qo'shami, deb ishonch bildirishga ijozat bergaysiz.

Konferensianing barcha ishtirokchilari ishiga yuksak samara va muvaffaqiyatlar, kelgusidagi muhim va xayrli faoliyatiga zafarlar tilayman.

Samimiy ehtirom bilan,

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

**«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY-IJTIMOIY
TARAQQIYOTINING MUSTAQILLIK
YILLARIDAGI (1990—2010-YILLAR) ASOSIY
TENDENSIYA VA KO'RSATKICHLARI HAMDA
2011—2015-YILLARGA MO'LJALLANGAN
PROGNOZLARI» STATISTIK TO'PLAMIGA
YOZILGAN SO'ZBOSHI**

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimiz bundan yigirma yil oldin o'z mustaqilligini e'lom qilib, tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu yillar davomida bosib o'tgan murakkab, shu bilan birga, sharaflı yo'limizga nazar tashlar ekanmiz, O'zbekistonning o'tgan davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish borasida erishgan marra va natijalarini xolisona baholash zarurati mavjud ekanini anglaymiz.

Muxtasar aytganda, mustaqil taraqqiyotimizning eng birinchi kunlarida iqtisodiyotimiz qanday ahvolda bo'lgani, o'tgan tarixan qisqa davr — yigirma yil davomida iqtisodiyotimiz va hayotimiz darajasi qanday sur'atlar bilan rivojlangani, qanday yuksak cho'qqlarni qo'lga kiritganimiz, eng muhimmi, qanday istiqbol rejalarini tuzayotganimizga tanqidiy baho berishimiz lozim. Biz o'z oldimizga qo'yayot-

gan maqsad esa barchamizga yaxshi ma'lum — bu zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratish va uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.

Erishgan yutuq va marralarimizni xolis va munosib baholash uchun, avvalambor mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki yillarda qanday murakkab vaziyatda bo'lganini esga olishimiz va o'zimizga aniq tasavvur etishimiz zarur.

Markazlashtirilgan rejalashtirish va taqsimlash mexanizmi asosida faoliyat ko'rsatgan butun sovet tizimiga xos bo'lgan illatlar bilan bir qatorda, respublikamiz iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanib, faqat xomashyo yetkazib berishga yo'naltirilgani, iqtisodiyot, ekologiya va aholi genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatgan to'la va mutlaq paxta yakkahokimligi yurtimizdagи vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi.

Buning oqibatida, ulkan tabiiy, mineral xomashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinnlardan birida turar edi. SSSR parchalanib ketganidan keyin vujudga kelgan sharoitda iqtisodiyotning fojiali ravishda inqirozga yuz tutishi, inflatsiyaning o'ta keskin o'si-

shini jilovlash, ilgari qaror topgan xo'jalik, ishlab chiqarish va moliyaviy aloqalarning butunlay izdan chiqib ketishi oqibatlariga barham berish, ishsizlikning yanada avj olishiga yo'l qo'ymaslik favqulodda muhim ahamiyat kasb etardi.

Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, jahon tajribasini har tomonlama puxta o'rganish, umuminsoniy qadriyatlarni chuqr anglash, milliy urf-odat va an'analarimizni asrabavaylash va yanada mustahkamlash asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etishga azm-u qaror qildik.

O'tgan davrda amalga oshirgan barcha ishlarimizni baholar ekanmiz, bugungi O'zbekistonning shakllanishidagi ikki bosqichni alohida ajratib ko'rsatish uchun barcha asoslarimiz bor: 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladigan birinchi bosqich — o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdag'i islohot va o'zgarishlar davri.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasini muntazam oshirib borishni ta'minlashda 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich —

mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberallash-tirish va modernizatsiya etish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomon-lama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi ana shu yillarning barchasini o'zaro bog'laydigan hal qiluvchi asos, o'zak bo'g'in bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda qabul qilingan, «o'zbek modeli» deb nom olgan, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li — bularning barchasi, ayniqsa 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi davrida o'zining nechog'liq to'g'ri va hayotiy ekanini isbotladi.

Biz istiqlolimizning birinchi kunlaridanoq chet-dan turib tiqishtirilgan «shok terapiyasi» usullaridan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan soxta tasavvurlardan voz kechdik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga

o'tish jarayonida «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang» va «Islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun» kabi mashhur tamoyillarga amal qilib tadrijiy yondashuvni, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik.

O'zbekistonda qabul qilingan iqtisodiy taraqqiyot modelining eng muhim xususiyati chetdan qarz olish siyosatining chuqur o'ylanganida, mamlakatimizni tashqi omillarga bog'lab qo'yishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechishda namoyon bo'ldi.

Shu bilan birga, davlatimiz mustaqil taraqqiyotning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizga uzoq muddatli xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun amalda qiyosi bo'limgan shart-sharoit va kafolatlar yaratishga alohida e'tibor qaratdi, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ishonchli sherik sifatida o'zini ko'rsatdi.

Mustaqil taraqqiyotimizning ana shu yigirma yillik davri davomida amalga oshirgan ishlarimizni tahlil qilar ekanmiz, biz tanlagan model, chuqur o'ylanigan va izchil amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning ustuvor yo'naliishlari yurtimizdagi siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati, milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining hayot darajasi izchil oshib borishi uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi, deb ta'kidlashga barcha asoslarimiz bor.

mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberalash-tirish va modernizatsiya etish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomon-lama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi ana shu yillarning barchasini o'zaro bog'laydigan hal qiluvchi asos, o'zak bo'g'in bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda qabul qilingan, «o'zbek modeli» deb nom olgan, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li — bularning barchasi, ayniqsa 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi davrida o'zining nechog'liq to'g'ri va hayotiy ekanini isbotladi.

Biz istiqlolimizning birinchi kunlaridanoq chet-dan turib tiqishtirilgan «shok terapiyasi» usullaridan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan soxta tasavvurlardan voz kechdik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga

o'tish jarayonida «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang» va «Islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun» kabi mashhur tamoyillarga amal qilib tadrijiy yondashuvni, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik.

O'zbekistonda qabul qilingan iqtisodiy taraqqiyot modelining eng muhim xususiyati chetdan qarz olish siyosatining chuqur o'ylanganida, mamlakatimizni tashqi omillarga bog'lab qo'yishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechishda namoyon bo'ldi.

Shu bilan birga, davlatimiz mustaqil taraqqiyotning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizga uzoq muddatli xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun amalda qiyosi bo'lмаган shart-sharoit va kafolatlar yaratishga alohida e'tibor qaratdi, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ishonchli sherik sifatida o'zini ko'rsatdi.

Mustaqil taraqqiyotimizning ana shu yigirma yillik davri davomida amalga oshirgan ishlarimizni tahlil qilar ekanmiz, biz tanlagan model, chuqur o'ylan-
gan va izchil amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning ustuvor yo'naliishlari yurtimizdagi siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati, milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining hayot darajasi izchil oshib borishi uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi, deb ta'-
kidlashga barcha asoslarimiz bor.

tuzilmasi shakllantirildi, joylarda hokimlik institutini joriy etish orqali mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil etildi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi — mahalla instituti rivojlantirildi va mustahkamlandi.

Mamlakatimizda bozor infratuzilmasi institutlari yaratilib, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi-gan mutlaqo yangi moliya va ikki bosqichli zamon-naviy bank tizimi shakllantirildi, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida chuqr iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi.

Istiqlol yillarida mulkchilikning tuzilishida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, ko‘p ukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbir-korlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi o‘rin egalladi, ayni vaqtda bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbayiga, aholi bandligi o‘sishining eng muhim omiliga aylandi.

Yurtimizda yoqilg‘i-energetika va g‘alla mustaqilligiga erishildi. Boy mineral xomashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqr qayta ishlashga asoslangan zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda, korxonalarni modernizatsiya qilish texnik va texnologik yangilashning keng ko‘lamni dastur-

larini izchil amalga oshirish ta'minlanmoqda. Energetika, neft-gaz-kimyo, rangli metallurgiya, kimyo va to'qimachilik sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika va mikrobiologiya, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishslash, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi iqtisodiyotimiz taraqqiyotining lokomotivi hisoblangan, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarning keng jalb etilishi, eksport salohiyati va mahsulot eksporti hajmining oshirilishi milliy iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni ta'minlash borasidagi eng muhim natija bo'ldi, tashqi qarzlarning maqbul darajasi saqlangan holda, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi va oltin-valuta resurslarining barqaror o'sishiga erishildi.

Jahon tajribasida o'xhashi bo'limgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi davlatimiz tomonidan jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan doimiy e'tibor iqtisodiyotimizning o'sishi va yangilanishi, demokratik o'zgarishlarni joriy etish va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish

bo‘yicha o‘zgalarning havasini uyg‘otayotgan sur’atlarga erishishda beqiyos ahamiyatga, tom ma’-noda «ijobiy portlash» effektiga ega bo‘ldi.

Sog‘liqni saqlash sohasida Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha izchil ish olib borilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda sifat jihatidan yangi, zamonaviy talablarga javob beradigan, o‘z tarkibida respublika va viloyat tez tibbiy yordam markazlarini birlashtirgan tibbiy muassasalar tarmog‘i yaratildi.

Barcha viloyat markazlarida kattalar va bolalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiy markazlar tarmog‘i faoliyat yuritmoqda.

Mustaqillik yillarda qishloq joylarda zamonaviy asosda jihozlangan 3 ming 200 dan ortiq qishloq vrachlik punkti barpo etildi.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha zamonaviy tizim yaratildi, barcha viloyat markazlari va Toshkent shahrida perinatal va skrining markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Albatta, o‘tgan davrda amalga oshirilgan barcha ishlarni sanab o‘tishning imkonini yo‘q, biroq bu o‘zgarishlar, qo‘lga kiritilgan yutuq va marralarimizning eng muhim xususiyatini o‘z kuchimiz bilan barpo etgan ko‘plab noyob inshootlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Ya’ni, mustaqillik yillarda barpo etilgan strategik sanoat obyektlari — Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavo-

di, Asaka va Samarqand avtomobil zavodlari, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Dehqonobod kalyli o‘g‘itlar zavodi, o‘nlab to‘qimachilik majmualari, yuzlab yangi korxonalar va muhandislik-kommunikatsiya infraguzilma obyektlari, mamlakatimizning yagona transport tizimini yaratadigan, transmilliy transport yo‘nalishlari va jahon bozoriga chiqishni ta’minlaydigan zamонавиев автомобил ўйлари, 694 kilometrdan зиёд узунликдаги Navoiy — Uchquduq — Sulton Uvaystog‘ — Nukus ва 223 kilometrlik Toshg‘uzor — Boysun — Qumqo‘rg‘on temiryo‘l tarmoqlari, «Navoiy aeroporti» ва «Angren» xalqaro logistika markazlari — буларнинг барчаси амалга оширган ишларимизнинг ко‘лами ва миқёси нақадар улкан еканидан далолат беради.

O‘zbekistonning iqtisodiyotni isloh etish, barqaror mutanosib iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, inqirozga qarshi choralarни амалга ошириш борасида ершган ўтуqlari Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiy institutlar, dunyodagi boshqa qator yetakchi moliyaviy tashkilotlar tomonidan e’tirof etildi.

Mamlakatimizning o‘tgan 20 yillik mustaqil taraqqiyoti давомида амалга оширган ишларимизни сархисоб етиб, муносиб баҳолар еканмиз, шу билан бирга, ершилган бу мурралар халқимиз учун

munosib hayot sharoitini yaratish va mamlakatimizni ravnaq toptirish yo'lidagi dastlabki qadamlar ekanini yaxshi tushunamiz.

Biz shu davr mobaynida erishgan barcha yutuqlarimizga mahliyo bo'lib, havolanish tuyg'usi va xotirjamlik kayfiyatiga berilishga aslo yo'l qo'ymasligimiz lozim.

Shuni doimo yodda tutishimiz kerakki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi va erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda kechayotgan tub o'zgarishlar jarayonidagi o'z o'rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablari va jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobat kurashiga mos holda qadam tashlaydigan davlatgina birinchi navbatda muvaffaqiyat qozona oladi.

Aynan shunday yondashuv va tamoyillar O'zbekistonni o'rtta va uzoq istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan reja va dasturlarimiz, ustuvor yo'nalishlarimiz asosida mujassam bo'lmog'i darkor.

Bunda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning davomiyligini va yanada izchil chuqurlashib borishini ta'minlash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning bugungi kundagi eng muhim ustuvor yo'nalishlarimiz chuqr tarkibiy o'zgarishlarni amalga

oshirish, jadal va mutanosib rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy ishchanlik muhitini shakllantirish va chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, eksport sohasidagi mav-qeyimizni mustahkamlashdan iboratdir.

Hozirgi bosqichda ichki ehtiyojning o'sishiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Chunki bunday yondashuv jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning izchil rivojlanishini bar-qarorlashtirish va rag'batlantirishning omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy soha va xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirish, infratuzilma, transport-kommunikatsiya yo'nalishidagi loyihalarni amalga oshirish va yangi uy-joy obyektlarini ayniqsa qishloq joylarda barpo etish, ish haqi va aholi daromadlarining izchil oshib borishini ta'minlash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qolishi kerak.

Yurtimizdagi mavjud imkoniyat va resurslar, o'tgan yillar davomida yaratilgan mustahkam salohiyat o'z kelajagimizga katta ishonch bilan qarash uchun bizga barcha zarur asoslarni beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim soha va tarmoqlarini rivojlantirishning 2011 — 2015-yillarga

mo‘ljallab qabul qilingan mikroiqtisodiy ko‘rsat-kichlar va hisob-kitob parametrlari prognozlari 2015-yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 2010-yilga nisbatan 145 — 150 foiz atrofida oshirishni nazarda tutadi, o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari esa kamida 8 foizni tashkil etishi kerak.

Yaqin besh yilda jalb etiladigan kapital qo‘yilmalar hajmi 2,3 marta, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar miqdori taxminan 2 marta o‘sishi ko‘zda tutilmoqda. Bu mablag‘lar iqtisodiyotimizda jiddiy tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, yetakchi sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, avvalo energetika, neft-gaz sohasi, mashinasozlik, kimyo va rangli metallurgiya, yengil sanoat, shuningdek, transport-kommunikatsiya sohasi, mamlakatimizda jahon bozorida talab yuqori bo‘lgan mutlaqo yangi raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha keng miqyosdagi loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Yurtimizda aholining umumiylar daromadlarini 2015-yilda 2010-yilga nisbatan kamida 2,6 marta oshirish ko‘zda tutilmoqda, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdori ham sezilarli ravishda ortadi. Qisqacha aytganda, aholining hayot sifati va darajasi ancha yuksaladi.

Bugun, bosib o‘tgan yo‘limizga nazar tashlab, shu yillar davomida amalga oshirgan ishlarimiz,

shuningdek, istiqbol rejalarimizni baholar ekanmiz, milliy davlatchiligidan qayta tiklash, siyosiy va iqtisodiy mustaqilligimizni mustahkamlashning eng og‘ir va mashaqqatli sinovlaridan munosib tarzda o‘tgan, avvalo o‘z kuchi, imkoniyati va salohiyatiga tayanib, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni barpo etish va jahon hamjamiatidan mustahkam o‘rin egalash yo‘lida ishonch bilan qat’iy ilgarilab borayotgan buyuk va muqaddas Vatanimiz, mard va oliyanob xalqimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Islom KARIMOV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, hurmatli jurnalistlar, nashriyot va matbaa sohasi vakillarini — bugungi kunda tobora o'tkir va ta'sirchan kuchga ega bo'lib borayotgan, og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı kasb egasi bo'lgan, o'zini axborot sohasini rivojlantirishdek oliyanob ishga bag'ishlagan siz azizlarni 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, hammamiz uchun aziz va muqaddas bo'lgan Vatanimiz mustaqilligining yaqinlashib kelayotgan 20 yillik buyuk sanasi arafasida o'tayotgan bu bayramning alohida ma'no-mazmuni borligini, o'ylaymanki, nafaqat soha xodimlari, balki ularning ijodi va mehnati mahsulidan har kuni bahramand bo'ladigan millionlab yurtdoshlarimiz, butun xalqimiz yaxshi anglaydi.

Ayni shunday damlarda el-yurtimiz hayotida tarixan qisqa bir davrda ro'y bergan o'zgarishlar —

o‘z kuch va salohiyatimizga tayanib, milliy davlat-chiligidan qayta tiklash, siyosiy va iqtisodiy mustaqilligimizni mustahkamlash, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, xalqaro maydonda mamlakatimizning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga erishish yo‘lida qanday ulkan yutuq va marralarni qo‘lga kiritganimiz haqida so‘z yuritishimiz tabiiydir.

Ayni shu kunlarda ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirgan ishlarimizga tanqidiy baho berar ekanmiz, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, zamonning o‘zi talab qilayotgan muhim masalalarni kun tartibiga qo‘yish va ularni hal qilish barchamiz uchun eng dolzarb vazifa bo‘lib turgani xususida ortiqcha gapirishga hojat yo‘q, deb o‘layman.

Bugungi qutlug‘ ayyomda o‘lkamizda mustaqil milliy matbuot paydo bo‘lgan davrdan boshlab, bu ishning tamal toshini qo‘yan, doimo xalq bilan, uning dard-u tashvishlari, ezgu orzu-umid va intilishlari bilan yashagan ma’rifatparvar bobolarimiz, bu yo‘lda o‘zini fido qilgan insonlarning, muhtaram faxriylarimizning nomlarini hurmat va ehtirom bilan yod etamiz.

Yurtimizda amalda o‘zini oqlamagan eski mafkura hukmronlik qilgan davrlarni eslar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, o‘scha zamonda ham axborot sohasining jonkuyar namoyandalari, qanday og‘ir

bo‘lmasin, voqelikni to‘g‘ri yoritish, xalqimiz boshidan kechirgan mashaqqatli kunlarni yuragidan, qalbidan o‘tkazish, yaqin tariximizdagi mash‘um yillarda millatimizning qadr-qimmatini, sha’nini himoya qilish, turli tuhmat va bo‘htonlardan asrash, eng muhim, milliy qadriyatlarimiz, o‘zligimizni saqlashda o‘zini ayamasdan, vijdonan xizmat qilgанини, mardlik va ma’naviy jasorat ko‘rsatganini bugun katta minnatdorlik bilan tilga olishimiz o‘rinlidir.

Biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardanoq milliy g‘oyani shakllantirish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdek buyuk maqsadlarni har qaysi insonning ongida, ma’naviy olamida keng qaror toptirish yo‘lida matbuotimiz katta hissa qo‘sheyotganini, buning ahamiyati va mohiyatini alohida ta’kidlash va e’tirof etish zarur, deb bilaman.

Shu borada odamlarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning dunyoqarashi tobora o‘zgarib, ularning ong-u tafakkuri yuksalib, siyosiy va fuqarolik faoliyi, daxldorlik tuyg‘usi oshib borayotgan bir paytda bu jarayonlarda aynan matbuot sohasining o‘rnini va ta’sirini yuksak baholashimiz albatta adolatdan bo‘ladi, deb hisoblayman.

Aziz do‘stlar!

Bugun biz XXI asrda — globallashuv deb nom olgan, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yashar ekanmiz va o‘z oldimizga O‘zbekistonni

rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga olib chiqish maqsadini qo'ygan ekanmiz, davr talab-lari bilan hamohang va hamqadam bo'lib hayot kechirishimiz zarurligini o'zimiz uchun yana bir bor aniq-ravshan tasavvur etib olishimiz shart.

Oldimizda turgan muhim vazifa va maqsadlar ha-qida gapirganda, avvalambor, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni yanada kuchaytirish va ularni yangi, yuqori bosqichga ko'tarish hayotiy zaruratga aylanib borayotganini barchamiz chuqur anglab olmoq-damiz.

Shu borada hayotimizda axborot erkinligini ta'minlash, davlat va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, ularni odamlarning o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'-layotgan voqeа-hodisalarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylan-tirish bugungi kunda eng dolzarb vazifamiz bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining qonuniy kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan, xalqaro demokratik talab va standartlarga to'la javob beradigan huquqiy zamin yaratilgani, sohaning moddiy-texnik bazasi tobora mustahkamlanib borayotgani va bunday ishlar izchil

davom ettirilayotgani, hech shubhasiz, bu yo'ldagi harakatlarimizning muhim tarkibiy qismidir.

Ayni paytda bu yo'nalishda kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalar, amaliy hayotimizda to'siq bo'lib, o'zining yechimini kutayotgan masalalar hali-beri ko'pligini, o'ylaymanki, hammamiz, avvalambor, matbuot jamoatchiligi juda yaxshi anglab, sezib turibdi.

Bugungi kunda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, teleradioeshit-tirishlar, ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlariga oid yangi qonunlarni qabul qilish bo'yicha ishlarni tezlashtirish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari-ning davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash, ularning hokimiyat va jamoatchilik o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shinchalar kiritish ham o'zining amaliy ijrosini kutib turibdi.

Bu qonunlarning qabul qilinishidan hammadan ham ko'proq manfaatdor bo'ladigan siz, jurnalistlar bu jarayonda o'z fikr-mulohazalaringiz, amaliy

takliflaringiz bilan faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Yana bir masala to‘g‘risida to‘xtalishni joiz, deb bilaman. Bu o‘rinda gap davlat tomonidan ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar va matbaa korxonalar, matbuot tarqatuvchi tashkilotlar faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish haqida bormoqda. Avvalambor, bu tuzilmalarga yangi yildan boshlab soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish bo‘yicha imtiyozlar berish rejalashtirilmoqda.

Ana shunday imtiyozlar, albatta, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini qog‘ozda emas, amalda ta’minalash uchun moliyaviy sharoit tug‘dirib berishi, ushbu sohada mehnat qilayotgan ishchi va xodimlarning daromadini, moddiy farovonligini oshirish bilan birga, boshqa bir qator soha va tarmoqlar rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatishi shubhasizdir.

Biz bu borada taraqqiy topgan davlatlar tajribasidan foydalangan holda, ushbu masalaning ijrosini qat’iy nazoratga olishimizni alohida ta’kidlab o‘tmochiman.

Oldimizda turgan yana bir muhim vazifa borki, u ham bo‘lsa, matbuot sohasida hali-beri uchrab turadigan o‘tkir mavzularni chetlab o‘tish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, mansabda o‘tirgan kishilarga

itoatgo'ylik, kimgadir yomon ko'rinaslik, voqelikka bir xil yondashuv kabi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liqdir.

Sohada kadrlar, xususan, yosh jurnalistlarni tay-yorlash tizimini tubdan o'zgartirish, jurnalistik ta'limga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarining o'quv-metodik bazasini takomillashtirish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, katta mahorat va ijodiy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga jalb etish bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerak.

Shular qatorida xalqaro maydonda informatsiya sohasida erishilgan yutuqlarni puxta o'zlashtirish, jurnalistlarimizning o'z xorijiy hamkasblari bilan tajriba almashish tizimini yangicha asosda yo'lga qo'yish vazifasi ham dolzarb bo'lib turibdi. Barchamizga ayonki, bunday vazifalarni bajarishda zamonaviy media texnika va texnologiyalarni, Internet tizimida qo'llanadigan tillarni puxta egallash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, mustaqil, yangicha fikrlaydigan, istedodli yoshlarga ommaviy axborot vositalari sohasida keng yo'l ochib berishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarurligini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Bugungi kunda axborot olamida Internet davri kelgani, internet-televideniye, internet-radio, elek-

tron pochta, onlayn-video kabi ko‘plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari qanday tez sur’atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta’sir doirasi tobora kengayib borayotgani haqida ortiqcha gapirishga zarurat yo‘q, deb o‘ylayman.

Bunday axborot vositalariga, asosan, yoshlarning juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga oladigan bo‘lsak, haqiqatan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Aytish kerakki, yoshlar bilan teng bo‘lib, samimiy va samarali muloqot qilish uchun mana shunday axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini barcha jurnalistlar, birinchi navbatda, yosh jurnalistlarimiz har tomonlama chuqur va atroflicha egallashi kerakligini kimgadir tushuntirib berishga hech qanday hojat yo‘q.

Albatta, Internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o‘rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma’lumotlarni olish, bilim va ma’rifatni oshirishda uning beqiyos o‘rnii va ahamiyati borligini hech kim inkor etolmaydi. Biz odamlarimizning Internet imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishga bo‘lgan intilishlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlaymiz. Takror bo‘lsa-da, aytmoqchiman — axborot olamida qandaydir devor o‘rnatish, o‘z qobig‘iga o‘ralib, mahdudlikka yuz tutish yo‘li bizga aslo ma’qul emas.

Shu bilan birga, bugun yon-atrofimizda, uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga oladigan bo'lsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itishga qaratilgan g'arazli kuchlar ham Internet imkoniyatlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgani va bunday intilishlarning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi.

Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishga, o'zaro adovat va to'qnashuvlarga sabab bo'ladigan bunday xatarlarning oldini olishning bitta yo'li bor: yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, oqni qoradan, do'stni dushmandan ajratishga qodir bo'lgan, bizning qanday boy tarix va merosga ega ekanimizni anglab yashaydigan, imon-e'tiqodli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan insonlar etib voyaga yetkazishimiz, bu masalani hech qachon ikkinchi darajali vazifa, deb bilmasligimiz kerak.

Muhtaram do'stlar!

Jurnalist ahlining mehnati, odamlarga, jamoatchilikka ta'siri haqida shaxsan men doim yuksak fikrdaman. Matbuot minbaridan aytilgan so'z qanday qudratli aks sado berishi mumkinligini, uning ta'siri va samarasini oshirish, avvalo, sizlarning mahoringiz, ijtimoiy pozitsiyangiz, insoniy va ijodiy fa-

zilatlaringizga, hamisha mas'uliyat tuyg'usi bilan ish olib borishingizga bog'liq ekanini millionlab mushtariylar yaxshi biladi va sizdan aynan shuni kutadi.

O'z kasbining haqiqiy ustasi va fidoyisi bo'lgan, o'zining haqqoniy so'zi bilan odamlarni ezgu maqsadlarga safarbar eta oladigan, el-yurt manfaati, xalqimizning bugungi va ertangi kuni uchun yonib yashaydigan siz, jonkuyar jurnalistlarni men o'zimning suyanchim va tayanchim, deb bilishimni bugun yana bir bor aytmoqchiman.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan tabriklar ekanman, barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat, yangi-yangi ijodiy yutuqlar, xona-donlaringizga fayz-u baraka tilayman.

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

O'ZBEKISTON G'ALLAKORLARIGA

Qadrli yurtdoshlar!

Shu kunlarda g'alla tayyorlash mavsumiga yakun yasab, yuksak xirmon bunyod etgan zahmatkash va fidoyi dehqonlarimizning mardona mehnati uchun samimiy minnatdorlik bildirish, ularni bag'rimga bosib, chin qalbimdan tabriklash menga katta mammuniyat yetkazadi.

Bu yilgi o'ta og'ir mavsum sharoitida bunday ulkan g'alabaga erishish, ya'ni 6 million 800 ming tonnaga yaqin g'alla xirmoni yaratish, jumladan, su'g'oriladigan maydonlardan 6 million 700 ming tonna hosil olish naqadar mashaqqatli mehnat evaziga bo'lganini barchamiz yaxshi tushunamiz va buning uchun azamat dehqonlarimizga har qancha tahsintasannolar aytsak, arziydi, albatta.

Haqiqatan ham, ob-havo g'oyat noqulay kelgan, kuchli suv tanqisligining salbiy ta'siri barcha hudud va mintaqalarimizda yaqqol sezilib turgan joriy yilda

mamlakatimiz qishloq xo'jalik xodimlari har qachongidan ham murakkab qiyinchiliklarga duch kelganini ko'plab misollarda ko'rish mumkin.

Avvalo, kuzda va ko'klamda yog'ingarchilikning yetarli darajada bo'limgani tufayli g'alla nihollarini bir tekis undirib olish qanchalik qiyin bo'lganini esga olaylik. Afsuski, bunday vaziyat ko'p joylarda lalmi maydonlarga ekilgan g'allaning nobud bo'lishiga olib keldi. Suv tanqisligi, o'z navbatida, sug'oriladigan maydonlarda ham jiddiy muammolarni tug'dirdi. Tuproqda namlik darajasining yetishmasligi, havo haroratining me'yоридан oshib ketishi, qishloq xo'jalik zararkunandalari va turli kasalliklarning salbiy ta'sirini bartaraf etish dehqonlarimizdan katta mattonat va mahoratni talab qildi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Faqat ishni to'g'ri va oqilona tashkil etish, agrotexnik tadbirlarni puxta o'tkazish, barcha kuch va imkoniyatlarni hosilni saqlab qolishga safarbar qilish, har tomchi suvdan tejamkorlik bilan foydalanish dehqonlarimizga bunday og'ir sinovdan yorug' yuz bilan chiqish imkonini berdi.

Bir so'z bilan aytganda, yerning sirini chuqur bilish, tuproq bilan tillashib yashash kabi bizning dehqonlarimizga mansub bo'lgan azaliy tajriba va omilkorlik fazilatlari joriy yilda mana shunday mo'l

hosil yetishtirishga mustahkam zamin yaratdi. Bu yilgi g‘alabani ta’minalashda dalada ishlayotgan mehnat-chilarimizning ong-u tafakkuri tubdan o‘zgarib, ularning o‘z yeri, o‘z mulkiga nisbatan egalik hissi kuchayib, o‘z mehnatidan tobora ko‘proq bahramand bo‘lib borayotgani hal qiluvchi omil bo‘ldi, deb aytishga to‘liq asosimiz bor.

Albatta, belgilangan shartnoma rejasini ado etisha-da butun qishloq xo‘jaligi sohasi qatori g‘allachilikni zarur moddiy-texnik resurslar bilan ta’minalash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sifatli urug‘lik, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallarini o‘z vaqtida yetkazib berish, imtiyozli kreditlar ajratish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘ylgani dehqonlarimiz uchun katta kuch va madad bag‘ishladi.

Bu yilgi mavsumda Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Samarqand, Toshkent viloyatlarida hosildorlik o‘rtacha 53—64 sentnerni tashkil etgani, Oltinko‘l, Paxtaobod, Romitan, Peshku, Toshloq, Quva, Ishtixon, Pastdarg‘om, Oqqo‘rg‘on, Denov, Sariosiyo, Do‘slik, Xatirchi, Kitob, Uchqo‘rg‘on, Boyovut tumanlarida bu ko‘rsatkich o‘rtacha 60 sentnerdan yuqori bo‘lgani mirishkor o‘zbek dehqonining qanday ulug‘vor ishlarga qodir ekani-dan yaqqol dalolat beradi.

Sariosiyo tumanidagi «Hayitali Boymuhammedov» fermer xo'jaligi gektaridan 88 sentner, G'ijduvon tumanidagi «Marjona Fayz» fermer xo'jaligi 80 sentner, Bاليqchi tumanidagi «Obidjon ota» fermer xo'jaligi 76 sentner, Zangiota tumanidagi «Shuhrat Ziyo» fermer xo'jaligi 76 sentner, Uchko'prik tumanidagi «Hakimboy» fermer xo'jaligi 75 sentner, Xatirchi tumanidagi «Bahriiddin ota» fermer xo'jaligi 74 sentnerdan oshirib hosil olgani fermerlik harakatining naqadar beqiyos imkoniyatlarga ega ekanini amalda ko'rsatib turibdi.

Hurmatli do'stlar!

Qo'lga kiritilgan bugungi ulkan g'alaba haqida gapirganda, albatta, o'z donimiz, o'z beminnat nonimizga ega bo'lish, g'alla mustaqilligiga erishish yo'lida qo'ygan tarixiy qadamlarimizni esga olishimiz tabiiydir.

O'tgan yillar davomida va bu yil yurtimizda g'allachilik sohasida erishgan yutuqlarimizning naqadar katta ahamiyat va qadr-qimmatga ega ekanini o'zimizga tasavvur qilar ekanmiz, mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillarni beixtiyor xayolimizdan o'tkazamiz.

Agar 1991-yilda o'lcamizda jami 940 ming tonna g'alla yetishtirilib, hosildorlik 17 sentnerni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu raqamlarni bu yilgi xirmon

bilan solishtiradigan bo'lsak, tayyorlangan don mahsulotining umumiy hajmi 7 barobardan ziyod, hosildorlik esa 3 karra oshgani misolida bizning bu sohada qanday ulkan, tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tganimiz yaqqol namoyon bo'ladi.

Bugun ana shunday raqamlar haqida so'z yuritar ekanmiz, yana bir o'ta muhim va hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydigan holatni alohida ta'kid-lamasdan bo'lmaydi.

Bundan 20 yil avval, ya'ni sovet tuzumi davrida respublikamizda tayyorlangan g'allaning barchasi davlat oldidagi majburiyatni qoplash uchun topshirilar, mashaqqatli mehnati bilan hosil yetishtirgan dehqonning o'zi esa, donsiz, unsiz qolib ketar edi. Uning ustiga, xalqimizni boqish uchun har yili 3,5—4 million tonna g'allani chetdan olib kelishga majbur bo'lgan holni eslasak, bugungi kunda mamlakatimizda tayyorlanayotgan umumiy hosilimizning faqatgina 37 foizi davlat oldidagi shartnomani bajarish uchun topshirilayotgani ko'p narsani anglatadi. Tayyorlangan donning aksariyat qismi, ya'ni 55 foizdan ortig'i fermer xo'jaliklari va aholi ixtiyorida qoldirilayotgani dehqonlarimizning omborini g'allaga, ro'zg'orini qutbarakaga to'ldirishga xizmat qilmoqda.

Mana shu bиргина misolning o'ziyoq Vatanimiz istiqlolining 20 yillik qutlug' to'yiga tayyorgarlik

ko‘rilayotgan shu kunlarda mustaqillik el-yurtimizga uning manfaatini ta‘minlashda qanday beqiyos imkoniyatlar yaratib berganining yaqqol, hech qanday targ‘ibot-tashviqot talab qilmaydigan isboti emasmi?

Ayni vaqtida g‘allachilikni rivojlantirish hisobidan yurtimizda oziq-ovqat sanoati, chorvachilik va parrandachilik kabi tarmoqlar jadal taraqqiy topib, ichki bozorimizni un va non, go‘sht va sut mahsulotlari, tuxum bilan ta‘minlash masalasida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan natijalarga erishayotganimizni bugun har qadamda ko‘rish, sezish qiyin emas.

Shu borada amalgaloshingizni izchil sa'y-harakatlarimiz tufayli biz endilikda don bo'yicha nafaqat o‘z ehtiyojlarimizni to'la qondirishga, kerak bo'lsa, g‘allani chetga eksport qiladigan davlatlar qatoridan joy olishga muyassar bo'lganimiz, albatta, barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugungi quvonchli ayyomda siz, mirishkor g‘al-lakorlarimiz, ilg‘or mexanizator va kombaynchilarimizni, mutaxassis va mutasaddilar, bu ulkan zafarga munosib hissa qo‘shtigan barcha-barcha insonlarni yana bir bor qizg‘in tabriklab, o‘zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman. O‘zining

oliyjanob, fidokorona mehnati bilan O'zbekistonimizni yanada obod va farovon qilayotgan yurdoshlarimizga butun xalqimiz nomidan ta'zim qilaman.

Xonardonlarimizdan, el-yurtimizdan tinchlik-osoyshtalik, fayz-u baraka arimasin!

Hamisha baxtingiz, omadingizni bersin, halol mehnatingizning rohatini ko'ring, azizlarim!

Islom KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MUNDARIJA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 19 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI. 2010-yil 31-avgust.....	3
BMT BOSH ASSAMBLEYASINING MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARIGA BAG'ISHLANGAN OLIY DARAJADAGI YALPI MAJLISIDAGI NUTQ. <i>Nyu-York shahri,</i> 2010-yil 20-sentabr	10
O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA. 2010-yil 30-sentabr	21
O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA MEHNATKASHLARIGA. 2010-yil 16-oktabr	28
MAMLAKATIMIZDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLAN- TIRISH KONSEPSIYASI. <i>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr</i>	35
«O'RTA OSIYONING TRANSCHEGARAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI: ULARNI HAL ETISHDA XALQARO HUQUQ MEXANIZMLARINI QO'LLASH» MAVZUYIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA. 2010-yil 17-noyabr	105

MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSİYA QILISH YO'LINI IZCHIL DAVOM ETTİRISH – TARAQQIYOTIMIZNING MUHIM OMİLİDIR. <i>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2010-yil 7-dekabr</i>	108
KOLLEKTIV XAVFSIZLIK SHARTNOMASI TASHKILOTI (ODKB) KOLLEKTIV XAVFSIZLIK KENGASHINING MAJLISIDA SO'ZLANGAN NUTQ. <i>Moskva shahri, 2010-yil 10-dekabr</i>	144
XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSİYASI. <i>2010-yil 17-dekabr</i>	150
O'ZBEKİSTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI. <i>2010-yil 31-dekabr</i>	169
O'ZBEKİSTON QUROLLI KUCHLARINING 19 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIĞA BAYRAM TABRIGI. <i>2011-yil 14-yanvar</i>	175
BARCHA REJA VA DASTURLARIMIZ VATANIMIZ TARAQQIYOTINI YUKSALTIRISH, XALQIMIZ FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI. <i>2010-yilning asosiy yakunlari va 2011-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011-yil 21-yanvar</i>	188

BOLALAR SPORTI – O'ZBEK SPORTINING KELAJAGI, UNING XALQARO MAYDONDAGI OBRO'-E'TIBORINI YUKSALTIRISHNING POYDEVORIDIR. <i>Bolalar sportini rivojlan-</i> <i>tirish jamg'armasi Homiylik kengashining</i> <i>majlisidagi nutq. 2011-yil 25-fevral</i>	240
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI XODIMLARIGA BAYRAM TABRIGI. <i>2011-yil 4-mart</i>	253
O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI. <i>2011-yil 5-mart</i>	260
NAVRO'Z BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI SO'Z. <i>2011-yil 21-mart</i>	268
MILLIY DAVLATCHILIGIMIZ TARIXINING MUMTOZ NAMUNASI (<i>«Temur tuzuklari»ning</i> <i>yangi nashriga so'zboshi</i>)	273
«DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI» MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA. <i>2011-yil 23-aprel</i>	280
«BARKAMOL AVLOD» SPORT O'YINLARI ISHTIROKCHILARIGA. <i>2011-yil 29-aprel</i>	293
BU BUYUK VATANDA INSON ULUG', XOTIRA – MUQADDAS. <i>2011-yil 9-may</i>	298

VI UMUMJAHON SUV FORUMIGA TAYYORGARLIK BO'YICHA TOSHKENT MINTAQAVIY KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA QUTLOV MUROJAATI. <i>2011-yil 13-may</i>	306
«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY-IJTIMOIY TARAQQIYOTINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI (1990—2010-YILLAR) ASOSIY TENDENSIYA VA KO'RSATKICHLARI HAMDA 2011—2015- YILLARGA MO'LJALLANGAN PROGNOZLARI» STATISTIK TO'PLAMIGA YOZILGAN SO'ZBOSHI	311
MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA. <i>2011-yil 27-iyun</i>	326
O'ZBEKISTON G'ALLAKORLARIGA. <i>2011-yil 22-iyul</i>	336

Ислам Абдуганиевич Каримов

**ДАЛЬНЕЙШЕЕ УГЛУБЛЕНИЕ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ
РЕФОРМ И ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОГО
ОБЩЕСТВА – ОСНОВНОЙ КРИТЕРИЙ РАЗВИТИЯ
НАШЕЙ СТРАНЫ**

Том 19

На узбекском языке

Nashr uchun mas'ul *B. Xudoyorova*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *U. Kim*

Musahhih *G. Azizova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Bosishga ruxsat etildi 29.07.2011. Qog'oz formati 84x108^{1/32}.
«Tayms» garniturada offset usulida bosildi. Shartli b.t. 18,27.
Nashr t. 12,68. Tiraji 7000. Buyurtma № 11-234.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Karimov, Islom Abdug‘aniyevich.

K 25

VI

Demokratik islohotlarni yanada chiqqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish — mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir/I.A. Karimov.— T.: O‘zbekiston, 2011. T. 19. —348 b.

ISBN 978-9943-01-746-7

«O

УДК: 321.7(575.1)+342.34(575.1)

ББК 66.3(5Ў)+66.3(5Ў)12

M

O

